

84(2R05)

P77

SERGEY DOVLATOV

AJNABIIY AYOL



JA HON A D

UR KUMIDAN



CH0000036489

SERGEY DOVLATOV



JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN



24/2805/
D77

SERGEY DOVLATOV

AJNABIY AYOL

QISSA



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

4
Nizomiy nomli
YDFU
kutubxonasi

930860

UO'K: 821.161.1-31
K BK 84(2Ros)
D 63

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

F. SHOHISMOIL, M. MIRZOIDOV

O'z yurtida to'kin-sochin hayot kechirayotgan qiz birdan Amerikada yashashni istab qoladi. „Har joyni qilma orzu...“ degan naql behudaga aytilmagan.

Rus adibi Sergey Dovlatovning „Ajnabiy ayol“ qissasi yolg'iz o'g'li bilan chet elga ketib, o'z Vataniga qaytish orzusida yashagan Marusyaning mashaqqatli hayoti haqida hikoya qiladi.

Shuningdek, ushbu to'plamdan I. S. Turgenevning „G'olib sevgi qo'shig'i“ nomli hikoyasi ham o'rin olgan.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqi-shar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasr namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chexov, G. de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muayassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odi! Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlar bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

AJNABIY AYOL

*Amerikadagi yolg'iz rus ayollariga –
mehr-muhabbat, anduh va umid bilan.*

YUZ SAKKIZINCHI KO'CHA

Dahamizda g'alati voqea yuz berdi. Marusya Tatarovich lotin amerikalik Rafaelni sevib qoldi. U ikki yilgacha ikkilanib yurdi, nihoyat taqdirga tan berdi. Aslini olganda, Marusya uchun taqdirga tan berishdan boshqa yo'l yo'q.

Ko'chamizda yashovchilarning hammasi tashvishda: bu yog'i qandoq bo'lar ekan? Axir, biz bunday ishlarga jiddiy qaraymiz.

Biz – bu supermarket tevaragida, asosan, ruslar istiqomat qiluvchi olti g'ishtin uy fuqarolari. Ya'ni sobiq sovet fuqarolari. Yoxud gazetalar yozganiday, uchinchi to'lqin emigrantlari.

Bizning daha esa temiryo'ldan to Sinagogg¹acha cho'zilgan. Sal shimolroqda Midou ko'li, janubroqda – Kvins xiyoboni. Bizlar o'rtadamiz.

108-ko'cha – bizning markaziy yo'limiz.

Bizda rus do'konlari, bolalar bog'chalari, suratxona va sartaroshxonalar bor. Rus sayohatlar idorasi mavjud. Rus advokatlari, yozuvchilari, shifokorlari va mol-mulk

¹Sinagogg – yahudiylar ehromi.

savdosi bilan shug'ullanuvchi dallollar ham topiladi. Rus qaroqchilari, jinnilari, shuningdek, fohishalaridan ham kamchiligimiz yo'q. Hatto rus ko'r musiqachisi ham bor.

Mahalliy aholi bizni xorijiyar hisoblashadi. Inglizcha gapirishlari bilan hushyor tortamiz. Bunday hollarda: – Ruscha gapiring! – deya iltijo qilamiz.

Buning natijasida mahalliy aholining ayrimlari bizning tilimizda gapiradigan bo'lishdi. Taomxonadagi xitoy meni ko'rdi deguncha salomlashadi.

– Xayrli tong, Salozenisa! (Soljenitsin demoqchi).

Bu yerdagi amerikaliklar, asosan, nemis yahudiylaridan iborat. Uchinchi emigratsiyada ko'proq yahudiylar kelishgan. Boshqalar yo'q hisobi. Shu boisdan tezda til topishib ketamiz.

– Shuning uchun ham yerlik aholi:

– Siz Rossiyadanmisiz? – deb so'rashadi. – Rus tilida gapirasizmi? Bizning dahada yahudiylar bilan bir qatorda koreyslar, hindlar, arablar ham yashashadi. Qora tanlilar nisbatan kam. Lotin amerikaliklar ko'proq. Tranzistorli bu kishilar bizlar uchun sirli ko'rinadi. Biz ularni bilmaymiz. Har holda ularni xush ko'rmaymiz va qo'rqamiz.

G'ilay Frida norozilik bildiradi:

– O'zlarining qo'tir Afrikalariga jo'nashsa-chi!

Fridaning o'zi Shkalov shahridan. Lekin Nyu-Yorkda yashashni ma'qul ko'radi.

Agar bizning dahamiz bilan yaqindan tanishmoqchi bo'lsangiz, idoraviy ashyolar do'koni yoniga turib oling. Bu do'kon yuz sakkizinchi va oltmish to'rtinchi ko'chalar chorrahasida. Imkoni boricha barvaqtroq keling.

Ana taksichilarimiz: Lyova Baranov, Persovich, Yeselevskiylar yo'lga chiqishyapti. Uchalasi ham miqtidan kelgan, tund, dadil kishilar.

Lyova Baranov oltmishdan oshgan. U sobiq rassom – molotovchi. Lyova o‘z martabasining dastlabki bosqichida faqat Molotov rasmini chizardi. Uning rasmlari qanchadan qancha uy-joy boshqarmalarida, poliklinikalarda, mahalliy qo‘mitalarda, hatto sobiq cherkovlarda ham namoyish etilgan.

Malakali ishchi basharasini eslatuvchi, ministr qiyofasining eng nozik qirralarini ham puxta o‘rgangan Baranov garov o‘ynab Molotov rasmini o‘n soniyada chizib tashlardi. Tag‘in ko‘zini bog‘lab chizardi.

Keyin Molotovni olib tashlashdi. Lyova Xrushchevni chizishga urinib ko‘rdi. Lekin uddalay olmadi. O‘ziga to‘q dehqon qiyofasini tasvirlashga Baranovning kuchi yetmadi.

Brejnev bilan ham xuddi shunday bo‘ldi. Opera qo‘shiqchisining aft-basharasini chizishni Baranov eplay olmadi. Shundan keyin Lyova alamidan abstraksionistga aylandi. Rangli dog‘lar, chiziqlar, ayqash-uyqash allambalolarni chiza boshladi. Buning ustiga ichadigan, to‘polon qiladigan qiliq chiqardi.

Qo‘shnilar Lyova ustidan militsionerga shikoyat qilishdi:

– Ichib oladi, to‘polon qiladi, qandaydir mavhum narsalar bilan shug‘ullanadi...

Oxiri Lyova ko‘chib ketdi. Ko‘chganda ham Amerikaga qarab jo‘nadi. U yerda mashina ruliga o‘tirdi-yu tinchidi-qoldi. To‘g‘ri, bo‘sh vaqtlarida tulpor minib turgan Reyganni tasvirlaydi.

Yeselevskiy Kiyevda marksizm-leninizmdan dars beradi. Dissertatsiya yoqlab, fan nomzodi bo‘ldi. Endi fan doktori unvonini olishga tayyorlanardi.

Kunlardan bir kun bulg‘oristonlik olim bilan tanishib qoldi. Mehmon Yeselevskiyi Sofiyaga ilmiy anjuman-

ga taklif qildi. Biroq Yeselevskiyga viza berishmadi. Af-tidan yahudiyni chet elga yuborgilari kelmadi.

Yeselevskiyning hayotda ilk bor kayfiyati buzildi:

– Shunaqami hali?! – dedi u. – Unda men Amerikaga ketaman.

Shunday dedi-yu, ketdi-qoldi. G‘arbda Yeselevskiy-ning marksizmdan hafsalasi butunlay pir bo‘ldi. Emmig-rantlar gazetalarida alamzada maqolalar e‘lon qila boshla-di. Keyin u gazetalar ham ko‘ngliga urdi. Uning mashina ruliga o‘tirishdan boshqa iloji qolmadi.

Persovich esa Moskvada ham shofyor bo‘lib ishlar-di. Chet elda ham uning hayotida hech narsa o‘zgarmadi. Rost, ancha ko‘p maosh oladigan bo‘ldi. Buning ustiga taksi ham uning o‘ziniki edi...

Ana suratxona sohibi Yevsey Rubinchik kelyapti. To‘qqiz yil burun u korxona sotib olgandi. O‘shandan beri qarz to‘laydi. Qolgan puli zamonaviy texnika sotib olishga ketyapti...

O‘n yildirki, Yevsey makaron yeydi. O‘n yildirki, u harbiy botinka kiyadi. Hechqisi yo‘q, – deb yupatadi xo-tinini, – biznes o‘g‘limizga qoladi. Ungacha qarzlar to‘lab bo‘linadi. Ammo, – deyman unga men, – yanada zamo-naviy texnika chiqadi...

Huv ana shoshib kelayotgan kishi Fima Druker bo‘la-di. U boshlovchi noshir. Tonggi gazetani olishga oshiq-yapti. Leningradda u mashhur bibliofil sanalardi. Har kun kitob bozorida izg‘ib yurardi. Olti mingta kamyob, hatto noyob kitoblar to‘plagan.

Amerikada Fima noshir bo‘lishga qaror qildi. U rus adabiyotiga unutilgan durdonalar: Oleynikov va Xarms she‘rlarini, Dobochin, Ageyev, Komarovskiy nasrini qay-tarib berish istagida yonardi.

Druker savdo markaziga farrosh bo‘lib ishga kirdi. Xotini tibbiy hamshira sifatida ishlay boshladi. Bir yil ichida ular to‘rt ming dollar to‘plashga muvaffaq bo‘lishdi. Fima bu pulga shinam idora sotib oldi. O‘z firmasi uchun zangori qaydnomalar, avtoruchkalar, tashrif qog‘ozlari buyurtma qildi. Kotiba yolladi. Yana kimni deng – Erenburgning nabirasini.

O‘z korxonasini u „Rus kitobi“ deb atadi.

Druker amerikalik taniqli filologlar – Roman Yakobson, Malmsted, Edvard Braun bilan tanishdi. Agar Roman Yakobson Svetayevaning ko‘pchilik bilmaydigan she‘rini eslatsa, Fima shoshib:

– „Ko‘priklar majmui“, o‘ttizinchi yil, ikki yuz oltmish to‘rtinchi bet, – deya ilova qilardi.

Filologlar uni aql-zakovati va beg‘arazligi uchun yaxshi ko‘rishardi.

Fima ilmiy anjumanlarga hamisha qatnashar, tanafuslarda Jorj Niva, Ottenberg va Rannit bilan suhbatlashardi. Vera Nabokova bilan yozishib turardi.

Undan olgan telegrammalarni ehtiyotlab asrardi. Telegrammalarda esa: „Qat‘iyan e‘tiroz bildiraman“, „Mutlaqo rozi emasman“, „Shartlari maqbul emas“ deyilgan bo‘lardi.

U o‘ziga „Yefim G. Druker, noshir“ degan rezina muhr buyurtirdi. Shu bilan puli ham tugadi.

Druker Mixail Barishnikovga murojaat qildi. Barishnikov unga bir yarim ming so‘m hamda uqalashni o‘rganish haqida yaxshi maslahat berdi. Druker uning maslahatini mensimay, Amxerstga konferensiyaga jo‘nadi. U yerda Veydle va Karlinskiy bilan tanishdi. Ularni o‘z bilimdonligi bilan lol qoldirdi. Bu ikkala kekxa olimga ular esdan chiqargan ko‘plab maqolalarini eslatdi.

Orqaga qaytayotganda Yuriy Ivaskanikiga kirib o'tdi. Keksa shoironikida bir hafta yashadi, Vaginov hamda Dobichin haqida suhbatlashdi.

Yana puli tugab qoldi.

Shunda Fima noyob kutubxonasining bir qismini sotdi. Tushgan pulga Feyxtvagnerning „Yahudiy Zyuss“ asarini qayta nashr etdi. Bu „Rus kitobi“ degan nashriyot uchun g'alati tanlov edi. Fima bizning emigrantlarni yahudiy mavzusi qiziqтира kerak, deb o'yladi, shekilli.

Kitob bittagina xato bilan chiqdi. Uning muqovasida yirik harflar bilan „Feyxtvagner“ deb yozilgandi. Kitobning sotilishi juda sust ketdi. Uyda erkinlik yo'q, lekin kitobxonlar bor edi. Bu yerda esa erkinlik yetarli, ammo kitobxon yetishmasdi.

Bu paytga kelib Drukerning xotini ajralishga ariza berdi. Fima idorasiga ko'chib o'tdi. Idoraning binosi „Yahudiy Zyuss“ kitobi taxlangan qutilar bilan to'la. Fima ana shu qutilar ustida uxlardi. „Yahudiy Zyuss“ni ko'p sonli oshnalariga hadya qilardi. Erenburgning nabirasi ish haqini ham kitob bilan uzardi.

Hatto bu kitoblarni rus do'konida kolbasaga ayriboshlashga ham urinib ko'rdi.

Eng qizig'i shundaki, uni xotinidan boshqa hamma yaxshi ko'rardi...

Ana, „Dnepr“ do'konining sohibi Zyama Pivovarev o'z mollarini taxlayapti.

Ittifoqda u huquqshunos edi. Amerikada esa birinchi kundanoq yuk ortuvchi bo'lib ishladi. Keyin sabzavot do'koniga oddiy ishchi bo'lib o'tdi. Bir yildan so'ng shu do'konni sotib oldi. Endi uni mollari bilan mashhur „Demsha va Razin“ firmasi ta'minlay boshladi. Bu yerda Vologda moyi, Riga shprotlari, Gurjiston choyi, Ukraina

kolbasasi sotilardi. Bu do‘konda qahrabo marjon, elektr samovar, yog‘och matryoshka va Shalyapin toboqlarini xarid qilish mumkin edi.

Zyama qariyb kecha-yu kunduz tinim bilmasdi. Tushum ham shunga yarasha. Mahallamizdagilarning ko‘pchiligi undan qarzdor edi...

Baliq do‘koni yonida publitsist Zaretskiy sayr qilib yuribdi. U kattakon ko‘ppak yetaklab olgan. Sport kiyimida, tepakal boshiga sellofan xalta kiyib olibdi.

Ittifoqda Zaretskiy madaniyat arboblari haqidagi ommabop asarlari bilan mashhur edi. Tadqiqotlari „Samizdat“da ham bosilib turardi. Uning tugallanmagan kitobi ana shunday tadqiqotlardan. Mazkur kitobda ta’kidlanishicha, sovet ayollarining to‘qson foizi ehtirossizdir.

Tez orada jazolovchi idoralar uning iziga tushishdi. Zaretskiy xorijga ketishga majbur bo‘ldi. U bojxonada tarixiy bayonot berdi:

– Men Rossiyani tark etayotganim yo‘q! Rossiya meni tark etayotir!

Kuzatib qoluvchilarning barchasidan:

– Akademik Saxarov shu yerdami? – deb so‘rab chiqdi.

Samolyotga o‘tirish oldidan u yaxshilab parvarish qilingan maysazorga qarab dadil odimladi. G‘urbatga rus tuprog‘idan bir siqim olmoqchi edi. Militsionerlar uni quvib yuborishdi. Shunda Zaretskiy hayqirdi:

– Men Rossiyani etiklarim poshnasida olib ketaman!

Amerikada Zaretskiy o‘qituvchilik qildi. U hammani o‘qitar – o‘rgatardi. Yahudiylarni pravoslavlikka, slavyanlarni – iudaizmga, Amerika kontrrazvedakachilarini – hushyorlikka.

U bor kuchi bilan demokratiya uchun kurashardi...

– Demokratiyani joriy qilish uchun barcha vositalardan foydalanish lozim, – derdi u, – Hatto atom bombasidan ham!..

Ma'lumki, amerikaliklar eshitishi uchun sekin gapirish kerak; Zaretskiy buni fahmlamasdi. U barchaga baqirib gapirardi. Zaretskiy ijtimoiy ta'minot xodimlariga baqirardi. Muhojirlarning kundalik gazetasi muharririga, kasalxonada hamshiraga do'q qilib baqirardi. U hatto suvaraklarga ham baqirib berardi.

Natijada, unga e'tibor bermaydigan, parvo qilmaydigan bo'lishdi. Shunga qaramay, u muhojirlarning barcha yig'inlarida qatnashar va baqirishda davom etardi. U g'arb demokratiyasi xavf ostida, Jeraldina Farraro – sovet josusi deya qichqirardi. Amerika adabiyoti umuman yo'q, – derdi u. – Supermarketlarda sun'iy go'sht sotilyapti. Garlemni bombardimon qilish kerak, – derdi baqirib. Undan qo'rqishar va hurmat qilishardi.

Ana, iste'fodagi dissident Karavayev kelyapti. Qo'li-da qog'oz xalta. Unda pivodan bo'shagan tunuka bankalar. Yuzida tashvish.

Ittifoqda u taniqli huquq himoyachisi edi. Tuzum bilan kurashda chinakam mardlik ko'rsatdi. Qamoqxonalarda uch muddat o'tirib chiqdi. Yetti marta ochlik e'lon qildi.

Uchinchi muddatdan keyin Karavayevni G'arbg qo'yib yuborishdi.

Dashtlabki paytlarda u muxbirlarga intervyular berar, ma'ruzalar o'qir, qandaydir jamg'armalar ta'sis etardi. Keyin unga bo'lgan qiziqish kamaydi. Endi qorin haqida ham o'ylash kerak edi.

Karavayev ingliz tilini bilmasdi. Diplomi ham yo'q edi. Qamoqxonalarda orttirgan yuk ortuvchi, non kesuvchi singari kasblari Amerikada asqotmay qoldi.

Karavayev rus gazetalarida hamkorlik qilardi. U birgina mavzuda – Rossiyaning kelajagi haqida yozardi. U kelajakni hozirgi kundan ko‘ra yaxshiroq tasvirlardi. Bu payg‘ambarlarga xos narsa.

Amerikadan Karavayevning hafsalasi pir bo‘ldi. Bu yerda unga sovet hokimiyati, marksizm va jazo mahkamalari yetishmasdi. Bir so‘z bilan aytganda, u qarshi chiqadigan hech narsa yo‘q edi.

Qamoqxonalarda orttirgan kasalligi unga nogironlik huquqini berardi. Karavayev ko‘p ichardi. Yaxshiyamki mahallamizda kecha-yu kunduz pivo sotilardi.

Ana sirli jamoat arbobi Lemkus „shevrole“ ruliga o‘tirmoqda. Ittifoqda Lemkus ommaviy o‘yinlarning mohir tashkilotchisi edi. Ommaviy sayillarni boplab o‘tkazardi. Birinchi may namoyishlarida tantanavor nutqlarni qotirvorardi. Yubiley nutqlari, kantatalar yozar, avtohavaskorlar uchun she‘riy yo‘riqlar to‘qirdi. Yoshlarning to‘ylarida – o‘rtani olib boruvchi sifatida yaxshi daromad qilar, sirk masxarabozlari uchun qiziq hangomalar ijod qilardi.

Masalan:

– Vasya, nima bo‘ldi? Nega xafasan?

– Shundoq ko‘z o‘ngimda bir odam ko‘lmakka yiqilib tushdi.

– Shunga xafa bo‘ldingmi?

– Bo‘lmasam-chi! Axir o‘sha odam men edim-da!

Lemkus siyosiy ta‘qiblar tufayli shunday holga tushgandi. Ta‘qiblar esa o‘z navbatida o‘ta beso‘naqayligi natijasida yuz bergandi.

Bu shunday bo‘lgandi. Lemkus Qurolli Kuchlarning 60 yilligiga bag‘ishlab kantata yozgan edi. Kantata Ofitserlar uyida ijro etildi. Boshlovchi Lemkusning o‘zi ma-

tinni o'qirdi. Zalga olti yuzdan ziyod armiya va flot va-killari to'planishgandi. Tantanali bayram konserti radio orqali butun shaharga eshittirilayotgan edi. Kantataning yakunlovchi qismida shunday so'zlar bor edi:

*Bizlarni tinch uxlasin deya,
Siz qoyadek turdingiz mahkam.
Buning uchun dono partiya
Mukofotlar loyiqlarni ham!*

So'nggi satrni Lemkus alohida ishtiyoq bilan xitob qilardi – „Mukofotlar loyiqlarni ham!“. Xuddi shu payt uning boshiga muvozanat uchun tepaga ilingan brezent qop tushib ketsa bo'ladimi?!

Lemkus hushidan ketdi. Tomoshabinlarga uning qop ostida qolgan oyoq kiyimi arang ko'rinardi. Uch daqiqa o'tmay, militsionerlar chopib qolishdi, yana uch soniyadan so'ng tomosha zali butunlay o'rab olindi. Lemkusni hibsga olish uchun hushiga keltirishdi.

KGB mayori uni ataylab qilingan qo'poruvchilikda aybladi. Kommunistik partiyaning tahqirlash uchun boshlovchi boshiga ataylab qopni tushirib yubording, dedi mayor.

– Axir, boshlovchi o'zim edim-ku, – o'zini oqlamoqchi bo'ldi Lemkus.

– Inchunun, – dedi mayor.

Qisqasi, Lemkus ta'qibga uchradi. Uni mafkuraviy ishlar bilan shug'ullanishdan mahrum etishdi. Chunki Lemkus boshqa ish bilan shug'ulanishni xayoliga ham keltirmasdi-da. Pirovardida Lemkus Ittifoqni tark etdi. U to'rt oy davomida o'z kasbida ishladi. Muhojirlarning Niagara sharsharasiga ommaviy sayohatini uyushtirdi. O'tirishlarda tamada bo'lib xizmat qildi. She'rlar, qofi-

yalangan e'lonlar, tabriklar, kantatalar yozdi. Menga, masalan, quyidagi satrlar yod bo'lib qoldi:

*Umr bo'yi KGBdan qaqshab biz,
Eslab u kunlarning achchiq nafasini.
Endi deymiz: jonajon Amerikamiz
Bizni yovuz dushmanlardan asrasin.*

Lekin Lemkusga juda kam haq to'lashardi. Bu orada uning ikkinchi farzandi tug'ildi. Endi uni baptistlar-ga ro'para qilishdi. Zero, baptistlar uchinchi emigratsiya bilan qiziqishayotgan edi. Ular uchun muhojirlar, yangi ko'chib kelganlar orasida o'z odamlari bo'lishi lozim ekan. Ular rossiyalik qochoqlar e'tiborini o'zlariga qaratmoqchi edilar. Baptistlar Lemkusni qadrlashardi! Chunki u oilaparvar odam edi, chekmas, ichishga uncha ruju qo'ymagandi. Lemkus shu tariqa diniy arbobga aylandi. Qandaydir sirli dunyoviy radio eshittirishlarni boshqarardi.

U muntazam ravishda „Xudoni qanday anglash kerak?“ degan eshittirishni olib boradi.

U Xudojo'y va g'amgin bo'lib qoldi. Ko'pincha nigo-hini yerga qadab pichirlardi:

– Agar Tangriga ma'qul bo'lsa, Fira tushlik uchun bu-zoq go'shtidan ovqat tayyorlasa...

Mahallamizda uni tovlamchi deyishadi...

Huv ana, burchakdan burilib ketayotgan kishini ko'r-yapsizmi? U Arkasha Lerner bo'ladi. U mol-mulk sav-dosi bilan shug'ullanadi. Hozir ham ertalabki nonushta uchun qandaydir masalliq qidirib ketyapti, shekilli.

Lerner o'z faoliyatini Belorussiya televideniyasida rejissorlikdan boshlagan edi. Uning xotini telestudiyada suxandon bo'lib ishlardi.

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

930860

Lernerlar ahil va baxtli yashashardi. Ularning yaxshigina xonadoni, ikkita maoshi, o'g'illari – kichkintoy Mi-sha hamda mashinasi bor edi.

Arkadiy Lernerni o'z ishining ustasi deb bilishardi. Qisqa metrajli ko'rsatuvlari yuksak qadrlanardi. Uning tevaragida sotsialistik realizm bilan jo'sh urgan hayot qaynardi. Devor-darmiyon qo'shnisi suv quvuri texnigi Berendeyev xotinini kaltaklardi. Derazalari tagida mast-alast kishilar shovqin solishardi. Telestudiya direktori ashaddiy antisemit edi.

Shunday qilib, Lernerlar chet elga ketishga qaror qilishdi. Buning ustiga ayni o'sha paytda ko'plar ittifoqdan ketib qolishayotgandi. Ular orasida Lernerlarning eng yaqin do'stlari ham bor edi.

Amerikada Lerner bir yilgacha divanda cho'zilib yotdi. Xotini „Aleksandrs“da sotuvchi bo'lib ishlardi. O'g'li yahudiylar maktabiga qatnardi.

Lerner televideniyada ishlashni orzu qilardi. Ayni paytda u o'zini muhojirlarga xos tutmasdi. O'zini davlat mukofotlarining sobiq sovrindori sifatida maqtamas, dissidentlik borasidagi xizmatlarini bo'rttirib ko'rsatmasdi. G'arb san'ati tanglikni boshidan kechirmoqda, deb ta'kidlamasdi.

Do'stlari uni prodyuser bilan tanishtirib qo'yishdi! U rus mumtoz asarlarini ekanlashtirish niyatida edi. Unga slavyanlarga mansub rejissor kerak bo'ldi.

Uchrashuv „Blou-ap“ restoranining dahlizida bo'lib o'tdi.

- Rejissormisiz? – so'radi amerikalik.
- Nima desam ekan... – deb javob qildi Lerner.
- Ya'ni?
- So'nggi yil ichida men haddan tashqari inqirozga uchradim.

– Lekin, sizni rejissor bo‘lgan deyishyapti.

– Bo‘lganman. Aniqrog‘i ro‘yxatda shunday edim. Menga rejissorlik unvonini oltmish yettinchi yilda berishdi. Ungacha esa men yordamchi bo‘lib ishlardim.

– Rejissor yordamchisimi?

– Ha. Unga aroq tashib turadigan yordamchi.

– Sizni iste‘dodli rejissor bo‘lgan deyishdi, rostmi?

– Iste‘dodli? Birinchi marta eshitib turibman. qilgan ishim meni qanoatlantirmasdi.

– Okey. Men klassiklarni ekranlashtirish bilan shug‘ullanaman.

– Menimcha, barcha ekanlashtirishlar bir tiyinga qimmat.

– Hazillashyapsizmi?

– Men, haligi, yangi mavzu ma‘qul, demoqchiydim.

– Masalan?

– Aytaylik, tabiat haqida...

– E-e – dedi amerikalik – tabiat o‘zini qoplamaydi.

Lerner e‘tiroz bildirdi:

– San‘at sotilmaydi.

Shu bilan gap ham tugadi. Ular kelisha olishmadi. Lerner yana uch oy divanda cho‘zilib yotdi. Lekin shuni ham qayd qilish joizki, uning moliyaviy ishlari yomon ketmasdi. Aftidan, Lerner moddiy farovonlikning qandaydir maxsus in‘omidan foydalanardi. Umuman, ishonchim komilki, kambag‘allik va boylik tug‘ma sifatdir. Masalan, aytaylik, sochning rangi yoki musiqaviylikdek. Birov kambag‘al bo‘lib tug‘iladi, birov esa boy. Bu o‘rinda pulning sira ahamiyati yo‘q.

Kambag‘al bo‘lsa ham puli ko‘plar oz deysizmi?! Yoki yonida hemiri yo‘q shahzodalar kammi?!

Kambag'allar har qanday sharoitda ham zarar ko'rishadi. Ularga har qadamda jarima solishadi, hatto kuchuklari belgilanmagan joyni iflos qilsa ham pul to'latishadi. Sho'rlikning chaqasi tushib ketsa ham dumalab, allaqanday teshikka sho'ng'iydi.

Boylarda esa butunlay aksi. Ular eski kamzullarining cho'ntagidan pul topishadi. Lotoreyalariga doim yutuq chiqadi. Qandaydir notanish qarindoshlaridan meros sifatida dalahovli oladilar. Ularning kuchuklari ko'rgazmalarda pul mukofotiga loyiq ko'riladi.

Aftidan, Lerner badavlat qilib yaratilgan edi. Chunki tez orada u pullik bo'lib qoldi. Avvalo uni mahalliy tish texnologining ko'ppagi qopib oldi. Lernerга kattagina tovon to'lashdi. Keyin Lernerни bir chol qidirib kelib qoldi. Bu chol imperialistik urush arafasida Lernerning bobosidan uch chervon qarz olgan ekan. O'tgan yetmish yil ichida uch chervon bir necha ming dollarga aylanibdi. Shundan keyin Lernerга tanishlaridan bittasi murojaat qilib qoldi:

– Menda biroz pul bor edi. Shuni olib saqlab qo'ygin. Keyin, agar mumkin bo'lsa, oshiqcha savolning sira keragi yo'q.

Lerner pulni oldi. Savol berishga urinmadi ham.

Oradan bir hafta o'tib, uning haligi tanishini Atlantik-Sitida otib qo'yishdi.

Ko'p o'tmay Lerner hovli sotib oldi. Bir yil ichida haligi hovlining narxi uch barobar ko'tarildi. Lerner uni pullab, uchta boshqa uy oldi. Shu tariqa u molk-mulk olib-sotish bilan shug'ullana boshladi.

Borgan sari divandan kamroq turadigan bo'lib qoldi. Puli esa borgan sari ko'paya bordi. Endi u pulni ayamay sarflayapti. Asosan, oziq-ovqatga.

Amerikada u o‘n ikki yildan beri yashayapti. Shu davr ichida atigi bittagina kitob sotib oldi. Kitobning nomi juda ma‘nodor. O‘ziyam „Ertalabki nonushta uchun yuz dollarni qanday sarflash kerak“ deb ataladi...

U nonushta qilib bo‘lgach, telefonni uzib qo‘yadi-da, pinakka ketadi. Hatto chekishga ham erinadi.

Sezib turibman, muqaddima juda cho‘zilib ketdi. Endi Marusya Tatarovichga qaytsak ham bo‘lar.

YAXSHI OILADAN CHIQQAN QIZ

Marusyaning otasi ishlab-chiqarish texnika kombina-
ting bosh direktori edi. Uni Fyodor Makarovich deyi-
shardi. Onasi shahardagi eng yirik tikuvchilik korxonasi-
ni boshqarardi. Ismi-shariflari GalinaTimofeyevna edi.

Marusyaning ota-onasi amalparast emasdilar. Aksin-
cha, ular oddiy, uyatchan, hatto no‘noq kishilar bo‘lib
ko‘rinishardi.

Fyodor Makarovich, masalan, tramvayga chiqish-
ga uyalardi, ofitsiantlardan tortinardi! Shuning uchun
ham u shahar qo‘mitasining qora mashinasida yurardi,
oziq-ovqatni esa xufiya taqsimotchidan olardi.

Galina Timofeyevna ham o‘z navbatida, baqiriq-cha-
qiriqdan juda qo‘rqardi va yomon xodimni ishdan bo‘-
shatish bilan mahalla qo‘mitasi shug‘ullanardi. Galina Ti-
mofeyevna esa staxanovchilarga mukofotlar topshirardi.

Marusyaning ota-onasi yuqori martabalar uchun ya-
ratilmagandi. Ularni bunga fuqarolik sharoiti majbur qi-
lardi.

Har qanday kishiga nomenklatura¹ bo‘yicha tez ko‘-
tarilishni kafolatlaydigan dalillar bo‘ladi. Buning uchun

¹Nomenklatura – yuqori tashkilot hisobida turuvchi.

to'rtta eng oddiy sifatga ega bo'lish lozim. Bu avvalo – rus, partiya a'zosi, qobiliyatli va hushyor bo'lish demakdir. Shu sifatlarning hammasi bo'lishi nihoyatda zarur. Ulardan birortasi bo'lmasa, demak siz hech narsaga yaramaysiz.

Rus, partiya a'zosi, qobiliyatli araqxo'r yaramaydi. Rus, partiya a'zosi va ichmaydigan tentak – umri tugab borayotgan qiyofa. Partiyasiz – barcha sifatlarga ega bo'lgani holda ham ishonchsiz hisoblanadi.

Nihoyat, ichmaydigan, qobiliyatli yahudiy kommunist – hatto mening ham g'ashimni keltiradi. Marusyaning ota-onasi mana shu sifatlarning barchasini o'zlarida mujassamlashtirgan edilar. Ular rus, partiyaga a'zo, ichmaydigan, o'ta qobiliyatli bo'lmasa ham, yetarli darajada intizomli edilar.

Ular urushdan oldin turmush qurishgandi. Fyodor Makarovich yigirma uch yoshida muhandis bo'ldi. Galina Timofeevna tikuvchi bo'lib ishlardi. Keyin o'ttiz sakkizinchi yil boshlandi. Albatta, bu juda qo'rqinchli davr edi. Lekin hamma uchun emas. Ko'pchilik Dunaevskiyning hayotbaxsh musiqasiga raqs tushardi. Bundan tashqari narx-navo yildan yilga arzonlashib borardi. Uvildiriqning bir kilogrammi o'n ikki rubl turardi. Uni har qadamda topsa bo'lardi.

Albatta, begunoh kishilarni otishardi. Baribir, bir kishining otib tashlanishi boshqalar uchun foyda bo'lardi. Bitta qandaydir marshalning qatl qilinishi uning o'nlab xizmatdoshlarining martabasi oshishini kafolatlardir. Bo'shagan o'ringa generalni o'tqazishardi. Shu general lavozimini polkovnik egallardi. Polkovnik o'rniga mayor o'tirardi. Tegishli tarzda kapitan va leytenantlar unvoni ham oshirilardi.

Birgina xalq komissarining otilishi o'nlab xizmat o'rinlarining o'zgarishiga olib kelardi. Bu o'zgarishlar, tabiiy, yuqoriga qarab bo'lardi. Quyi byurokratlar to'dasi xizmat pillapoyasi bo'ylab ko'tarila boshladilar.

Fyodor Makarovich mehnat qilayotgan zavodda sakiztacha kishini hibsga olishdi. Ular orasida korxona boshlig'i ham bor edi. Fyodor Makarovich uning lavoziimini egalladi. Uning xotini ishlayotgan fabrikada brigada boshlig'ini qamoqqa olishdi. Uning o'rniga Galina Timofeevnani o'tkazishdi.

Hibsga olishlar ikki yilcha davom etdi. Shu davr ichida Fyodor Makarovich uncha katta bo'lmagan bir korxonaning bosh texnologi bo'lib oldi. Galina Timofeyevna mahsulot sotish bo'limi mudirasiga aylandi.

Keyin urush boshlandi. Metallurgiya zavodi va tikuv fabrikasi tezda ko'chirib olib ketildi. Novosibirskda ular qiz ko'rishdi. Qizchaga Marusya deb ism qo'yishdi.

Marusyaning ota-onasi front ortida kerak odamlar edilar. Ularga xandaqlarda emaklab yurish to'g'ri kelmadi. Holbuki, ko'plab ma'muriy xodimlar urushga jo'nagandi. Ularning yaxshilari halok bo'lishdi. Fyodor Makarovich bilan Galina Timofeyevnaning esa lavoziimini ko'tarishdi. Buning uchun ularni ayblashga kimning haqqi bor?..

Oltmishinchi yillarga kelib Marusyaning ota-onasi o'rta bo'g'in nomenklaturasida mustahkam o'rناshib olishdi. Ular korxona rahbari va mahalliy kengashlarning deputatlari edilar. Ularda barcha tegishli imtiyozlar – ulkan xonadon, dala hovli, yong'oqdan ishlangan fin mebeli mavjud edi. Shundoqqina derazalari tagida navbatchi mashina hozir-u nozir turardi.

Fyodor Makarovich rahbarlik qilayotgan korxona namunali hisoblanardi. Yetmishinchi yilda unga Leonid

Ilich Brejnev tashrif buyurdi. Shunda Fyodor Makarovich namuna ko'rsatdi.

Zavod boshqaruvi binosining oldi maydoni ko'kalamzorlashtirilgan edi. Ko'kalamzorga odatdagicha: „Maysazorda yurish ta'qiqlanadi“ degan shior ilingandi. Sarkotib kelganida oktabr oyi edi. Bu paytda maysalar sarg'aygandi. Shunda: Fyodor Makarovich o'tlarni bo'yash to'g'risida farmoyish berdi. Darhol maysazorni bo'yab chiqishdi. Buning uchun buyoq purkagichdan foydalanildi. Maysazor subtropik zumrad tusga kirdi.

Brejnev keldi. A'yonlari bilan birga zavod boshqarmasiga kirdi. Maysazorga nigoz tashladi-yu, hazillashdi:

– Demak, yurish ta'qiqlanadi-a? Qani, biz bir ko'raylik-chi!

Shunday deb, Brejnev maysazor ustidan yurib ketdi.

Hamma kulib, qarsak chalib yubordi. Fyodor Makarovich kulayotib tabrik nutqi bitilgan yorliqni tushirib yubordi. Brejnev Fyodor Makarovichni quchoqlab, dedi:

– Qani, azamat, xo'jaligingni ko'rsat!

Shu paytdan boshlab Brejnev Fyodor Makarovichni o'z himoyasiga oldi.

Marusya o'ziga to'q ahil oilada o'sdi. Hovlida doim itoatkor, yaxshigina kiyingan bolalar qurshovida bo'lar edi. Ular yashagan uy shahar partiya qo'mitasiga qarashli edi. Uy yonida muntazam militsioner navbatchilik qilardi.

Marusya baxtli qiz bo'lib ulg'aydi. U maktabda yaxshi o'qir, raqs to'garagiga qatnardi. Uning royali, rangli televizori, hatto kuchugi ham bor edi. Kino, teatr, muzeylarga borib turardi. Fizkultura bilan shug'ullanardi. Xullas, juda odobli qiz edi.

Maktabni bitirgach, Marusya madaniyat institutiga

osongina kirdi. Odatda, bu institutni bitirganlar badiiy havaskorlik ishlari bilan shug'ullanadilar. Biroq Marusya o'ziga tuzukroq ish topishga ishonardi. Aytaylik, radio yoki musiqiy jurnalda. Bu borada unga ota-onasi yordam berishi mumkin.

Marusyani o'n uch yoshidan yaxshi tarbiya ko'rgan, zukko, ziyoli o'smirlar qurshab olgandi. Marusya ular bilan do'stlikka shu qadar ko'nikkan ediki, sevgi haqida kamdan kam o'ylardi. Uni qurshagan yosh yigitlardan har biri unga sodiq muxlis edi. Muxlislarning har biri Makarovichning bu yoqimtoy, sarvqomat va quvnoq qiziga uylanishga tayyor edi.

Lekin butunlay boshqacha bo'lib chiqdi. Gap shundaki, Marusya kelib-kelib yahudiyni sevib qoldi.

Bolaligi baxtli o'tganlarning hammasi intiqom haqida unutmasliklari lozim. Ular o'zlariga tez-tez: „Oxiri nima bo'larkin?“ degan savolni berib turishlari kerak.

Quvnoq kayfiyat, sog'liq, go'zallik – menga qanchalik qimmatga tusharkan?

Mehribon, badavlat ota-onamning menga ko'rsatgan muruvvatini nima bilan uzaman?

Mana, Marusya o'n to'qqiz yoshida Sexnovitser degan umidsiz familiyali bir yahudiyni sevib qoldi.

Mohiyat e'tibori bilan, yaqudiy – bu familiya, kasb-kor va qiyofadir. Yahudiylarning betaraf familiyali, o'rtamiyona kasb-korli, kosmopolit qiyofali nozik nusxalari mavjud. Biroq Marusya tanlagan yaqudiy bunaqalardan emasdi.

Uni to'la qilib Lazar Ruvimovich Sexnovitser deydishardi. U ozg'in, burni uzun, jingalak soch edi. Skripka chalishni ham o'rgangandi. Bu ham yetmaganidek, har qanday yahudiy singari Sexnovitser ham Sovetlarga qar-

shi edi. Marusya uni iste'dodi, ozg'inligi, zakovati va zaharxanda yumori uchun sevib qolgandi.

Marusyaning ota-onasi, garchi yahudiylarga qarshi bo'lmassalar-da, jiddiy tashvishga tushib qoldilar.

Galina Timofeyevna norasmiy vaziyatda:

– Yaxshisi, men ishga yaqudiyini olaman – deb takrorlashni yaxshi ko'rardi. – Yahudiy har holda ichmaydi!

Buning ustiga – deya qo'shimcha qilardi Fyodor Makarovich – yahudiy o'ylab o'g'iraydi. Yahudiy ishxonadan kerakli narsanigina olib ketadi. Rus bo'lsa-chi, duch kelgan narsani olib ketaveradi...

Lekin, baribir, Marusyaning ota-onasi tashvishga tushib qolishdi. Buning ustiga Sexnovitser ularga shubhali shaxs bo'lib ko'rindi. U har kuni kechasi g'arb radiosini tinglar, yirtiq poyabzalda yurar va tinimsiz hazillashardi. Tag'in deng, Marusyaga Babel, Platonov, Zoshchenkolarning g'oyaviy g'o'r kitoblarini berardi.

Kuyoving yahudiy bo'lsa – shuning o'zi fojia – deb o'ylardi Fyodor Makarovich. – Lekin nabiralaring yahudiy bo'lishi – halokat! Buni tasavvur qilish ham qiyin!

Fyodor Makarovich Sexnovitser bilan gaplashishga qaror qildi. U hatto qizishib ketib, Sexnovitserga pora bermoqchi ham bo'ldi. Lekin Galina Timofeyevna ancha aqlli roq ekan.

U Sexnovitserni qat'iyat bilan uyiga taklif qila boshladi. Unga g'amxurlik ko'rsatib, parvona bo'ldi. U bilan birga Govorov, Chichibabin, Linetskiy, Shumeyko¹larning bolalari ham chaqirilardi.

¹Govorov – marshal, Chichibabin – akademik, Linetskiy – „Savfrax“ firmasi direktori, Shumeyko – MQ yo'riqchisi.

Sexnovitser bu guruh orasida o'zini begonaday his qilardi. Uning onasi tramvay konduktori bo'lib ishlardi, otasi urushda o'lgandi.

Makarovichlar uyida to'planuvchi yoshlar Janubga, Boltiqbuyiga borib kelishardi. Yaxshi kiyinishardi. Restoranlar, teatrlarga borishni yaxshi ko'rishardi.

Chayqovchilardan jaz musiqa sotib olishardi.

Sexnovitserda pul bo'lmasdi. Uning uchun hamisha Marusya to'lardi.

Buning evaziga Sexnovitserda Marusyaning do'stlariga nisbatan nafrat hissi ortib borardi. U badavlat yigitlarni kaltafahmlikda, surbetlikda, hayosizlikda ayblar, natijada, o'zi yakkalanib qolardi.

Bordi-yu, Sexnovitserga: „Mangodan ichib ko'r“ deyishsa, aftini burishtirardi:

– Menga non kvasi ma'qul!

Agar u bilan do'stona gaplasha boshlashsa, qoshini chimirib:

– Menga osoyishtalik ma'qul! – derdi.

Natijada, Marusyaning Sexnovitserdan ko'ngli qoldi va Dima Fyodorovga ko'ngil qo'ydi.

General Fyodorovning o'g'li jarrohlikka o'qirdi. U muammolari oldindan hal qilingan, sho'x va xushro'y yigit edi. Unda hamma narsa yaxshi edi. Boshqacha bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qilolmasdi.

Uning faxrlansa arzigulik otasi bor edi. Xonadonlari Shchors ko'chasida joylashgandi. Dima u yerda buvisi bilan yashardi. Shuningdek, unda dala hovli, mototsikl, sevgan hunari, kuchugi va ov miltig'i ham bor. Faqat yaxshi bir oiladan chiroyli oyimqizni topib uylanish qolgandi.

Dima Fyodorov beshinchi kursda uylanish to'g'risida bosh qotirishga tushdi. Shunda u Marusya bilan tanishib

qoldi. Oradan olti hafta o'tib nikohdan o'tishdi. Yana uch kundan so'ng yosh kelin-kuyov Qrimga jo'nashdi.

Kuzda ota-onalari ularga ikki xonali uy sovg'a qilishdi. Marusyaning oilaviy turmushdagi hayoti shunday boshlandi.

Dima uzdu-kun akademiyada qolib ketardi. Marusya diplom himoyasiga tayyorlanardi. Kechqurunlari ular televizor tomosha qilishar va chaqchaqlashib o'tirishardi. Shanba kunlari kinoga borishardi. Mehmon kutishar, o'zlari ham tanishlarnikiga tashrif buyurib turishardi.

Marusya Dimani sevishiga ishonchi komil edi. Axir uni o'zi tanlagan edi-da.

Dima g'amxo'r, aqlli, boadab edi. Tartibsizlikka toqati yo'q edi. Har kuni ertalab yon daftariga qaydlar yozib borardi. Daftarida „o'ylab ko'rish“, „bajarish“, „qo'ng'iroq qilish“ singari ruknlar bo'lardi. Ba'zan: „Vitaliy Lutsenko bilan salomlashmaslik“ yoki „Aleshkovichning surbetligiga parvo qilmaslik“ deb yozib qo'yardi.

Shanba kuni „Masha“ degan yozuv paydo bo'ldi. Demak, kino yoki teatrga borish, restoranda ovqatlanish, muhabbat...

– Men rasmiyatchi emasan – derdi Dima. – Tartibsizlikka toqatim yo'q, xolos.

Dima yaxshi odam edi. Uning nuqsoni kamchiligi yo'qligi. Ma'lumki, kamchiliklar kishini ko'proq jalb qilardi. Har narsasi to'kis odamga uncha e'tibor ham qilishmaydi.

Oradan bir yil o'tib undan Marusyaning ko'ngli butunlay sovidi. Lekin Dima o'zini shunchalik benuqson tutardiki, Marusya unga bo'lgan nafratini aytishga bahona topolmasdi. Shu tariqa ular yaxshi yashashardi.

Rost, hamma narsa yaxshi boshlanishining o'zi kulfat

ekanini ko'pchilik bilmaydi. Demak, bu faqat baxtsizlik bilan tugashi mumkinligini bildiradi.

Xuddi shunday bo'ldi.

Avvaliga Dimaning otasi, general qazo qildi. So'ngra ichkilikka berilgan onasi jinnixonaga tushdi. Shundan keyin merosxo'rlar – uch aka-uka va bir singil, kimga nima tegishi kerak, deb gap talashib, janjallashib qolishdi.

Generalning eng qimmatbaho buyumlari prokuratura tomonidan musodara qilindi. Xususan, Stalin sovg'a qilgan qilich, yoqut qadalgan yugoslav ordeni davlat tasarrufiga o'tib ketdi.

Qisqasi, bir oy ichida Dima oddiy odamga aylandiqoldi. Hamon sadoqat bilan aspirantligini davom ettirardi.

Ba'zan Marusya xitob qilardi:

– Hech bo'lmasa, ichib kelsang-chi!

– Araqxo'rlik – ixtiyoriy jinnilikdir, – derdi Dima.

Marusya yana bo'sh kelmasdi:

– Unda rashk qil!

– Rashk qilish, – derdi Dima, – boshqalarning xatosi uchun o'zingdan o'ch olishdan bo'lak narsa emas.

Baxt-saodatli odam uchun eng og'ir sinov to'satdan muvaffaqiyatsizlikka uchrashdir. Dima borgan sari parishonxotir va g'amgin bo'lib borardi. Endi restoranga kirsaham kotlet va kompot buyurardi. Chet el kastumini favqulodda hollardagina kiyardi. Marusya ota-onasining moliyaviy yordamidan istihola qilardi.

Bu ham yetmagandek, Marusya unga xiyonat qila boshladi. Yana deng, tanlamay, tinimsiz ilakishadigan bo'lib qoldi. U erining do'stlari, tanishlari, taksi haydovchilar bilan ham don olishib yuradigan odat chiqardi. Madaniyat instituti o'qituvchilari, tramvayda uchratgan yo'lovchilar-

dan ham tap tortmadi. Hatto to'satdan paydo bo'lib qolgan Sexnovitser bilan ham hamto'shak bo'ldi. Avvaliga Marusya o'zini oqlashga va aldashga urinardi. Qandaydir qo'shimcha mashg'ulotlar va seminarlarni o'ylab topardi. Goho o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan dugonasinikida uyqusiz tong ottirganini gapirardi. Ba'zan Dergachyovdagi qarindoshlarnikiga borganini bahona qilardi.

Keyin muttasil aldayverish va o'zini oqlash Marusyaning joniga tegdi. Har xil uydirmalar to'qiyverishdan charchadi.

Ertalabga yaqin uyiga qaytib kelarkan, yo'lda biror narsa o'ylab toparman, liftda esimga kelar, tavakkaliga biror narsa derman, degan xayolda bo'lardi.

– Qayerda eding? – so'rardi Dima hayrat bilan.

– Menmi? – xitob qilardi Marusya. – „Qayerda“ deganing nimasi?! Qayerda emish! Aytaylik, tanishlarimnikida. Tanishlarimni ko'rib kelishga haqqim bormi?

Agar Dima hadeb so'rayversa, Marusya tezda asabiy-lashardi.

– Meni sharob ichdi deb hisoblayver! Meni buzuq ayol deb hisoblayver! Biz ajrashganmiz deb hisoblayver!

Ma'lumki, nikohda tenglik bo'lmaydi. Kim kamroq sevsa, ustunlik o'sha tomonda bo'laveradi. Agar buni ustunlik deb hisoblash mumkin bo'lsa, albatta.

Marusya o'ttiz yoshga chiqqanda shuni anglab yetdiki, turmush huzur-halovatdan iborat ekan. Qolgan hamma narsani ko'ngilsizlik desa ham bo'ladi.

Huzur-halovat – bu gullar, restoranlar, muhabbat, chet el buyumlari va musiqa. Ko'ngilsizlik – bu pul bo'lmasligi, minnat qilish, kasallik va aybdorlik hissi. Marusya huzur-halovatga berildi, ko'ngilsizlikdan chetlab o'tishga urindi. Uning Dimaga rahmi kelardi.

Marusya vijdoni qiynalayotganini his qilib, achinish bilan:

– Xohlasang, – derdi, – birorta qizcha bilan tanishtirib qo‘yaman.

– Nima uchun? – so‘rardi Dima hayrat bilan.

Tez orada Marusya bilan Dima ajralishdi. Marusya ota-onasinikiga ko‘chib o‘tdi. Ota-onasi avvaliga xafa bo‘lishdi, keyin tezda tinchlanishdi. Dima Fyodorov endi er sifatida uncha qiziqitirmasdi. Marusya bo‘lsa yana yaxshi oiladan chiqqan qayliq, oyimqiz bo‘lib qolaverdi.

Oradan biroz vaqt o‘tgach, Marusya mashhur dirijor Kajdanni sevib qoldi. Keyin taniqli rassom Sharafiddinov yuragidan urdi. Bu rassomga Haydar Aliyevning o‘zi homiylik qilardi. So‘ngra dong taratgan ko‘zboylog‘ich Mabisni yoqtirib qoldi. Bu fokuschi shundoqqina odamlar ko‘z o‘ngida ayollarni arralab tashlardi. Ularning hammasi Marusyadan kattaroq, uning otasi qatori edilar.

Marusya Kajdan bilan Boltiqbo‘yi va Uralni aylandi. Sharafiddinov bilan Alupkada yashadi. Ko‘zboylog‘ich Mabis bilan esa butun qutb orti bo‘ylab uchib yurdi.

Keyinchalik Kajdan ilonbaliqdan zaharlanib o‘ldi. Sharafiddinov bo‘lsa viloyat partiya qo‘mitasining tazyiqi bilan Marusyani tashlab, kasal xotini huzuriga qaytdi. Mabis esa Frankfurtga gastrolga borganida, u yerda siyosiy boshpana olishga muvaffaq bo‘ldi. Qisqasi, ularning hammasi Marusyani tashlab ketishdi. Shunda birdan Marusya tashvishga tushib qoldi. Uning barcha dugonalari oilali, turmushlari to‘kis edi.

Albatta, uning barcha dugonalari ham birdek yaxshi yashamasdilar. Ularning ba‘zilari erlariga zulm o‘tkazardi. Ko‘plariga erlari xiyonat qilardi. Lekin baribir... ularning boshlarida erlari bor. Eri borligining o‘ziyoq

ularni atrofdagilar ko'zi o'ngida qadrli qilib ko'rsatardi.

Er juda ham zarur. Hech bo'lmaganda nafrat buyumi sifatida ham er bo'lishi kerak edi.

Bu paytda Marusya o'ttizni qoralab qolgandi. U allaqachon tug'ishi kerak.

Yana ikki-uch yildan keyin kech bo'lishini Marusya yaxshi bilardi.

Marusya tashvishga tushdi. Xuddi avvalgidek, bo'ydoq erkaklar unga alohida e'tibor bilan qarashardi. Ko'pgina ayollar hamon burungidek unga hasad qilishardi. Restoranlar, teatrlar, nufuzli do'konlar – bularning hammasi uning xizmatiga tayyor edi. Lekin, tashvish hissi kamaymasdi. Balki oydan oyga zo'rayib borardi.

Shunda Marusya hayotining ufqida mashhur estrada qo'shiqchisi Bronislav Razudalov paydo bo'ldi. Hozir uning nomini eslashmaydi. Lekin oltmishinchi yillarda u – Xil, Kobzon, Dolinskiylarga nisbatan mashhurroq edi.

Razudalov Marusyaning barcha talablariga mos kelardi. U kelishgan, iste'dodli, mashhur, mo'maygina pul topardi. Eng muhimi xushchaqchaq, yengil va beg'am yashardi.

Marusya ham unga yoqib qoldi, chunki sarvqomat, quvnoq, yengiltak edi. Nikohdan o'tishdi. Razudalov tez-tez gastrollarga chiqib turardi. Uni kuzatib borish Marusyaga juda yoqardi.

Avvaliga uning yonida bo'ldi. Kechqurunlari uning konsertlarida o'tirardi. Kunduzlari vositachi do'konlarni aylanardi.

Keyin unda majburiyatlar paydo bo'ldi. Marusya afishalar buyuradigan bo'ldi. Mahalliy gazetalarda ijobiy taqrizlar uyushtirardi. Hatto hisob-kitob ishlarini ham olib borardi. Bu esa Marusyadan alohida kasb malakasini talab

qilardi. Axir unga faqat qo'shish va ko'paytirishga to'g'ri kelardi-da.

U paydo bo'lguniga qadar konsertlarni Razudalovning o'zi olib borardi. Tomoshabinlar bilan muloqot unga juda yoqardi, ayniqsa qishloq joylarda u juda kiftini keltirardi. Jumladan, u sahnaga chiqarkan, konsertni boshlashdan oldin shunday derdi:

– Ayrim xonandalarning ovozi chiroyli bo'ladi. Ba'zilar esa yurakdan kuylashadi. Menda esa ovoz yo'q... Ora-ga jimlik cho'kardi.

– Yurak ham yo'q...

Qahqaha va qarsaklar ostida Razudalov so'ziga yakun yasardi:

– Nima bilan kuylayman – o'zim ham hayronman?..

Asta-sekin Marusyaga boshlovchilik lavozimini ishonadigan bo'lishdi. Marusya o'ziga uchta konsert ko'ylagi tikirdi. Sahnada nazokat bilan yurishni o'rganib oldi. U parda ortidan dadil yurib chiqardi-da, zalning birinchi qatorida o'tirganlarga zavqli nigoh tashlardi. Keyin baland ovozda e'lon qilardi:

– Marhamat qilib qarshilang: Estrada artistlari Butunittifoq konkursining sovrindori Bronislav Razudalov!

Razudalovning konsertlari muvaffaqiyalli o'tardi. U ishqiyl mavzuda ko'proq kuylardi. Qo'shiqlarining mazmuni taxminan shunday bo'lardi:

Sen „yo‘q“ deb xitob etding,

Men „ha“ deya eshitdim.

Ko‘l bo‘yida yo‘qoldi izlar,

Izlarmi yo, adashdik bizlar.

Sen „ha“ deb xitob etding,

Men „yo‘q“ deya eshitdim...

Razudalov xushchaqchaq odam edi. U qo'shiq aytar, raqsga tushar, og'ziga kelgan gapni valaqlayverardi. Buning uchun unga yaxshigina to'lashardi.

Biroq, tez orada Marusya Razudalovning hayotsevarligi juda uzoqlarga borib taqalishini sezib qoladi. U erining xiyonat qilayotganini his etdi. Uning shubhalanganicha bor edi. Zero, erining cho'ntagidan ayollarga tegishli turli-tuman narsalar chiqa boshladi. Nihoyat, bir kuni bittasi bilan qo'lga tushirdi

O'sha kuni Marusya erini boplab kaltakladi. Razudalov sahnaga qora ko'zoynak taqib chiqdi. Chap qo'li shalpayib turardi.

Marusyaning ta'nalariga Razudalov kulgi bilan javob qaytarardi.

– Marusya, – derdi u. – Nega hamma narsaga jig'ibiyron bo'laverasan? Men seni madaniyatli, tushunadigan ayol, deb o'ylardim. Buncha bid'atga berilmasang?..

Razudalov o'zining yengil-yelpi hayot kechirish aqidasiqa sodiq qoldi, lekin aldashga o'rgandi. Hadeb aldayverganidan duduqlanadigan bo'lib qoldi. Faqat sahnadagina duduqlanmasdi.

Marusyani esa rashk azobi qiynardi. Erini kechasi bilan kutib chiqardi. Ajrashaman, deb do'q qilardi. Eri-ning nega xiyonat qilayotganiga sira tushunmasdi. Axir Marusya uni chin dildan sevardi-ku!

Er uyga tong otarda kirib kelardi. Undan sharob va atir-upa hidi anqirdi.

– Gaplashib qolib ketibmiz, bilasanmi, haligi... ichdik, san'at xususida bahslashib...

– Qayerda eding?

– Haligi... Goloshchekin bor-ku, o'shanikida. Senga salom devordi...

Marusya yozuv daftaridan Goloshchekin telefonini qidirib topdi.

– Ilya Zaxarovich kasalxonada – dedi qo‘rslik bilan ayol ovozi.

Marusya gezarib, Razudalovga tashlandi:

– Demak, sen Goloshchekinnikida bo‘ldingmi? Demak, tong otguncha san‘at haqida bahslashdinglarmi?

– Qiziq, – hayratlandi Razudalov. – Shaxsan men o‘shanikida edim... Shunda Marusya ilk bor: buyog‘iga qanday yashash kerak? – deb o‘ylanib qoldi. Har xil o‘ylar unga tinchlik bermasdi...

Bir yildan so‘ng u o‘g‘il tug‘di.

Hamma narsa avvalgiday davom etardi. Razudalov safarlarda bo‘lardi. Qaytib kelgach esa, tezda g‘oyib bo‘lardi. Marusya uni yangi xiyonat paytida qo‘lga tushirgach, u o‘zini oqlay boshladi:

– Tushungsang-chi, men artistman axir. Menga yangi-yangi ilhom kerak...

Marusya yana ota-onasinikiga ko‘chib o‘tdi. Galina Timofeyevna nafaqa olar, Fyodor Makarovich hali ishlardi.

Kutilmaganda Razudalov gul va shampän sharobi ko‘tarib kelib qoldi. O‘zining ijodiy yutuqlari haqida zavqlanib gapirdi. Senzuradan shikoyat qildi. Uning eng yaxshi qo‘shig‘i – „Lablaringdan sharbat ichmoq istayman“ni taqiqlabdi. Galina Timofeyevnani betakalluflik bilan „oyijon“ deb chaqira boshladi. Hazili ham juda g‘alati.

– Fedya amaki – derdi u – Men bilan hazillashmang. Axir, mundoq olib qarasak, siz hech kimsiz. Men bo‘lsam, bilasizmi, Makarovichning kuyoviman!

Razudalov konyakdan ichib, ustiga shampän sharobidan sipqorib, bir dasta ezg‘ilangan pul qoldirardi-da, chi-

qib ketardi. Otalik tashvishini tortmasdan o'g'lining peshonasidan o'parkan:

– Katta qalb egasi bo'lib o'sasan, degan umiddaman, – derdi.

Vahti-vahti bilan Marusya jonidan to'yib ketardi. Razudalovga o'zimni o'ldiraman, deb po'pisa qilardi. Xuddi o'sha damlarda estrada xonandasi ijodida yangi qo'shiq paydo bo'ldi:

*Sen o'zingni cho'ktirish uchun
Daryo tomon olganingda yo'l,
Vidolashib ketgil men bilan,
Xayr, deya siltab qolay qo'l!
Daryogacha kuzatib, ko'zim –
Chuqur joyni ko'rsatay o'zim...*

Shunda ertaklardagidek Sexnovitser paydo bo'ldi. U Marusyaga o'qish uchun „Gulag arxipelagi“ kitobini berdi. Chet elga ketishni maslahat qildi.

– Soxta nikohdan o'tamiz-da, yahudiylar sifatida jo'nab ketamiz.

– Qayoqqa? – so'radi Marusya.

– Men, masalan, Isroilga. Sen – Amerikaga, yoki Fransiya...

Marusya xo'rsindi.

– Fransiyada nima qilaman, axir otam shu yerda-ku?!

Lekin baribir Marusya chet elga ketish haqida o'ylaydigan bo'ldi. Birinchidan, bu juda urf bo'lgandi. Birin-ketin madaniyat xodimlari jo'nay boshlashdi. Haykaltarosh Neizvestniy Amerikaga jo'nadi. U yerda „Hayot daraxti“ loyihasini amalga oshirmoqchi edi. Savka Kramarov to'satdan diniy hissiyotlarga berilib, Vatanni tark etdi. Borya Sichkin yashirin konsertlar uyushtirgani uchun turmaga tushmay,

deb qochib qoldi. Teskarichi shoir Kupershtok ham ketib qoldi. U bir she'rida g'urur bilan shunday yozgandi:

*Menkim – o'g'li yahudiy Kupershtokning,
Vorisiman Pushkin hamda Blokning!*

Yozuvchilar, rassomlar, artistlar, musiqachilar, ular ichida, asosan, yahudiylar – o'zlarida yahudiy qoni borligini isbotlagan ruslar, gurjilar, moldavanlar, latishlar ketishardi. Qisqasi, jo'nab ketuvchilar muammosi ijodiy doiralarda keng muhokama qilinardi. Shu boisdan ham, Marusya bu haqda ko'p o'ylaydigan bo'lib qoldi. Uning ijodiy hayoti o'ngidan kelmadi. Boshqa turmush qurmadi. Ko'plab do'stlari esa uning hasadini keltirardi.

Marusya ota-onasining uyida o'zini qariyalar uyidagidek his qilardi. Hozircha hamma narsa muhayyo ediyu, istiqbolda hech vaqo ko'rinmasdi. Uyqu, televizor, ta'minot bo'limidan keluvchi tayyor mahsulotlar. Kuyovlar ham Fyodor Makarovichning yugurdaklari. Ular, asosan, otasiga yoqishga intiluvchi odamlar edi.

Marusya his qilardi: yana uch yil – keyin hammasi tamom bo'ladi.

Sexnovitser bo'lsa hamon soxta nikoh, aynan soxta nikoh haqida gapirardi.

Bunga javoban Marusya:

– Avval meni ayol sifatida sevarding-ku, – derdi.

– Hozir men senga inson sifatida qarayapman, – deb javob berardi Sexnovitser.

Marusya xafa bo'lishni ham, quvonishni ham bilmasdi. Baribir xafa bo'lardi.

Aftidan, ayollarning fe'li shunaqa – o'z jazmanlaridan ajrab qolishni yoqtirmasdi. Hatto Sexnovitserga o'xshagan bo'lsa ham.

Og'izda emigratsiyadan osoni yo'qqa o'xshaydi. Amalda esa ko'plab muammolarga duch kelarkansan.

Ota-onasi nima bo'ladi? Odamlar nima deydi? Muhimi, u G'arbda nima, qiladi? Sexnovitser bilan nikohdan o'tishning o'zi bir muammo. Kuyovda mundoq tuzukroq kastum ham bo'lmasa kerak. Inspektorga nikoh soxta deb ayta olmaysan-ku, axir...

Keyin sinagog yonida qandaydir uchrashuvlar boshlandi. „Jo'nab ketuvchilar uchun esdalik“ berishdi. Xorijiy jurnalistlar suhbatlar uyushtirishdi.

Marusya qo'l-tasvir ko'rgazmasiga qatnaydigan bo'lib qoldi. O'z „Olimpiya“ mashinkasida Shalamov va Dombrovskiyning taqiqlangan hikoyalarini ko'chirdi. Xemen-gueyni originalda o'qishga urinib ko'rdi.

Ota-onasi nimanidir sezishardi, lekin indashmasdi. Marusya ularga tushuntirishga urinib ko'rdi. Bu qanday bo'lganligini gapirmagan ma'qul. Holbuki, bunday janjallar nomenklaturadagi ko'pchilik oilalarda sodir bo'lardi.

Ota-onalar o'z bolalarini sotqinlikda ayblashardi. Bolalar esa bu qiliqlari uchun ota-onalaridan nafratlanishardi.

O'zaro ta'nalar o'rnini ho'ngrab yig'lashlar egallardi. Haqoratlar o'pishishlar bilan almashardi.

Fyodor Makarovich qizi jo'nab ketsa, nafaqaga chiqib ketishini yaxshi bilardi. Galina Timofeyevna qizini boshqa ko'rolmasligini sezib turardi.

Oktabr oyida Marusya Sexnovitser bilan nikohdan o'tdi. Yangi yilga ularga ketish uchun ruxsat tegdi. To'q-qizinchii yanvarda Avstriyaga yetib olishdi.

G'arbg'a o'tib olgach, Sexnovitser darhol o'zgardi-qoldi. U yahudiy vatanparvariga aylandi. O'zini dono qilib ko'rsatar, olti qirrali yulduz taqib yurar, yahudiy ayolga uylanishni orzu qilardi.

Soxta nikoh shartlarini Sexnovitser halol bajardi. Xotinini G'arbga olib ketdi. Evaziga barcha xarajatlarini Marusya to'ladi. Hatto unga chemodan ham olib berdi.

Ko'p o'tmay ular ajralishdi. Sexnovitser Isroilga uchib ketdi. Marusya Amerika ruxsatini olishni kutardi.

– Isroilda qanday yashaysan? – derdi Marusya. – Axir u yerda faqat yahudiylar yashashadi-ku!

– Hechqisi yo'q, – derdi Sexnovitser, – o'rganaman...

Marusya uchun Sexnovitser bilan ajralish juda og'ir. Nima bo'lganda ham u Marusyaning o'tmish hayotidagi yagona kishisi edi.

Marusya uni kuzatgani aeroportga bormadi. Kichkina Lyovushkaning uch kundan beri tomog'i og'rirdi.

Marusya Sexnovitserning avtobusga o'tirib jo'nab ketishini derazadan kuzatib turdi. Sexnovitser buyuk g'oyalari yuki ostida judayam beso'naqay ko'rinib ketdi.

Bir haftadan keyin Lyovushkaning tomoq bezini olib tashlashdi. Uni shifoxonaga Tolstoy jamg'armasidan kelgan Kuk xonim olib bordi. Bu paytga kelib viza olingan edi. Yana o'n olti kundan so'ng Marusyani olib uchgan samolyot Kennedi aeroportiga qo'ndi. Uning qo'lida makajo'xori qalamchalari solingan xaltacha bor edi. Yonida uyqusirab Lyova zo'rg'a odimlardi. Ikkita zanjini ko'rib, yig'lab yubordi.

– Lyovka, o'chir ovozingni! – baqirib berdi onasi. Keyin qo'shib qo'ydi:

– Ovozi xuddi otasinikiga o'xshaydi-ya...

HALOKATDAN SO'NG

Aeroportda Marusyani xolasining qizi Lora o'z turmush o'rtog'i Fima bilan kutib turardi. Loraning onasi – Nadya xola oddiy musahhih bo'lib ishlardi. Uning eri –

Saveliy amaki esa jismoniy tarbiyadan dars berardi. Lora otasining familiyasi bilan Melinder deb atalardi...

Makarovichlar Melinderlarni uncha yomon ko'rishmasdi. Ular ba'zan Lorani dala hovlilariga olib ketishardi. Har zamonda o'zlari ham Dergachevoga borib turishardi. Bir paytlar Marusya xolasining qiziga ko'ylak va nimchasini hadya qilgandi.

– Ko'k nimchamni olaqolging, yashilini esa o'zim kiyib turaman, – derdi u.

Marusya bu gapimdan Lora xafa bo'ladi, deb xayoliga qam keltirmasdi. Umuman xolavachchalar unchalik inoq emasdilar. Marusya chiroyli va yengiltak, Lora esa o'qimishli va yuvvosh edi.

Marusyaning hayoti jo'shqin va quvnoq o'tdi. Lora bo'lsa g'amgin yashadi.

Marusya ba'zan shikoyat qilib qolardi:

– Erkaklarning hammasi mana shunaqa surbet!

Lora sovuqqonlik bilan qoshini chimirardi:

– Mening tanishlarim, masalan, o'zlarini sipo tutishadi.

– Maqtangan narsangni qara-yu, – derdi unga javoban Marusya.

Makarovichlar Melinderlardan tortinmasdilar. Lekin Melinderlar boshqa ijtimoiy doiradan edilar. Qadimda buni „qashshoq qarindoshlar“ deb atashardi. Shuning uchun xam xolavachchalar kamdan kam ko'rishardilar.

Marusya kimdandir Loraning turmushga chiqqanini eshitgandi. Lekin uning eri – Fima bilan tanishish Marusyaga Amerikadagina nasib etdi...

Emigratsiya Lora bilan Fima uchun to'y sayohati bo'ldi. Ular Nyu-Yorkka joylashishga qaror qilishdi. Bir yildan keyin inglizcha uncha-muncha gaplashadigan

bo'lib qolishdi. Fima hisob-kitob o'qishiga yozildi. Lora manikurchi ayolga shogird tushdi.

Ularning ishi yurishib ketdi. Bir necha oydan so'ng ikkalasi ham ishga joylashdi. Fima boy to'qimachilik korporatsiyasida ishlay boshladi. Lora amerikalik mijozlarga xizmat qiladigan sartaroshxonaga o'rnamshdi.

– Bizda ruslarga umuman xizmat ko'rsatilmaydi, – derdi u. – Chunki bizda narx-navo ancha baland.

Lora yiliga o'n besh ming dollar olardi. Fimaning oyligi ikki barobar ziyod edi.

Tez orada ular xususiy uy sotib olishdi. Bu g'ishtin uy Forest Xillsda joylashgandi. O'sha payt bu tevarakdagi uylar juda qimmat turardi. Bu yerda, asosan, kores, hind va arablar yashardi.

– Ruslar bilan biz umuman bordi-keldi qilmaymiz, – derdi Fima.

Fima bilan Lora o'z uylarini juda yoqtirib qolishdi. Uyning suv quvurini va tomini Fimaning o'zi sozlab chiqdi. Garajga elektr o'tkazdi. Lora pardalar tikdi va sopol jihozlar sotib oldi.

Uy juda shinam va chiroyli edi. Jurnalist Zaretskiy bu uyni „mavzoley“ deb atadi. Qariyaning boshqalar yutug'iga hasad qilayotgani ko'rinib turardi.

Lora bilan Fima yosh baxtiyor juftlik edilar. Baxt ular uchun tabiiy va sog'liq singari uyg'un edi. Har qanday ko'ngilsizlik kasal kishilar qismati deb o'ylashardi ular.

Lora bilan Fima ayrim muhojirlar yomon yashashyapti, deb eshitishardi. Jurnalist Zaretskiyga o'xshash sog'lig'i yomon, fe'li rasvo kishilar shunday yashashsa kerak.

Lora bilan Fima juda inoq yashashardi. Ular shunday yaxshi yashashardiki, ba'zan Lora:

– Fimka, men biram baxtlimanki! – deb xitob qilardi.

Ular shunday yaxshi yashashardiki, hatto o'zlariga uncha-muncha ko'ngilsizliklar o'ylab topishardi. Kech-qurun Fima qovog'ini uyib:

– Bilasanmi, – derdi, – ertalab velosipedchini urib yuborishimga sal qoldi.

– Ehtiyot bo'l, – derdi Lora ko'zlarini pirpiratib. – Iltimos qilaman, ehtiyot bo'l!

– Tashvishlanma, Lorik, – derdi Fima, – men o'ta hushyorman.

– Velosipedchi-chi? – so'rardi Lora...

Shunday vaqtlar bo'lardiki, Fima uyga aftini bujmaytirib kirib kelardi.

– Kayfiyating yo'qmi? – deb so'rardi Lora.

– Nima bo'ldi?

– Jahling chiqmaydimi?

– Gapirsang-chi? Hozir dod devoraman...

– Xafa bo'lmayman, deb qasam ich?

– Gapir?

– Faqat jahling chiqmasin. Men senga italiya etigini sotib oldim.

– Voy tentagey! Tejaymiz deb kelishgan edik-ku! Qani, ko'rsat-chi...

– Menga judayam yoqib qoldi. Biram sotib olgim keldiki... Rangini aytmaysanmi? Jigarrang...

Shanba kuni ertalab Fima bilan Lora uzoq ovqatlanishdi. Keyin do'konga borishdi. So'ng televizor ko'rishdi. Keyin ayvonda uxlab qolishdi. Bir vaqt qo'ng'iroq jiringladi. Venadan telegramma kelgan ekan. Marusya 264-reys bilan ertalab uchib keldi. Soat yetti yarimga aeroportga yetib borishdi.

Marusyani quvonch bilan qarshilashdi. Birinchi kecha soat uchgacha o'tirishdi. Bolakay uxlab qoldi. Tele-

vizor qo'yilgandi. Fima kokteyl tayyorladi. Marusya va Lora avvaliga gilamda o'tarishdi. „Bu yerda odat shunaqa“, dedi Lora. Keyin divanga o'tishdi.

Lora o'ninchi bor so'radi:

– Nega ketib qolding, yana yosh bola bilan?

– O'zim ham bilmayman... Shunday bo'lib qoldi.

– Teskarichilar, yahudiylar yoki jinoyatchilar yurtini tark etishi tushunarli, seni nima jin urdi?

– Mening kayfiyatim yomon edi.

– Ya'ni?

– Menga hamma narsa bo'lib o'tganday ko'rindi.

Marusya uni tushunishlarini istardi. Holbuki, o'zi ko'p narsani tushunmasdi.

– Senda chindan ham hamma narsa bor edi. O'yinkulgi deysanmi, jazmanlar, kiyim-kechak... Yana nima yetishmasdi? Hayyo-huyt deb junayveradimi odam...

– Men tush ko'rdim.

– Qanday?

– Go'yo menda qanot paydo bo'lgan emish. Shaharlar ustida uchib yurib, chiroqlarni o'chirar emishman.

– Chiroqlarni? – qiziqib qoldi Fima. – Tushunarli. Freydga ko'ra, bu hirsiiy qoniqmaslik. Chiroqlar – erkak ramzidir.

– Qanotlar-chi?

– Qanotlar ham, – javob berdi Fima, – erkak ramzi hisoblanadi.

– Aftidan, sizning Freydingiz ham Razudalovdan qolishmaydi, – dedi Marusya. – Fikri-xayoli sayr-u sayohatda, aysh-u ishratda.

– Lekin, baribir, – so'rardi Lora, – nega ketib qolding?

– Axir, siyosat seni qiziqtirmasdi. Moddiy jihatdan hamma narsang to‘la-to‘kis edi. Antisemitizm¹dan ozor ko‘rmagan bo‘lsang...

– Shunisi yetmay turuvdi!

– Unda gap nimada?

– Hech narsada. Jo‘nab ketdim – tamom-vassalom. Seni ko‘rgim keldi. Fimani ko‘rgim keldi...

Radiodan kuy taralardi. Stakanlarda muz shiqirladi. Uyda yangi yopilgan non hidi anqirdi. Tashqari deraza ortida zimiston.

– Fimajon, muzlatgichdan keyn²ni olib kelib bersang-chi?

Lora uyining yaxshiligidan, devorda Shemyakin litografiyasi osig‘ligidan, muzlatgichda tort borligidan juda xursand edi. Garajda yapon mashinasi turgani, javonlar yaxshi kiyim-kechak bilan to‘laligi uning joniga oro ki-rardi.

U ertalabdanoq eriga tayinlagandi:

– Mayli, yashasin. Mayli, qancha kerak bo‘lsa, bizni-kida shuncha qolsin... Yoshlikdagi dilsiyohliklari uchun undan o‘ch olib o‘tirmayman... Biz bundan ustun turi-shimiz kerak... Yomonligiga yaxshilik bilan javob qayta-raylik... Sen nima deysan?

– Sening borligingga shukrlar bo‘lsin, deyman!

– Men ham sening borligingga shukrlar aytaman!

Lora Marusyaga sviter bilan uy shippagi hadya qildi. Marusya ularni kiyib ko‘rmadi ham...

Lora Marusya bilan o‘g‘liga alohida xona ajratib ber-di. Marusya Loraga hatto minnatdorlik ham bildirmadi.

¹Antisemitizm – yahudiylarga nisbatan dushmanlik siyosati.

²Keyn – tortning bir turi.

– Muzlatgichdan ko‘ngling tusagan narsani olib yeyaver, – dedi Lora.

Marusya kartoshka chipsi bilan kifoyalandi, xolos.

Teatrlar Marusyani qiziqtirmasdi.

Do‘konlarda faqat bolalar o‘yinchog‘ini ko‘zdan kechirardi. Tungi Brodvey unga sershovqin va iflos bo‘lib ko‘rindi.

Shu tariqa bir hafta o‘tdi.

Shanba kuni mehmon keldi. Ji Key Eplbaum – sergap, baqaloq kishi. U Fima ishlaydigan korporatsiyada menejer edi. To‘rtovlashib sosiska qovurishdi. Badvayzer ichishdi.

Bu safar Ji Key bir o‘zi kelgandi. Oldin, deb aytdi Lora, u qaylig‘i Karen Rouchni ham olib kelgandi.

– Karen qani? – deb so‘rashdi.

– U meni tashlab ketdi, – dedi baqaloq. – Rosa alam qildi-da. Keyin o‘zimga yaxshi mashina sotib oldim, uyimni almashtirdim. Endi baxtliman...

Eplbaumga Marusya yoqib qoldi. U rus tilini o‘rganishni xohladi. Marusya unga bir necha rus laparlaridan aytib berdi. Fima tarjima qilib turdi.

Eplbaum xayrlashib, jo‘nab ketgach:

– Menimcha, u ahmoq! – dedi Marusya.

Loraning jahli chiqdi:

– Ji Key – asablari mustahkam amerikalik, xolos. Ruslar doim shikoyat qilgani-qilgan. Amerikaliklar butunlay boshqacha. Ularning ko‘pchiligi – nekbini kayfiyatda bo‘ladilar.

– Amerika kuchli, xushqomat va surbet kishilarni yoqtiradi, – deb tushuntirdi Lora. – Bu yerda omadsizlarni yoqtirishmaydi... Faqat o‘zinggagina ishonishing mumkin.

– Amerikada, – so‘z qotdi Fima, – har kun kiyimingni yangilab turishing kerak. Bir kuni kiyimimni almashtirish esimdan chiqib qolgan ekan, Eplbaum: – Qayerda yotib qolding, oshna! – deb so‘radi.

Kunduz kunlari Marusya Lyovushka bilan ovora bo‘lardi. Unchalik tashvishli narsaning o‘zi yo‘q edi. Buning ustiga Marusya yo‘rgakning o‘rniga qulay va arzon daypersdan foydalanardi.

G‘arbda Marusyaga ma‘qul kelgan narsa ana shu daypers edi. Bundan tashqari chipsi, pista va rang-barang qog‘oz idishlar unga juda ma‘qul bo‘ldi. Ovqatini yeb bo‘lib, o‘zini tashlab yuboraverasan.

Marusya ish topishi kerak edi. Chunki Lyovushkani bog‘chaga joylashtirishdi. Avvaliga u yig‘ladi. Bir haftadan keyin inglizcha gapirib qoldi.

Marusya esa hamon nima bilan mashg‘ul bo‘lishni o‘ylardi. Ittifoqda u keng ixtisosli ziyoli edi. Istagan joyida ishlay olardi. Madaniyat vazirligidan tortib rayon gazetasidagi ishlarni ham eplay olardi.

Bu yerda-chi? Kino, televideniya, radio, matbuot? Qayerga bormasin kamida ingliz tilini bilishi kerak.

Hisob-kitob ishi bilan shug‘ullanish, tibbiy hamshira yonida enaga bo‘lib ishlashni jinidan ortiq yomon ko‘rardi.

Uning e‘tiborini zargarlik buyumlari reklamasi tortardi. Bu narsa qimmatbaho buyumlarga aloqador edi. Marusya esa qimmatbaho buyumlarning farqiga borardi.

Zargarlik kurslari 14-ko‘chadagi oddiy bloklardan qurilgan uyning butun uchinchi qavatini egallagandi. Kurslarga janob Xichbi rahbarlik qilardi. U mo‘tadil ichib yuradigan harbiyni eslatuvchi bir kishi edi. Xichbi tarjimon orqali Marusyaga shunday dedi:

– Men o‘n yil rassomlikka o‘qidim. Lekin baxtsiz zargar bo‘lib qoldim. Shu ham hayot bo‘ldi-yu!

Borispoldan muhojir bo‘lib kelgan Lyonya unga tarjimonlik qilardi. Lyonya kelgusida zargarlik buyumlari do‘koni ochish niyatida edi.

Barcha talabalarni guruhlariga bo‘lishgandi. Hammalariga o‘quv-ish qurollari berilgan. Har bir guruhda o‘qituvchi bor edi. Marusyaga Krakovdan qochib kelgan pan Venchislav Glinskiy o‘qituvchilik qilardi. U kun bo‘yi chekar, sigaret kulining o‘z ustiga to‘kilganiga ham parvo qilmasdi.

Mashg‘ulotlar umuman bo‘lmasdi. Kim nimani xohlasa shuni qilardi. Biri kavsharlasa, boshqasi burg‘ular, yana birovi tunukadan turli shakllar yasardi.

Talabalar orasida bir necha qora tanli bor edi. Ular soatlab musiqa tinglashar, kursilarda tebranib o‘tirishardi. Har birining yonida, yerga tranzistor qo‘yilgan bo‘lardi. Ba‘zan Marusya g‘alati hidni his qilardi. Tarjimon Lyonya bu marixuana deb tushuntirdi. Marusyaning qo‘shnisi yuvvosh va xushmuomala xitoy edi. U mis simdan ingichka o‘rim yasardi. Marusya ham shu ishni qilardi. Keyin Marusya tunukadan „M“ harfini kesib oldi. Chetlarini egov bilan tekisladi. Zanjirga taqish uchun maxsus teshik yasadi. Kulonga o‘xshash taqinchoq bo‘ldi-qoldi. Xitoy uni ma‘qullab bosh irg‘adi.

Payshanba kuni Marusya 73 dollar oldi. Bu stipendiya deganday gap. Marusya bu pulga Lyovushkaga kalit bilan burasa yuradigan o‘yinchoq mototsikl, xolavachchasiga gul, Fimaga esa yarimta viski oldi. Qolgan qirq dollarni ro‘zg‘or uchun asrab qo‘ydi.

Lora pulni olgisi kelmadi. Marusya turib oldi:

– Axir, men sizlarga ancha-muncha qarzdorman.

– Ishlab topasan, – dedi Fima.

– Keyin ustamasi bilan qaytarasan...

Lekin zargarlik mashg'ulotlari chorshanbada to'xtab qoldi.

Avvaliga hammasi yaxshi ketayotgandi. Marusya olovda latun toboqni eritayotgandi. Uni qisqich bilan ushlagancha kanifolga cho'zilgan edi, toboqcha sirg'alib tushib ketdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Tez orada Marusyaning laklangan etigi qo'njidan tutun chiqqan boshladi. Yana bir soniyadan so'ng chinqirig'i tranzistorlar ovozi bosib ketdi. Aksiga olib etigining zanjirsimon tishli tasmasi sira ochilmasdi, Atrofni o'rab olganlar nima bo'lganini bilolmay hayron edilar.

Agar Shuster bo'lmaganida, ish chatoq edi. Shuster bu yerda farrosh bo'lib ishlardi. Emigratsiyaga qadar Riganing boks bo'yicha yoshlar komandasini mashq qildirgandi. Ellik yoshida ham jo'shqinligini saqlab qolgan, mushaklari bo'rtib turar, serjahlroq edi. Qora tanlilarni jini suymasdi.

Qora tanli yigitlar hamon chekishib, kursilarda tebranib o'tirishardi. Marusyaning chinqirig'iga parvo qilishmasdi.

Shuster biroz kutdi. Keyin jahl bilan qichqirdi:

– Qani yo'qollaring!

Yigitlar miq etishmasdi.

– Kimga aytyapman!

Qora tanli yigitlar ming'irlashganicha o'rinlaridan turishdi:

– Okey! Okey...

Shuster orqa cho'ntagidan brendi idishini oldi. Uni Marusyaning lakli etigi qo'njidan quydi. Nimaningdir pishillab, keyin toshgani eshitildi.

Shuster Marusya etigining zanjirini uzdi. Marusya yig'lardi.

– Oyog'ingizni do'xtirga ko'rsating, – dedi Shuster. – Shundoqqina burchakda shahar shifoxonasi bor.

– Qani menga ko'rsating-chi – dedi qayerdandir paydo bo'lgan Glinskiy.

Lekin Shuster yelkasi bilan uning yo'lini to'sdi.

Shifokor Marusyaning oyog'ini ko'zdan kechirgach, mashg'ulotlardan ketishga ruxsat berdi. Marusya cho'loqlanib uyiga qaytdi-yu, shu bo'yi mashg'ulotlarga qaytmaslikka qaror qildi.

Fima bilan Lora uning qaroridan ranjishmadi.

– Boshpanang bo'lsa bor, – dedi Lora. – Och qolmay-san. Tashvish qilmasdan ingliz tilini o'rganaver. Biror ish chiqib qolar.

– Sendan qanday zargar chiqardi, – qo'shib qo'ydi Fima. – O'zing oltinsan-ku!

– Lekin oltinligimni kim ham bilardi, – dedi Marusya kulib.

Marusya shu tariqa uy bekasi bo'lib qoldi.

Ertalab Fima bilan Lora ishga shoshishardi. Fima o'z mashinasida jo'nar, Lora avtobus bekatiga yugurardi.

Avvaliga Marusya ularga ertalabki nonushta tayyorlamoqchi bo'ldi. Keyin qarasa, bunga aslo hojat yo'q ekan. Fima bir finjon qahva ichar, Lora yo'l-yo'lakay olma yerd.

Marusya soat o'nda uyg'onardi. Lyovushka bu paytda televizor ko'rib o'tirgan bo'lardi. Naridan beri nonushta qilishgach, bog'chaga yo'l olishardi. Qaytib kelgach, Marusya ruscha gazetani varaqlar, e'lonlarni diqqat bilan o'qirdi.

Manxettenda ayol sartaroshlar kursi ochilibdi. Sug'urta kompaniyasi yosh nomusli agentlar yollaydi. Tungi rus klubiga ofitsiantlar kerak, erkaklar bo'lgani ma'qul. Qiziq, shunday yozishibdi: „ofitsiantlar erkaklar bo'lgani ma'qul...“

Bular hammasi bor, lekin unchalik jalb etmasdi. Kimningdir sochini olish kerakmi? Kimnidir sug'urta qilish?..

Ba'zan shunday e'lonlar ham uchrab qolardi:

„O'ziga to'q erkak har qanday yoshdagi, ziyoli ayol bilan tanishishni orzu qiladi. Suvrati bo'lsa yana ham yaxshi“. Pastiga mayda harflar bilan: „Faqat Xarbindan bo'lmasin“ deb yozilibdi.

Faqat Xarbindan bo'lmasin, degani nimasi? – hayron bo'lardi Marusya. Buni qanday tushunmoq kerak? Sho'rlik Xarbin unga nima yomonlik qilgan ekan? Balki, uning o'zi Xarbin shahridandir. Ehtimol, butun Xarbinliklar uni o'ta bezori va qallob sifatida yaxshi bilishar? Yana suvrat so'raganiga balo bormi?

Kunduzi u do'konga borar, kir yuvar, inglizcha o'rganishga tirishardi. Soat uchda Lyovushkani bog'chadan olardi. Soat oltiga Fima bilan Lora qaytib kelardi. Kech-qurunlari televizor ko'rib, kokteyl ichib o'tirishardi.

Shanba kunlari shahar aylanishardi. Muzeylarga borishardi, yapon restoranlariga kirishardi. Yul Brinner ish-tirok etgan musiqali komediyani tomosha qilishardi.

Shu tariqa sentabr ham o'tdi. Kuz kirdi. Holbuki, maysalar hali yam-yashil, kun may oyidagidek issiq edi...

Marusya borgan sari kelajak to'g'risida ko'proq o'y-lardi.

Qachongacha Loraga qaram bo'lib yuradi? Qachongacha birovlar nonini yeydi? Birovlar uyida qachongacha yashaydi? Qisqasi, bu qachongacha davom etadi?

Marusya o'zini xuddi qarindosharining dala hovlisida yashayotgandek his qilardi. Ertami, kechmi uyiga qaytishi lozim.

Lekin qayerga?

Hozircha esa Marusyaning qorni to'q, sog'lig'i yaxshi edi. Kiyim-kechagi yetarli. Ro'zg'or uchun ishlatiladigan pul qutichada. Hayot emas, partiya xodimlari uchun sanatoriy deysiz. Mana shularni deb, shuncha yo'l bosib keldimi?

Umuman, tashvish hissi kundan kun ortardi...

Bir kuni Marusya ota-onasiga xat yozdi:

„Qadrli oyi, dadajon!

Meni qarg'ayotganingizni bilib turibman, lekin bekorga xafa bo'lyapsizlar. Gap shundaki, yozadigan tayinli gapning o'zi yo'q. Nimani ham yozardim.

Lazka tarixiy yurtiga ketdi. U yerda faqat yahudiylar yashasa ham, bir amallab kun ko'ramiz, deydi.

Yana nima desam ekan?

Vena – daryo bo'yidagi tinchgina shahar ekan. Hamma Dony, Donay, deb og'iz ko'pirtiradi. Dunay bor-yo'g'i daryo ekan-ku.

Opera teatri ham bor, shekilli. Lekin, negadir men uni payqamadim.

U yerda kishilar kino uyidagidan yomonroq, biroq, fan va texnika uyidagidan yaxshiroq kiyinishgan...

Avstriyada biz uch hafta yashadik. Mehmonxonadan tashqariga qariyb chiqqanimiz yo'q. Darbonlar juda qat-tiqqo'l. Pulsiz bir qadam siljishga qo'yishmaydi. Umuman, tushunarli. Bir ayol butunlay qip-yalang'och yuribdi deng. Adam ko'rsa, hay-haylab qolardi. Bu borada erkinlik keragidan ortiqcha ekan.

Lyovaga paypoq va jemper sotib oldim. O'zinga hech narsa olganim yo'q. Amerikaga salkam yetti soat uchdik. Samolyotda bizga kino ko'rsatishdi. Bilasizmi nima? Yetti uxlab tushingizga ham kirmaydi. „Yetti azamat“. Shuncha yo'l yurib kelish shartmidi, deysiz.

Lora bilan Fimanikiga joylashdik. Lyovka bog'chaga boryapti. Men hali ham nima bilan mashg'ul bo'lsam ekan, degan o'ydaman.

Bu yerda erkinlik Avstriyadagidan ham ko'proq ekan. Maxsus do'konlarda kauchukdan yasalgan turli narsalar sotilar ekan. Tushunyapsizlarmi? O'yijonim hozir o'zlarini tashlab yuborsalar kerak?

Hozir Amerikada qora tanlilarni xalq ajratmay qo'yishgan. Endi bu yerda hammasi aksincha. Qisqasi, hali ko'nikkanimcha yo'q. Tez orada yana yozaman. Xat yozinglar. Sizlarni quchib qoluvchi ongsiz qizingiz Marusya“.

ISTE'DODLAR VA MUXLISLAR

Bir kuni Zaretskiy kirib keldi. Uy sohiblarining yo'qligini bilib, andisha bilan:

– Kechirasiz, qo'ng'iroq ham qilmasdan kirib kela-veribman...

– Hechqisi yo'q – dedi Marusya – faqat men uy kiyimidaman...

Zaretskiy madaniyatni va ayollarni sevardi. Madaniyat uning uchun maosh manbayi, ayollar bo'lsa ilhom buyumi. Ya'ni, u madaniyat bilan pragmatik nuqtayi nazardan, ayollar bilan esa beg'arazlik tufayli shug'ullanardi. Beg'arazlik g'oyasi esa nochorlik ifodasi edi. Gap shundaki, Zaretskiyni ehtiroslar ziddiyati qiynardi. U ayollarni tezda ko'ndirardi, lekin ularni tahqirlardi.

Uning erkalashlari haqoratlar bilan aralashib ketardi. Zaretskiy axloqli bo'lishga qizg'in da'vat qilar, lekin o'sha zahoti uni buzishga moyillik tug'dirardi. Buning ustiga u yosh emasdi. Samolyotlarni urushgacha bo'lgandek, aeroplan deb atardi. U zefir yer, qahva ichar va Marusyaning oyoqlaridan zavqlanardi. Marusya xalatining etaklari qayrilgan, ichki ko'ylagining tepasidagi tugmalari yechib qo'yilgandi. Zaretskiy qiziqib qoldi:

– Tirikchilik uchun pulni qayerdan olyapsiz?

– Hali ishlayotganim yo'q, – dedi Marusya.

– Agar sir bo'lmasa, ayting-chi, kelgusida nima qilmoqchisiz?

– Bilmadim. Umuman, men musiqa mutaxassisiman.

– Agar sizning imkoniyatlaringiz menda bo'lganda edi, Xollivudni ko'zlar edim.

– U yerda o'zlariniki ham yetarli. Muhimi, ularga o'ta ozg'inlar kerak.

– Men do'stlarim bilan gaplashishim mumkin, – va' – da qildi Zaretskiy.

Keyin qo'shib qo'ydi:

– Sizda ishim bor edi. Men hozir bir kitob ustida ishlayapman. Shu munosabat bilan to'rt yuzdan ziyod ayol bilan gaplashdim. Ularning yoshlari o'n oltidan ellik yettigacha. Savol-javoblar ishlanib, tartibga solindi. Qisqasi, men sizga savol beraman. Qisqa, lo'nda va uyalmasdan javob bering. Bu sof ilmiy tadqiqot, bildingizmi! Uyat-puyat degan narsani yig'ishtirasiz. Qani, o'tiring-chi...

Zaretskiy portfelini oldi. Uning ichidan magnitofonni chiqardi. Keyin yon daftari hamda avtoruchkasini oldi. Magnitofon himoya tasmasi bilan bog'lab tashlangan edi.

– Diqqat, – dedi Zaretskiy, – boshladik.

So'ng mikrofonni og'ziga tutib bidirlay ketdi.

– To'rt yuz o'ttiz to'qqizinchi mavzu. Sakson beshinchi yilning o'n oltinchi apreli. Amerika Qo'shma Shtatlari, Nyu-York. Forest Xills. Suhbatni Natan Zaretskiy olib boryapti.

Keyin Marusyaga o'girildi:

– Yoshingiz nechada?

– O'ttiz to'rt da.

– Erga tekkanmisiz?

– Ajrashganman.

– Sevib turmush qurganmisiz?

– Ha.

– Unda nega ajrashgansiz?

– Bilmayman.

– Hozir ham gaplashib turasizmi?

– Yo'q.

Marusya negadir qizarib ketdi.

– Esimda yo'q, – dedi Marusya.

– Nima esingizda yo'q?

– Oldinmi yoki keyinmi?

– Nimadan oldinmi yoki keyinmi?

– Siz erga tegishdan oldinmi yoki keyinmi, deb so'radingiz.

– Xo'sh, oldinmi yoki keyinmi?

– Menimcha, oldin.

– Vengriya voqealari nima deganingiz?

– Shaxsga sig'inish qoralanganidan oldinmi yoki keyin?

– Keyinroq bo'lsa kerak.

– Aniqroq-chi?

– Keyin.

– Yaxshi. Bu yerda qiynalmayapsizmi?

– Qiynalyapman.

– Yordam beradigan odamingiz yo‘qmi?

– Ha.

– Bu yoqqa kelganingizdan afsusudamisiz?

– Judayam! – dedi Marusya.

Zaretskiyni to‘xtatish uchun nimadir xalaqit berardi. Nimadir Marusyani uyalganicha valdirashga majbur qilardi...

– Bilmayman... Ehtimol... Balki...

Zaretskiy bo‘lsa battar ruhlanib tinimsiz bidirlardi:

– Soxta andishani qo‘ysangiz-chi! Riyokorlik axloqini esdan chiqaring endi!.. Sovet hokimiyati insonni tabiiy quvonchdan mahrum etadi! Sening bu yerdaliging qanday yaxshi. Sen endi o‘z yurtिंगni umuman esdan chiqarishing kerak. To‘g‘ri biz ham bu yerda musofirmiz. Lekin erkinmiz.

Marusya boshini liqillatadi:

– Bo‘lmasam-chi...

Zaretskiy birdan butunlay o‘zgarib qoldi. Yelkalarini g‘alati qimirlata boshladi. Bo‘g‘ilganicha pichirlashga o‘tdi:

– O, Masha! Sen Rossiyaning timsolisan! Garchi hozir yurtिंगni sog‘inib qiynalayotgan bo‘lsang ham o‘zligingni yo‘qotganing yo‘q. Shuning uchun men seni hurmat qilaman.

Zaretskiy bostirib kela boshladi. Ko‘zlaridan o‘t chaqnardi. Magnitofonning ovozi tindi.

– Qaniydi menga ishonsayding, – shivirladi Zaretskiy. – Seni shon-shuhratga ko‘mib tashlardim!

Marusya bir soniya o‘ylanib qoldi. Bu mahmadana choldan foyda yo‘q hisobi. Undan qanday qutulsam bo‘lar ekan? Buning ustiga bolani olib kelishga borish kerak.

Zaretskiy uning belidan oldi. Bu raqsga tushamiz degani edi.

Marusyaning boshi qotdi. Olim odam-u, qilig'ini qarang. Muhimi, bolani bog'chadan oladigan vaqt bo'ldi...

Zaretskiy tajribali xotinboz. Bu borada o'z usuli ham bor edi. Avvalo u mehmon bo'lib borgan ayolnikida yarim kechagacha o'tirib qolardi. Qarabsizki, avtobuslar yurmay qo'ygan, ketishning iloji yo'q. Taksida ketay desa – qimmat... Keyin „mana shu kresloda o'tirib chiqishimga ruxsat etasizmi?“ deydi. Yoki „yoningizga do'stlarcha cho'zilsam maylimi?“ So'ngra qaltirab, jazavaga tushardi. Bunday hollarda uni ko'chaga haydashga hech qaysi ayolning ko'ngli bo'lmasdi. Yuragi bardosh bermasa-chi?... O'zi kekxa bir kishi bo'lsa.

Zaretskiy yig'lashga tushar va janjal boshlardi. Do'qurar va nimalarnidir talab qilardi. U sevaman, deb qasam ichardi. Buning ustiga birgalikda ilmiy ish qilishga taklif etardi. Shunda eng qo'rs ayollar ham unga yon bosishga majbur bo'lishardi.

Ha, kechalari shunday bo'lardi. Lekin kunduzlari bu usuli qo'l kelmasdi.

– Men hozir kelaman, – dedi Marusya.

Oradan bir daqiqa o'tmay Marusya kiyinib chiqdi.

Zaretskiy qovog'ini uyib, magnitofonni portfeliga joyladi. Keyin esa g'amgin bir holatda:

– Sen – Sfinkssan, Mariya, – deb qo'ydi.

– Bu nima ahmoqlik?! – jerkidi Marusya. – Shunaqayam bema'nilik bo'ladimi! Men boshqani sevsam-chi?

Zaretskiy istehzoli bir ohangda qah-qah otib kuldi. Metroga jeton oldi-da, jo'nab qoldi.

Shu kundan boshlab Marusyaning tinchi buzildi. Ku-

yovlar va jazmanlarning keti uzilmasdi u yashaydigan uydan. Aftidan boshi ochiq ayollarning qandaydir ohan-rabosi bo'lsa kerak. Ayniqsa go'zal ayollarning.

Erkaklar unga hamma joyda gap otishardi. Do'konlarda, avtobus bekatlarida, uyi oldida, gazeta sotish maskanlarida, hamma joyda uni gapga tutishardi. Ba'zan amerikaliklar, qo'pincha vatandoshlar so'z qotishardi.

Ular Marusyaga telefon qilishar, qandaydir bo'lmag'ur takliflar bilan uyiga kelishardi. Hatto she'r bitilgan mak-tublar yuborishardi. Masalan, Karavayev Dyogan teskarichi unga „Marus! Azizmidir senga Rus?!“ degan she'r yubordi.

Karavayev bilan Marusya dorixonada tanishgan edi. U ayolni Saxarovni himoya qilish uchun o'tkaziladigan namoyishga taklif qildi. .

– Bolamni kimga qoldiraman? – dedi Marusya.

Karavayevning jahli chiqdi:

– Agar har kim faqat o'z bolasi haqida qayg'uradigan bo'lsa, Rossiya halok bo'ladi.

Marusya e'tiroz bildirdi:

– Aksincha. Agar har kim o'z bolasiga g'amxo'rlik qilsa, hammasi yaxshi bo'ladi. Siz G'arbning ig'vosiga uchgan ko'chmanchi ekansiz, – dedi Karavayev. – Faqat o'zingizni o'ylaysiz.

Marusya o'ylanib qoldi. Bittasi yurtini tashlab kelgan o'zingsan, deydi. Boshqasi G'arbning ig'vosiga uchgan, deb ataydi. Kimman men o'zi?

Karavayev uni yangi Rossiya uchun birgalikda kurash olib borishga chaqirdi. Marusya rad etdi.

Noshir Druker Marusyani kurashga dav'at etdi. Lekin ko'chmanchilar birligi uchun kurashga!

– Biz kamchilikmiz, – dedi u. – Biz rus madaniyati negizida birlashishimiz kerak.

Druker Marusyani o'zining omborxonaga aylantirilgan uyiga taklif etdi. Georgiy Ivanov, Nabokov, Xodasevich dastxat yozib bergan o'nlab noyob kitoblarni ko'rsatdi. Unga „Feyxtvagner“ni taqdim etdi. Yana birlik haqida gapirdi. Bizlarni ko'p narsa birlashtiradi. Til, madaniyat, fikrlash tarzi, tarixiy o'tmish... Lekin Marusyaning dardi boshqa edi. Druker bilan birlashish uning muammolarini hal qilolmasdi. Marusyani o'tmish emas, kelajak qiziqtirardi.

Shuning uchun ham:

– Do'st bo'lamiz, – deb qo'yaqoldi.

Druker tirjayib, rozi bo'ldi.

Taksichilar bo'lsa, dadil harakat qilishdi.

– Floridaga uchamiz, okey? – dedi Persovich. – Yo'l, mehmonxona, sayr-u sayohat xarajatlarini o'z bo'yninga olaman, okey? Quling o'rgilsin tufli olib beraman, okey?..

– Lekin mening bolam bor...

– Bu meni qiziqtirmaydi, okey.

– Mayli, o'ylab ko'raman...

Yeselevskiy o'zini ancha kamtar tutdi. Unga Long-Ailenddagi arzon mehmonxonani, tufli o'rniga shokoladni taklif qildi.

Marusya rad etgach, sirayam xafa bo'lmadi. Qaytaga yengil tin oldi.

Baranov o'zini hammadan ko'ra yaxshiroq tutdi. Zo'r oliyjanoblik ko'rsatdi.

– Men haftasiga yetti yuz dollar ishlayman – dedi u. – Shundan ikki yuzini muttasil ichaman. Agar istasangiz, shuning yuzini sizga beraman. O'zim, shunday. Bu menga hatto foydali. Kamroq ichaman.

– Juda noqulay, – dedi Marusya.

– Nimasi noqulay? – hayron bo'ldi Baranov. – Pul

bo'lsa bor... Ko'nglingizga yomon gap kelmasin tag'in. Ayollar meni qiziqtirmay qo'rganiga ancha bo'ldi. Bundan yigirma besh yil oldin men ayol bilan alkogol o'rtasida ikkilanardim. Endi bu tamom bo'ldi. Keskin kurashda alkogol g'olib chiqdi.

– Men o'ylab ko'raman, – dedi Marusya.

Yevsey Rubinchik ham yordam qo'lini cho'zishga tayyorligini bildirdi. Tag'in beg'araz deng. Marusyaga vaqtinchalik ish va'da qildi.

– Chizasizmi? – deb so'radi.

– Nima bo'lishiga qarab, – javob berdi Marusya.

Rubinchik tushuntirdi:

– Rangli suratlarni tush bilan bezash kerak.

– Qanaqasiga?

– Labini, yanoqlarini bo'yash kerak... mijozlarga ma'qul kelishi uchun...

Marusya o'ylab ko'rdi – tanish yumush.

– Menga qancha to'lashadi?

– Soatiga uch dollardan.

Rubinchik „Sim“ qoqaman, deb va'da berdi.

Din arbobi Lemkus ham Marusyaga qiziqib qoldi. Avvalo u Marusyaga ingliz tilida bosilgan „Injil“ni hadya qildi. Keyin Xudo ham ishi yurishmagan yolg'izlarni yaxshi ko'rishini aytdi. Nihoyat, u dunyoda yaxshi sharoitlar va'da qildi.

– Qachon shunaqa bo'ladi? – uh tortdi Marusya.

– Bu Tangrining irodasiga bog'liq, – dedi Lemkus.

U pul – yovuzlik, deya takrorlashni yaxshi ko'rardi.

– Ayniqsa, yo'q pullar, – tasdiqladi Marusya.

„Dnepr“ do'konining sohibi Zyama Pivovarov uning qulog'iga pichirlab qo'yardi: – Yangi kulchalar olindi. O'zingizga o'xshagan bo'rsildoqqina...

Mol-mulk bilan savdo qiluvchi Lerner:

– Atlantik-Siti tomonlarga bir borib kelmaymizmi? Yigirma ming yutuqqa ega bo‘lishing mumkin.

Lerner bu g‘oyasini amalga oshirishga ham muvaffaq bo‘lganicha yo‘q. U hatto Marusyaning telefonini yozishga ham erindi.

To‘rt oy shu tariqa o‘tdi-ketdi. Kunlar o‘ta boshladi.

O‘SHALAR VA GONZALES

Bu paytga kelib men bir yarim yil mobaynida ancha-muncha amerikalik bo‘lib qoldim. Asosan, adabiyot sohasida qalam tebratib kun ko‘rardim. Kitoblarim yaxshi tarjima qilinib chiqarilardi. Hamkasblarimdan biri:

– Dovlatov tarjimada qaytaga yaxshi bo‘lib chiqyapti, – deb hazillashishni xush ko‘rardi.

Taqrizchilarimning maqtashlarini aytmay sizmi... Meni sovet Kerauaki deb atashar, yo‘l-yo‘lakay Dostoyevskiy, Chexov, Gogolni ham eslab turishardi.

Taqrizlardan birida shunday deyilardi:

„Dovlatovning qahramonlari Soljenitsinnikiga nisbatan ancha yorqin gavdalanadi...“ Bunday taqrizlar meni uncha qiziqtirmasdi. Buning ustiga mening haqimda nima yozganlariga parvo qilmasdim. To‘g‘ri, agar yozishmasa xafa bo‘lardim...

Lekin, baribir, mening romanlarimning sotilishi sust edi. Bu yerda amerikaliklar o‘z adabiyotini ma‘qul ko‘rishadi. Tarjima qilingan asarlar uncha yaxshi ketmasdi.

– Amerika haqida yoz, – deb maslahat berdi menga adabiy vakil. – Amerika hayotidan biror voqeani olib yozgin. Axir, bu yerda anchadan beri yashayapsan-ku.

U yanglishayotgandi. Men yashayotganim Amerika emas. Men ruslar mustamlakasida yashardim. Bu yerda

qanaqangi Amerika voqeasi bo'lishi mumkin! Masalan, shunday bir voqeani olaylik. Kirxona bilan bank oraliq'ida gurji Daritashvili kabob pishirib sotadi. Qandaydir bir ayol unga norozilik bildiriyapti:

– Nima uchun siz janob Lernerga kabobning kattasini berdingiz-u, menga zig'irdayini cho'zyapsiz?

– E-e, – deya qo'l siltaydi gurji.

– Xo'sh, nima uchun?

– E-e, – takrorlaydi gurji.

– Men talab qilaman, ustingizdan shikoyat qilaman! Buni shunday qoldirmayman? Nima uchun?

Gurji aftini burishtirib, qo'llarini tepaga ko'taradi:

– Nima uchunmi? Shuning uchunki, u menga yoqadi!..

Menimcha, bu tayyor mavzu. Lekin unda amerikacha nima bor?

Bir mahal deng, telefon jiringlab qoldi. Go'shakdan Marusya Makarovichning ovozi eshitildi:

– Menga sigaret olib kelgin. Olib kela olasanmi?

– Biror narsa bo'ldimi?

– Unchalik emas. Ko'zimning tagi ko'kargan. Ko'chaga chiqishga uyalyapman. Pulini tezda qaytaraman.

– Qayerdan orttirding?

– Sening nima ishing bor? Po'stinni sotdim.

– Men pulni aytayotganim yo'q. Ko'zing nega ko'karganini so'rayapman?

– Rafka bilan aytishib qoldim.

– Hozir yetib boraman...

Men Marusya bilan bundan bir yil oldin, o'sha rus televideniyasi bilan bog'liq mashhur ig'vogarlik payti tanishgan edim.

Ikkita korchalon Lelik bilan Maratik shahar markazida bir idora ochishgandi. Rus gazetalariga e'lon berish-

di. Baribir uyga maxsus reproduktorlar o'rnatishni va'da qilishgandi. Qisqasi, Amerika televidenyasi ko'rsatuvlarini ruschaga o'girmoqchi bo'lishdi.

Bu narsa nafaqaxo'rlarga, ayniqsa ma'qul tushdi. Keksalar jon-jon deb pul yuborishdi. Lelik va Maratik ishga olti nafar xodimni taklif qilishdi. Ikkita kotiba, bitta musahhih, qorovul, reklama vakili va meni ijodiy xodim sifatida ishga olishdi.

Men ishda „Chemodan“ degan kitobimni yozardim. Kotibalar kun bo'yi gap sotishadi. Vakil reklama beruvchilardan yo'q televideniya uchun pul undirdi. Musahhih she'r yozardi. Qorovul – sambo bo'yicha Moldovaning sobiq chempioni, ichkilik va yugurish bilan ovora.

Qorovul Lelik va Maratika kerak edi. Aldangan mijozlar kelib qolsa asqotishi mumkin.

Kotibalardan bittasi Marusya Makarovich edi. U menga darrov yoqib qoldi. Xushqomat, kelishgan edi-da. Men darrov tushundim. Marusya jamoamiz uchun sira mos emasdi. Mana, masalan, o'ziga xos bir voqea.

Ikkinchi kotibaning eri bor edi. U xotinining tug'ilgan kunida unga bilaguzuk sovg'a qildi. U bo'lsa, bilaguzukni ishga taqib keldi – maqtanish uchun. Marusya bilaguzukni qo'lida aylantirib ko'rdi-da, maqtadi.

– Qanday ajoyib! Ittifoqdaligimda menda ham bitta shunaqasi bor edi. Faqat u platinadan edi...

Shundan keyin kotiba Marusyani yomon ko'rib qoldi...

Marusya o'zining boy berilgan imkoniyatlarini tez-tez eslab turardi. Mashhur eri haqida ko'p gapirardi. Ondatra po'stinini divanga yoyib qo'yishni yaxshi ko'rardi. Jamoa esa o'z a'zolarining soddaroq bo'lishlarini taqozo etardi. Marusya bilan men uch marta qahva ichib, bafurja

gaplashganman. U menga o'tmishini gapirib berdi. Biz ma'lum darajada do'stlashib qoldik.

– Uylanganligingiz chatoq ekan-da! – dedi Marusya. – Ikkalamiz til topishib ketgan bo'lardik. Muhimi – rafiqangiz juda ma'qul ayol ekan...

Ishga joylashgach, Marusya bir uyda ijarada turadigan bo'ldi. Pulni Loradan qarzga oldi.

O'sha paytlar bizning dahada to'rt yuz dollarga xonadonni ijaraga olsa bo'lardi. To'satdan Lelik bilan Maratik e'lon qilib qolishdi:

– Birinchi oyga hech kim ish haqi olmaydi. An'anamiz shunaqa. Axir, biz yangi firma tuzyapmiz-ku.

Oradan to'rt hafta o'tdi. Korchalonlar g'ing deyishmasdi. Ulardan pul haqida so'rab qolishsa, darrov ingliz tilida gapirishga o'tishardi.

Bizni aldashganini tushundim. Firma sohiblari huzuriga kirdim. Ular haqida nima o'ylayotganimni to'kib soldim. Shunday qattiq-qattiq gapirdimki, dahlizdagilarga ham bemalol eshitilardi.

Marusya hayratlandi:– Siz shunaqa gaplarni bilasiz, deb sira o'ylamagan ekanman.

Qisqasi, televideniya tug'ilmay turib bo'g'ildi. Aldangan mushtariylar Lelik bilan Maratikni hanuz qidirib yurishibdi.

Ikki korachalonning g'oyib bo'lishi rus matbuotida feleton chiqishiga olib keldi. Feletonchilar Lelik bilan Maratikni davlat xavfsizligi tomonidan yuborilganiga ishonch bildirishgandi. Maqsad – kapitalistik tizimni ich-ichidan yemirish. Shundan keyin hisobchi Falkovich „Astoriya“ga ishga kirdi. Eri bor kotiba qizining oldiga – Torontoga uchdi. Reklama vakili magnitofon yozuvlari bilan savdo qilishga kirishdi. Men yana bechorahol erkin ijodkor ahvoliga

tushib qoldim. Qorovul Yakov Smirnovning soqchisi bo'lib ishlayapti. Aytishlaricha, Smirnov undan hayiqarmish.

Marusya bo'm-bo'sh xonada, pulsiz qoldi. Men uni ikki marta mashinada turli tashkilotlarga olib bordim. Bir-ikkita uy jihozlaridan topib berdim. Eski televizori-mizni ham uning xonadoniga olib borib qo'ydim. Uning uchun yana nima qilishim mumkin edi? Nima, endi xotinim bilan ajrashib o'tiramanmi?

Ba'zan ko'chada uchrashib qolamiz. Nima bilan kun ko'ryapsan, deb so'rashning o'zi ahmoqlik. Ehtimol, biror nafaqa olishga muvaffaq bo'lgandir.

Marusya Lyovushka kasal deb aytgandi.

– Musiqadan dars berishga urinyapman, kichik bolalar bog'chasi ochsammikin? – dedi u.

Men zo'r berib eshitmaslikka harakat qilardim. Bunaqa gaplarni hadeb eshitaversang, diqqating oshadi. Muhtojning muhtojga qanday yordami tegishi mumkin, deyishadi-ku, axir.

Xuddi shunda haligi Lotin Amerikalik paydo bo'ldi. Marusya u bilan qachon tanishganini eslay olmaydi. Yo'ldami, liftdami-yey, ko'rgandi, shekilli. Ha, Marusya uning shalag'i chiqqan mashinasida o'tirganini esladi. Ular „Del Moniko“ restoranidan qaytib kelishayotgandi. Lyovushka mashinada uxlab qolgan edi. Marusya shundoq qarasa, Lotin Amerikalikning soxta uzukli qo'li Marusyaning kaftini silayapti.

– Now¹ – dedi Marusya, haligi kishining qo'lidan o'z qo'lini tortib olarkan.

– Whay not² – so'radi Lotin Amerikalik, Marusyaning tizzasiga qo'lini qo'yib.

¹ Now – yo'q, bo'lmaydi (ing.).

² Whay not – bo'lmasa nima qilibdi? (ing.)

– Now, – dedi Marusya tizzasidan uning qo‘lini surarkan.

– Whay not? – so‘radi Lotin Amerikalik Marusyaning ko‘ylagi yoqasini tuzatgan bo‘lib.

– Now.

Marusya uning qo‘lini tushirib tizzasiga qo‘ydi.

– Whay not?..

Lotin Amerikalik qo‘lini Marusyaning qoliga qo‘ydi.

Marusya uning qo‘lini olib tashladi.

– Whay not?..

Uning bir qo‘li Marusyaning yon-atrofini paypaslardi. Ikkinchi qo‘li zo‘r berib ayolning sumkasini olishga urinardi.

Marusya hangu-mang bo‘lib qolgandi: „Mashinani qanday boshqaryapti ekan? Aniqrog‘i nima bilan boshqaryapti?“ Holbuki, mashina bir tekis yurib ketyapti. Faqat bir martagina begona „mercedes“dan o‘zib o‘tishdi.

Lotin Amerikalik shunda ham qo‘llarini olmadi. Faqat tizzalarini qimirlatardi.

– Esing joyida emas, shekilli, – dedi Marusya baqirib.

Rafael mashinasini to‘xtatmasdan, cho‘ntagidan ko‘k flomaster olib, o‘zining neylon jemperi ko‘kragiga yurakning rasmini chizdi-da, Marusyani o‘pishga tushib ketdi. Endi u Marusyaga butunlay o‘girilib olgandi. Rulni esa (Marusyaning ta’kidlashicha) orqasi bilan boshqarib borardi.

Marusya uni uyga taklif qilishni istamadi. Bo‘m-bo‘sh xonasidan uyalardi. Lyovushka pachaqlangan dermantin kresloda. Marusyaning o‘zi qiyshaygan yig‘ma karavotda uxlardi. Biz bularni ko‘chadan topib keltirgandik. Muzlatgichda ko‘kargan tovuq oyoqlaridan bo‘lak hech vaqo yo‘q edi. Shunday ahvolda mehmonga balo bormi?

Rafael bo'lsa mashinaning yukxonasini ochdi. U yerdan buklanib polietilen qopga joylangan ko'rpachani oldi. Yana bir shisha rom, bir necha pepsi-kola, to'rtta apelsin chiqardi. Ko'rpacha yap-yangi edi.

Marusya endi hayratlanmay qo'ygandi.

– Isming nima? – deb so'radi. – What is you name?

– Rafael Xose Belinda Chikorillio Gonzales, – dedi Lotin Amerikalik.

– Qisqa va aniq – dedi Marusya. – Seni Rafael deb chaqiraman.

– Rafa, – tasdiqladi Lotin Amerikalik, keyin qo'shib qo'ydi:

– Musya!

U darhol yemak va ichimlikni cho'ntaklariga joyladi. Lyovushkani yelkasiga oldi. Ko'rpacha (men bunga shaxsan ishonaman) o'zi yumalab ketaveradi.

Ayni paytda Lotin Amerikalik bo'sh qo'li bilan Marusyani silashda davom etardi. Tag'in deng og'zida sigaret. U g'oz yurib borib eshikni ochdi.

Birdan nimadir chirsillaganday bo'ldi. Marusya sergak tortdi. Lotin Amerikalikning hirsini junbushga kelganini his etdi.

Ular liftidan chiqayotganda bola uyg'onib qoldi. U ko'zlarini pirpiratib Rafaelga qaradi-da, so'radi:

– Sen kimsan? Mening otammisan?

Shunda Lotin Amerikalik nima javob qildi deb o'ylarsiz? U shunday dedi:

– Way not?

GAP-SO'ZLAR

Men mashinaga o'tirdim. Ancha yurganimdan keyin Marusya sigaret olishni iltimos qilgani esimga tushdi.

Orqaga qaytdim. Nihoyat, uning uyi oldida mashinani to'xtatdim. Har ehtimolga qarshi qo'limga biror narsa ol-sammikin? Axir, o'zimni himoya qilishim kerak-ku. Rafael menga tashlanib qolsa-chi...

Men qo'rqqoq emasman. Lekin biz begona yurtdamiz. Tilni qariyb bilmaymiz. Qonunlar bilan ham uncha yaxshi tanish emasmiz. Qurolga o'rganganimiz yo'q. Bu yerda esa har ikki kishidan birida to'pponcha. Agar bomba bo'lmasa.

Buning ustiga Lotin Amerikaliklar negrlardan bat-tar deyishadi. Axir negrlar ikki yuz yil qul bo'lishgan, buning ta'siri ozmi-ko'pmi sezilib turadi. Lotin Amerikaliklar-chi? Hammasi bir-biriga o'xshaydi, baquvvat, surbet va tajovuzkor...

Mushtlashish, albatta, Leningradda ham bo'lardi. Lekin unaqa jiddiy asoratlarga sabab bo'lmasdi.

Esimda, bir safar hangomalashib o'tirgan edik. Nasrnavis Stukalin ichib olib, adabiyotshunos Zaytsevga do'q urdi:

– Hozir basharangni yoraman.

– Unday qilolmaysan,– dedi Zaytsev. – Chunki men tolstoychiman... Men har qanday zo'ravonlikni rad etaman. Agar chap yuzimga ursang, o'ng yuzimni tutib beraman.

Stukalin o'ylab turdi-da:

– Rosa ahmoq ekansan-u,– dedi.

Biz xotirjam bo'lib tashqari chiqdik. Janjal bo'lmasa kerak, deb o'ylagandik.

Birdan taloto'p bo'lib qoldi. Yugurib xonaga kirdik. Qarasak, Stukalin yerda cho'zilib yotibdi. Tolstoychi Zaytsev bo'lsa uning basharasiga mushtlayapti.

Lekin uyda bunday janjallar og'riqsiz o'tardi. Bu yerda-chi?

Mayli, bo'pti. Bora qolay, deyman. Qo'ng'iroqni bosaman.

Eshikni Marusya Makarovich ochadi. Rostdan ham ko'zining tagi ko'karib ketibdi. Buning ustiga pastki labi yorilgan, peshonasi tirlangan.

– Qarama! – deydi.

– Qarayotganim yo'q. Qani u?

– Rafkami? Qayoqqadir qochib qoldi.

– Balki, seni shifoxonaga olib borish kerakdir, – deyman.

– Keragi yo'q. Atir-upa bilan bejab tashlayman.

– Unda politsiyaga qo'ng'iroq qil.

– Nimaga? Shungayam ota go'ri qozixonami? Nima qilibdi – ispan bittasining ko'ziga musht tushiribdi. Agar u meni chavaqlasa yoki otgan bo'lsa boshqa gap.

– Unda, – deyman, – telefon qilmasa ham bo'ladi.

– Bema'nilik, – dedi Marusya.

– Balki o'n ikki kunga qamattirish kerakdir. Tanobini tortib qo'yish uchun.

– Nima uchun? Janjal qilgani uchunmi? Mana shu telbavor Nyu-Yorkda-ya? Axir, bu yerda turmaga tushish mars yoki yupiterga tushishdan mushkulroq-ku! Buning uchun bu yerda kamida yuzta odamni o'ldirish kerak. Tag'in boshliqlardan. O'ylashimcha, bu yerda qamoqqa qirq yil navbat turish kerak. Sen bo'lsang – qamashadi, deysan... Muhimi, tashvishlanma. Buni o'zim hozir bo'yab tashlayman...

Xonaga ko'z yugurtirdim. Marusyaning uyi butunlay o'zgaribdi. Turli-tuman jihozlar. Divan, kreslo. Uch g'ildirakli velosiped. Derazalarda parda...

– Eshikni yaxshilab berkitib ol, – dedim Marusyaga.

– Befoyda. Unda kalit bor.

– Moddiy jihatdan sal-pal qarashib turadimi?

– Uncha-muncha... Umuman, saxovatli. Turli-tuman kiyim-kechak sotib olaveradi. Ayniqsa, Lyova uchun. Af-tidan, ispanlar bolajonga o'xshashadi.

– Yana oq badan ayollarga ham desang-chi...

– Bu rost. Bu borada Rafaga gap yo'q. Haqiqiy pioner!

– Bu nima deganing?

– Pavlik Morozov singari. Hamisha tayyor! Fikri-yo-di – otib olish-u, ko'rpaga kirish! Shahvatdan, kuch-quv-vatdan ham Xudo bergan ekan. Ba'zan o'ylab qolaman – uni turbinaga ulab qo'ysa qanday bo'larkan! Shuncha quvvat bekor ketyapti, axir... Pul ma'nosida u xasis emas. Kino, teatr, restoran bo'lsa ayamaydi. Biroq xo'jalik uchun yuztalikni ko'zi qiymaydi. Yoki fahmi yetmaydi-mi. Axir xonadon uchun ijara haqi to'lashim kerak-ku...

Marusya oshxona javoni eshigini pana qilib kiyimini almashtirdi.

– Qahva ichasanmi?

– Yo'q, rahmat... O'zi nima bilan shug'ullanardi?

– Qayoqdan bilay.

– Nahotki?

– Nimadir sotadi. Balki sotib oladi. Qayerdadir ikki oycha o'qidi, shekilli. Qisqasi, Spinoza emas, har holda. Ba'zan: „Qayerdan kelgansan?“ deb so'rab qoladi. „Le-ningraddan“, deyman.

– Ha, bilaman, bu shahar Polshada, – deydi.

Bir kuni qarasam, gazeta o'qiyapti. Hayron qoldim – savodli ekan, shunisiga ham shukr...

Marusya qahvadan ho'plarkan, davom etdi:

– Ular bu yerda butun bir urug': onasi, aka-ukalari, opa-singillari. Uncha-muncha o'ziga yarasha odamlar, Rafadan boshqasi. Onasining Bruklinda to'rtta uyi bor.

Rafka, umuman ishbilarmon emas... Pul ham uncha qiziqirmaydi. Unga ko'chada daydib yurish-u, tanishlar bilan valaqlashish bo'lsa bas.

– Mayli, – deyman, – keyin nima bo'ladi?..

– Qaysi ma'noda?

– Senga uylanish niyati bormi?

– Uni ko'proq nima qiziqtirishini aytdim-ku senga. Nafsini qondirsa bo'ldi. Boshqa hech narsani o'ylamaydi...

– Demak, hech qanaqa umid yo'q?

– Qanaqa umid? Bu yerda kelajak haqida o'ylashni kim qo'yibdi? U Ittifoqda edi kelajak to'g'risida bosh qotirish. Bu yerda esa, yashayapsanmi – shu bas...

– Lyovushka haqida ham o'ylash kerak-ku.

– Kerak. O'zim haqimda ham o'ylashim lozim. Erga tegish esa shartmas. Ikki marta erga tegdim, nimasi yaxshi? Mana, men senga aytay. Bir vaqtlar men konsert safarlarida bo'lardim. O'sha joylardagi mehmonxonalarda safardagilar bilan yashashga to'g'ri kelardi: Ularga ikki rubl-u qirq tiyin to'lashardi. Bir kecha-kunduzga. Ular ana shu arzimasa chaqa bilan kun ko'rishlari kerak edi. Ya'ni: uch marta ovqatlanishlari, ustiga sigaret sotib olishlari, yo'l haqi, mayda-chuyda xarajatlar, albatta, biroz ichishlari kerak edi. Ha, yana ayollariga sovg'a-salom deganday. Buning ustiga imkoni bo'lib qolsa, begona xonimlar bilan vaqt o'tkazsa... Shularning hammasi ikki, pardon, rubl-u qirq tiyininga...

– Buni nimaga gapiryapsan?

– O'shandan beri ana shu safarchilarni ko'rgani ko'zim yo'q.

– Marusya aftini alam bilan burishtirdi.

– Atrofingga bir qaragin. Men o'zimizning muhojirlarni aytyapman. Axir, ularning barchasi – safarchilar-

ku! Har birining qo'lida ikki rubl-u qirq tiyin. Undan ko'ra Rafael tuzukroq emasmi?!

– Mening qo'limda ham ikki-yu qirqmi? – so'radim men.

– Aytaylik senda to'rt-u sakson. Ha, aytmoqchi, men senga sigaretning pulini berishim kerak-a? Lekin ko'pchilikda ikki-yu qirq... Bu yerda bittasi bor – Cherngovits, garaj sohibi. Xotini tibbiyot sohasida ishlaydi. Ikkovi birgalashsa ming oltmish dollar topishadi. Kechqurunlari qanday ko'ngilxushlik qilishlarini bilasanmi? Qora „Oldsmobil“ga kirib olishadi-da, Tamara Miansarova kassetalarini eshitishadi. Har oqshom shu. Qasam ichishim mumkin. Xotini do'konchada „Panorama“ni boshidan oxirigacha o'qiydi. Feliks esa kasseta eshitadi. Shu ham hayot bo'ldiyu! Bunaqangi ishlab, huzurini ko'rolmaydigan ho'kizlardan kaltafahm Rafa yaxshi emasmi?

– Garaj sohibi ayolini do'pposlamayotgandir.

– Albatta. Ortiqcha gap-so'zlarni xohlamaydi-da.

Kiyinib va bo'yanib olgach, Marusya ancha dadillashadi. Shu payt pastda qo'ng'iroq jiringlab qoldi. Marusya pushtirang tugmachani bosarkan:

– Fantomasning qaytishi, – deb qo'ydi. Keyin sekingina qo'shib qo'ydi:

– Sen bilan mushtlashib yursa-ya? Agar janjallashadigan bo'lsa, bir adabini berib qo'y.

– O'h-ho', – dedim, – juda qiziq bo'ladi-ku! Mening nima daxlim, bor, o'zi qanaqa, baquvvatmi?

– Gorilladay keladi. Manavi chiroqni ko'ryapsanmi?

– Ko'ryapman. Xo'sh, nima qilibdi?

– U hamisha ana shu chiroqqa tegib ketadi.

– Axir unga men ham tegaman-ku.

– Sening boshing tegadi, uning yelkasi.

Yana qo'ng'iroq jiringladi. Bu safar uning ovozi juda yaqindan eshitildi. Shu zahoti qulfdagi kalit buraldi. Eshik ochilib gavdali kishi ko'rindi.

Ellik yoshlardagi bu odam jigarrang futbolka, tor sport cholg'orida edi. Boshiga oq doka o'ralgan, o'ng qo'li gipslangan, oyog'ini sudrab bosardi.

Men yengil tin oldim. U ko'rinishidan vahshiy emas, balki jabrdiydani eslatardi. Yuzini ayanchli burishtirib turardi. Xonani yod isi bosib ketdi.

– Manavi ta'viyani ko'rib qo'y endi, – dedi Marusya.

Meni ko'rib Rafa ancha sergak tortdi:

– U meni do'pposladi, janob! Nimaga? U avvaliga meni kiyim ilgich bilan savaladi. Lekin ilgich sinib ketdi. Keyin meni soyabon bilan ura ketdi. Soyabon ham sinib ketdi. Shundan keyin tennis raketkasini qo'lga oldi. Ammo raketka ham chidamadi. Shunda meni tishladi. O'zim qo'ydirib bergan tishlar bilan g'ajib tashladi-ya, men sho'rlikni. Shu insofdanmi?

Rafa yig'lamsirab davom etardi:

– Men shifoxonaga murojaat qildim, jarrohga bordim. Jarroh „Tajovuzchilar qo'lga tushib qolibsanda“ – dedi. „Doktor! Tajovuzchilar tishlamaydi, – dedim men. – Meni rus ayoli shu ko'yga soldi...“

– Topgan gapini qaranglar, – dedi Marusya.

– Men uni sevaman. Men unga gullar hadya qilaman. Shirin so'zlar bilan erkalayman. Uni restoranlarga olib boraman. Bunga javoban nima eshitaman, deng? U meni qari qo'tir, negr dedi. Mendan pul talab qilyapti. Bu xonim... Menga gapirish judda og'ir, shunday bo'lsa ham aytaman. Bugun u mening tulporimga tupurdi.

Men tushunmay qoshimni chimirdim.

– Asov ayg'irimga tufladi.

Men yana tushunmadim.

– Qisqasi, u menga tufladi. Bilmadim, balki, Rossiya-da bu bir odatdir? Lekin menga juda alam qildi.

Men Marusyadan so‘radim:

– Nima bo‘ldi o‘zi?

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q. Menga pul kerak bo‘lib qoldi, uy haqini to‘lashim kerak edi. U bo‘lsa „yo‘q“ dedi. Senga doim pul kerak, deydi. Men bo‘lsam sen notavonsan, dedim. Men o‘n yil buyuk artistga, rus sinatrasiga xotin bo‘lganman, sen uning poyabzalini tozalashga ham arzimaysan. Sen dedim, qora qo‘tirsan. U bo‘lsa „seni sevaman“, dedi. Qaragin seni qanday yaxshi ko‘raman. Bir mahal, qarasam mushtini ko‘rsat-yapti. Jahlim chiqib ketdi. Qo‘limga ilingan narsa bilan boshiga tushirib qoldim. U bo‘lsa meni „ahmoq“ deb so‘kdi. Men kiyim ilgichni oldim. Natijada, janjal boshlandi...

– Bilib qo‘ying, – dedi Rafael. – Men qarshilik ko‘rsatmadim. Men faqat yuzimni berkitdim. U meni burchakka qisib olib savalayverdi, savalayverdi. Uni itarib yuborishga majbur bo‘ldim.

Rafael soddadil va xusumatsiz odam sifatida taassurot qoldirdi. Unga qarab rahmim kelib ketdi. Tortinibgina divan chetiga o‘tirdi.

– Sizlar yarashishlaring kerak, – dedim Marusyaga.

– Unga qahva taklif qil... bir stakan rom yana ham yaxshi bo‘lardi.

– Yana nima deysan?! – dedi Marusya.

Shunga qaramay muzlatgichdan yapaloq shishani oldi.

Qiziq bir guruh vujudga keldi. Ko‘zi ko‘kargan ayol. Shu ayol urib abjag‘ini chiqargan Lotin Amerikalik ham-

da men – bu yerga nima sababdan kelganligi noma'lum bir odam. O'rtada endi ichila boshlagan rom shishasi.

– Sen Serjioga bir qara, – dedi Marusya Rafaelga. – U buyuk yozuvchi. Pul muammosi unda borligi tabiiy. SENCHI? Bir tiyinga qimmat odamsan. Bundan tuzukroq pul topsang bo'lmaydimi...

Unga javoban Rafael tishlarini g'ijirlatdi:

– O, Rasha! Kreyzi rashen vumen!

– Bu odam menga yoqyapti. Uni tinch qo'ygin. Buning ustiga foydasi tegadi. Inglizchani o'rgandim-da...

Biz biroz ichdik. Marusya choy damladi. Rafael o'zida yo'q xursand. U Marusyaga yeb qo'ygudek tikilar, hech bo'lmasa ko'ylagini silab qo'ygisi kelardi.

Rafaelning markschi ekanini bilib, yanada hayratlandim. Bu odamni siyosat umuman qiziqtirmasa kerak, deb o'ylagandim.

U birdan xitob qilib qoldi:

– Men ruslarni hurmat qilaman. Ular juda ajoyib kishilar. Xuddi polyaklarga o'xshaydilar, lekin idish tilida gaplashadilar. Ruslar adolatga erishganliklari uchun ularni hurmat qilaman. Pulni millionerlardan tortib olib, kambag'allarga bo'lib berishdi! Endi millionerlar uzdu-kun ishlashadi, kambag'allar bo'lsa, buyruq berish va ichish bilan ovora. Mana bu – adolat. Oktabr inqilobiga mashhur partizan – Tolstoy boshchilik qildi. Oxir-oqibatda u „Gulag arxipelagi“ asarini yozdi.

– Yo, Tangrim, – dedi Marusya.

Lotin Amerikalik davom etardi:

– Amerikada adolat yo'q. Kinoyulduzlarni millionerlar oladi, fabrikada ishlovchi ayollar esa kambag'allarga qoladi. Qani bunda adolat? Hamma narsa umumiy bo'lishi kerak. Avtomobillar, pul, ayollar...

– O‘h-ho‘, ishtaha zo‘r-ku, – dedi Marusya.

– Nima, shu yaxshimi, kimningdir millionlab puli bo‘lsa-yu, kimdir chaqa sanasa? Hamma narsani adolatli taqsimlash lozim.

Men uning gapini bo‘ldim:

– Menimcha, bu foydasiz. Birovlar millioner bo‘lib, boshqalar kambag‘al bo‘lib tug‘iladi. Hamma narsani bab-baravar bo‘ldik, deylik. Xo‘sh, nima o‘zgaradi. Oradan besh yil o‘tmay pullar millionerlarga qaytib keladi. Kambag‘allar esa g‘am va tashvish orttiradilar, xolos.

– Ehtimol, sen haqdirsan. Buning ustiga Amerikada inqilob hali beri yuz bermaydi. Bu yerda boylar va polit-siyachilar juda ko‘p. Biroq, o‘ylashimcha, kelgusida inqilob baribir yuz beradi. Hakimlar va advokatlarni kun bo‘yi ishlashga majbur qilamiz. Oddiy kishilar esa, jaz musiqasini tinglab, marixuana chekishadi va ayollarga xushomad qilishadi.

– Qanday odamligini ko‘ryapsanmi? – dedi Marusya. – Shunaqayam bo‘ladimi?

– Uni tinch qo‘ysang-chi, – deyman. – Umuman, yomon odamga o‘xshamaydi. Mulohaza yuritishi ham, Plexanov, hatto Chernishevskiy darajasida...

Biz yana ichdik. Mening bu yerdaligim Rafaelga og‘ir botayotganini his qildim. Holbuki, u Marusyaning qo‘liga qo‘lini niqtat:

– Qo‘yaver, Serjio shu yerda qolaversin, – derdi. – Shoshilib qayoqqa ham borardi? Kelinglar, yana uch daqiqa o‘tiraylik. Atigi uch daqiqa.

– Lekin men ketishim kerak, – dedim. Biz xayrlashdik. Rafaelning quvonchini cheki yo‘q edi. U gipslangan og‘ir qo‘li bilan qornimga do‘stona bir tushirdi.

Marusya meni kuzatib eshikka chiqdi.

– Sigaret uchun manavi pulni olib qo'y.

– Tentaklik qilma, – dedim men.

– Nega endi! Agar sen men bilan yashaganingda boshqa gap edi. Unda tushunsa bo'lardi!

Shunda men uni birdan o'pib oldim. Liftning eshigi sharaqlab ochildi.

– Chao! – deb qoldi Marusya orqamdan.

Uyga qarab borarkanman, negadir o'zimni baxtsiz his etdim. Biram ichgim keldiki...

Lekin qizimni ko'rdim-u, o'zimga keldim. Hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketdim.

KO'CHADA VA UYDA

Mish-mishlar bizda tez tarqaladi. Agar sizni hali oxiri to'qilmagan yangiliklar qiziqtirsa, rus do'konining yonida birpasgina to'xtang. Eng yaxshisi – „Dnepr“ do'koniga bir mo'ralab o'ting.

Bu bizning klub. Bizning anjuman. Bizning uyushma. Bizning axborot agentligimiz.

Bu yerdan istagalgan ma'lumotni olishingiz, gazetada chiqqan maqolani muhokama qilishingiz mumkin. Tan soqchisi, shofyor yoki pullik qotilni yollasa ham bo'ladi. Yuz dollarga mashina olish hech gapmas. Ona yurtida tayyorlangan valokordin sotib olish, hatto quvnoq va uncha talabchan bo'lmagan ayol bilan tanishishingiz mumkin.

Aytishlaricha, bu yerda marixuana va qurol-yarog' sotisharmish. Xorijiy valuta ayirboshlanarmish. Xufiya bitimlar tuzilarmish.

Bu yerda bizning daha kishilari haqida hamma narsa ma'lum. Masalan, Zyama Pivovarov nabira ko'rdi. Uning ismini Benji qo'yishdi. Huquq himoyachisi Kara-

vayev totalitarizm qurboni bo'lgan qizi Galinani himoya qilib maqola yozdi. „Rus kitobi“ do'koni sohibi Fima Duker „Brejnev“ albomini qayta nashr qilyapti. Baranov, Yeselevskiy va Persovich birgalikda lanchonet sotib olishdi.

Hamma biladiki, fotoshirkat xo'jayini Yevsey Rubinchik xotiniga mutonli po'stin olib berolmadi. Grigoriy Lemkus Afrodita degan yingiltak qizini erga berdi. Omadli Lerner „Rodos“ rasmlar gallereyasiga kiruvchilarning millioninchisi bo'ldi va uch yuz dollar bilan taqdirlandi. Yana shunisi ma'lumki, Lerner bu galereyaga avvallari sira kirmagan edi.

Zaretskiyning yashirin ravishda Soljenitsin huzuriga borganini ham hamma biladi. Ular ikki daqiqa suhbatlashishgani ham ma'lum. Zaretskiy Isaichning ishqiy hayot haqida qanday fikrdaligi bilan qiziqibdi. Buning hammasi „Dengiz orti telbaligi, dajjol tuhmati“dir, degan javob olibdi.

Xullas, bu yerda hamma narsani bilishadi. Har kimdan xabarlari bor. Mana, nihoyat, Marnsya bilan Rafael haqidagi gap ham tarqaldi. Mazmuni taxminan quyidagicha:

Anavi burchakdagi uyda yashovchi bor-ku, o'shanikiga bitta ispan kirib yuribdi. Tag'in, oshkora deng. Tavba, shunchalar ham past ketadimi, ayol degan!

Erkaklar bu mavzuni muhokama qila turib quvnoq ko'z qisishardi. Ayollar jahl bilan qoshlarini chimirardilar.

– Bu sariq xonim sira bo'sh kelmayapti, – derdi erkaklar.

– Zarracha vijdoni bo'lsayam mayli edi, – derdi ayollar qat'iy.

Ayollar, odatdagicha, Marusyani qoralashardi. Erkaklar xayrixohlik bildishardi.

Rafa erkaklar tasavvurida gangster, hatto terrorchi edi. Ayollar esa uni piyonista hisoblashardi.

Ayollarning falsafasi shunday: „Bolalik yolg‘iz onamisan, bir tiyin puling yo‘qmi, bas, gerdayma. Sal pastroq tush, oddiyroq yasha“. Ular Marusyaga o‘xshash og‘ir ahvoldagi ayollar horg‘in, bechorahol va qaram bo‘lishlari kerak, deb hisoblashardi. Agar u kasal, asabi ishdan chiqqan bo‘lsa, yanayam yaxshi. Shunda ayollarning unga rahmlari keladi. Hatto, yordamlashadilar ham.

Aks holda-chi? Shunchalik mag‘rurmi, bilganini qilsin... Umuman, Senga rahm qilishimni istaysanmi? Unda kel, yalinib-yolvor, nochorligingdan bir huzur qilay!“

Marusya tashlandiq va xo‘rlangandek tutmasdi o‘zini. Tezda mashina haydashni o‘rganib oldi. Rus do‘konlariga tez-tez kelib turar, tansiq taomlardan sotib olardi. Men o‘zim ham Rafa nima bilan shug‘ullanishini haligacha tushunmasdim. Marusya haqida-ku, gapirma ham bo‘ladi.

Shunga qat‘iy ishonch hosil qildimki, kambag‘allik – tug‘ma sifat.

Boylik ham. Har kim o‘ziga yoqqan narsani tanlaydi. Qizig‘i shundaki, ko‘pchilik kambag‘allikni tanlaydi. Rafael bilan Marusya bo‘lsa boylikni ma‘qul ko‘rishdi. Rafael o‘zini yunon korchaloni Aristotel Onassisning talaytirilgan o‘g‘lidek tutardi. Cho‘ntagida hemiri yo‘g‘u, badavlat otasining milliardlariga ishongandek yurardi. U istagan joyidan qarz olardi. Kredit qog‘ozlarini rasmiylashtirardi. Moliyaviy majburiyatlar olardi.

Aysh-ishrat qilar, oqibati nima bo‘lishidan tashvishlanmasdi.

Marusya avvaliga asabiylashdi, keyin ko'nikib ketdi. Amerika – boy mamlakat. Axir unda kimdir g'am-tash-vishsiz yashashi kerak-ku!

Ular mana shunday yashashardi.

Jamiyat ularni tanballik, qalloblik, giyohvandlik uchun kechirishi mumkin edi. Qisqasi, beparvolikdan boshqa hamma narsani kechira olardi.

G'ilay Fridaning jahli chiqib:

– Men ham biror Chipollinoni topib olishim mumkin! – derdi alam bilan.

Boshqa yurtdoshlarimizning mulohazasi ham undan qolishmasdi. Jumladan, Zaretskiy shunday derdi:

– Manavi Lotin Amerikalikni bir ko'rib qo'yinglar. Panjalari va quloq supralariga e'tibor beringlar-a... Shundoqqina ro'paramizda o'rta asrlardan kelgan maxluqning o'zginasi turgandek.

Endi Marusya Fyodorovnaga qaranglar. Uning qaddi-qomatiga e'tibor beringlar. Axir bu ayollar go'zalligining tirik timsoli emasmi?! Qisqasi, ular bir-biriga aslo mos emas...

Lemkus ko'zlarini yashirishga urinadi:

– Tangri – bu muhabbatdir!

Huquq himoyachisi Karavayev xitob qiladi:

– Butun Xelsinki guruhi qamoqqa olingan bir paytda zinoga berilish axloqsizlik va uyat!

Noshir Druker uni quvvatlaganday qo'shib qo'ydi:

– Tolstoyni Dostoyevskiy bilan chalkashtiradigan odamning nimasiga uchdiykin? Shaxsan men bunga sira tushunolmayman.

Arkasha Lerner alamzada ohangda takrorladi:

– Chiroyli ayollarni nuqul gurjilar ilib ketishadi... Nima? Ispanmi? E, bari bir go'r-ku!

Do‘kon xo‘jayini Zyama Pivovarov haqiqiy korchalonday mulohaza yuritadi:

– Nima, kamyob mollar xaridorini topmay o‘tadimi?

Qalban rassom bo‘lgan Yevsey Rubinchik bo‘lsa:

– Ularning ko‘rinishi yomon emas, – deb qo‘ydi. – Ikkovini sakkizga o‘n ikki bichimida aks ettirsam deyman...

Baranov, Yeselevskiy va Persovich yengil-yelpi hazil bilan cheklanib qo‘ya qolishdi. Xususan, Persovich Marusyaga shunday dedi:

– Sen Musyaxon, do‘stlaringni unutma. Agar erga tegadigan bo‘lsang, meni o‘g‘il sifatida asrab ol. Aks holda oltmish to‘rtga kirib, mashina haydashga kuchim qolmadi...

Men Rafael bilan do‘stlasha olmadim. Chunki biz boshqa-boshqa odamlarmiz. Holbuki, tez-tez uchrashib turamiz. Bizning dahamiz o‘zi shunaqa.

Aytaylik, siz kimnidir qidirmoqdasiz. Manzilini surishtirish shart emas. Markaziy ko‘cha bo‘ylab sayr qilsangiz bas. Bir banka pivo oling. Bitta muzqaymoq yeng. Sigaret tutating... Izlayotgan odamingizni uchratmay ilojingiz yo‘q. Hech bo‘lmaganda u haqda to‘la ma‘lumotga ega bo‘lasiz. Albatta – uni yomonlovchi ma‘lumot olasiz...

Marusya uch marta ziyofat berdi. Xotinim bilan meni ham taklif qildi. Chuchvara tugibdi. Rafani tergagani-tergagan:

– Chekmasang-chi! Kamroq ye! Eng muhimi kamroq gapir! Shuni yaxshi bilginki, bu yerda eng ahmog‘i o‘zingsan.

Rafael bunga xafa bo‘lmasdi. Chindan ham uning chakagi tinmasdi. Asosan, millioner bo‘lish haqida gapirardi. Tezda boyish rejasini tuzardi. U bolalar uchun yeyiladigan shaxmat loyihasini ishlashga urindi. Nihoyat,

ayollarga yeyiladigan lozimlar yaratish haqida bosh qotirib boshladi.

Uni qiynayotgan narsa ishni boshlashga mablag' yo'qligi edi.

– Akalarimdan so'rashim mumkin, – derdi u. – Ular menga ishonishadi. Qo'ng'iroq qilsam bas...

– Akalaring senga qarashishmaydi – e'tiroz bildirardi Marusya. – O'zing buni juda yaxshi bilasan. Ular tentak emaslar.

– Ha, pul berishmaydi, – ma'qullaydi Rafa. – Rost aytyapsan. Lekin men hozir so'rashim mumkin. Ishonmaysanmi?

U amerikalik sifatida butun vujudi bilan boyishni orzu qilardi. Lekin, ayni paytda inqilobchi bo'lgani uchun ham u adolatga erishishini istardi.

– Barcha odamlarga o'xshab, mundaq ishlasang-chi, – derdi Marusya.

Rafa qat'iy e'tiroz bildirardi.

– Nega ishlarkanman. Mushtumzo'rlar-u, boyvachchalar, sudyalalar ishlasin.

Uning gapida umuman mantiq yo'q edi.

Bir kuni Marusyalarnikida o'tirgan edim. Rafa qayerdandir yugurib keldi. Rangi oqargan, hayajonda edi. Ostonada turib qichqirdi:

– Ajoyib g'oya! U bizga uch million dollar olib keladi. Muvaffaqiyat qozonish yuz foiz kafolatlanadi. Hech qanday xavfli joyi yo'q. Uch haftadan keyin sun'iy ko'krak fabrikasi ochamiz!

– Nima? – so'radi Marusya.

– Sun'iy ko'krak !

– Tushunmadim, – dedim men. – Qanaqa ko'krak?..

– Qanaqa bo'lardi, oddiy ayollar ko'krak.

Rafa barmaog'ini ko'ksiga niqtab davoim edi:

– Bu juda oddiy narsa-ku. Ayollarga bir qaragin. Ayniqsa, yoshlariga. Axir ularning hammasi siynabandsiz yurishadi. Ko'ylaklaridan bilinib tursin deyishadi-da.

– Xo'sh, nima qilibdi?

– Men ularni uzoq kuzatdim va birdan...

– Kamroq kuzatgin, – kesatdi Marusya.

– Men uzoq kuzatdim va birdan hang-u mang bo'lib qoldim. Yoshlar uchun bu juda yaxshi. Keksalar uchun achinarli hol. Ular ham ko'kraklari bo'rtib turishini xohlashadi. Bo'rtib tursin-u silkinmasin... shunda men o'ylab topdim, – dedi Rafa tantanavor. – Bunga qanday erishishning yo'lini topdim.

– Diqqat qilinglar-a? Kampir siynabandni taqadi. Siynabandni rezina ko'krakka kiydiradi. Keyin ustidan nimchasini kiyadi.

– Xo'sh nima qilibdi?

– Nima qilardi. Ko'kragi bo'rtib turadi, bilqillamaydi ham.

– Sen hali shularni sotasani?– so'radi Marusya.

– Bo'lmasam-chi, cheklanmagan miqdorda. Bu axir xomxayol-ku. Men xomxayolni sotaman. Har donasini qirq sentdan. Bundan millionlab dollar ishlayman. Chunki Amerikada eng xaridogir mol xomxayol... Boshlang'ich mablag'ni topsam bo'ldi. Taxminan yigirma ming...

– Bu jinni bo'lib qolganga o'xshaydi, – dedi Marusya.

Kreyzi! Bu dalil. Lekin Lyovkaga juda o'rganib qolgan. Unga o'yinchoq sotib oladi. U bilan cho'milishga boradi. Yaqinda baliq ovlagani borishdi. U Lyovushkani o'zi bilan teng ko'radi. Hatto Lyova undan aqlliroqqa o'xshaydi...

Bir kuni Marusya biznikiga kelib qoldi.

– Qahva bormi! – dedi. – Biroz o‘tirmoqchiman. Soat beshlarga Rafa ham keladi. U bog‘chadan Lyovushkani olishi kerak.

Muzlatgich javonini ochdi.

– Voy qo‘ysangiz-chi! – dedi Marusya. – Men parhez-daman.

Biz qahva ichib, siyosatdan gaplashib o‘tirdik. Gorbachyov shaxsiyatini va u o‘tkazayotgan islohotlarni muhokama qildik.

– Agar u yoqda o‘zgarishlar bo‘lsa, – dedi Marusya. – Hammadan oldin men eshitaman. Chunki birinchi bo‘lib otamni ishdan bo‘shatishadi. Uning o‘zi menga shunday derdi: „Esingda bo‘lsin. Men hanuz bunday mas‘uliyatli lavozimda ekanman, kommunizm sen bilan oyingga xavf sololmaydi...“

Shu payt pastdan qo‘ng‘iroq qilishdi.

– Bu Rafa, – dedi Marusya.

Birozdan so‘ng Rafa kirib keldi. Tashqari do‘zaxday qizib ketganini aytib, ros bilan pepsi-kola ichish istagini bildirdi.

– Kirmagan teshigi yo‘q buning, – dedi Marusya kulib, – hatto do‘zaxni ham ko‘ribdi.

Keyin so‘radi:

– Bola qani? Hovlidami?

– Hozir hammasini tushuntiraman.

Marusya o‘rnidan turib ketdi:

– Lyovushka qayerda?

– Tashvishlanma. Hammasi joyida.

Rafa yana ichdi. Stakanni stolga qo‘ydi-da, mening orqamga o‘tib:

– Men uni yo‘qotib qo‘yganga o‘xshayman, – dedi qo‘rqa-pisa.

– Nima?

– Mashinadan yiqilib tushganmi, deb o‘ylayman. Faqat sen hovliqmagin...

Ammo biz zinapoyadan pastga chopa boshlagandik. Oldinda – Marusya. Uning orqasidan men, keyin mening xotinim. Eng orqada chopib kelayotgan Rafael gapda davom etardi:

– Biz Grend Sentral orqali kelayotgandik. Ko‘priikka burildik. Leo orqa o‘rindiqla o‘tib oldi. U yerda yangi o‘yinchoqlar yotgandi. Keyin birdan „beng“ degan tovush eshitdim. Men o‘yinchoq bomba portladimi, deb o‘yladim.

– O‘ldiraman, – deb baqirdi Marusya qadamini tezlatarkan.

Biz yo‘lni kesib o‘tadigan joyga qarab chopayotgandik. Rafa sigara chekkanicha yugurardi. Uy shippagida chiqqan xotinim orqada qola boshladi. Uchragan odamlar chetga chiqib, bizga yo‘l bo‘shatishardi.

Kun issiq, jazirama avjida edi. Asfalt yuzasini benzin hovuri qoplagandi. Aeroport tomonda reaktiv motorlarning guvullashi eshitalardi. Yuz sakkizinchi ko‘cha nur tushib qoraygan fotografiyaga o‘xshardi.

Yo‘l ustidan o‘tgan ko‘prikdan chaproqda bir to‘da olomonga ko‘zimiz tushdi. Ular politsiyachini o‘rab olishgandi. Marusya dodlaganicha oldinga tashlandi. Kishilar unga yo‘l berishdi. Qo‘lida o‘yinchoq granatani maqkam qisganicha yig‘layotgan Lyovushkaga ko‘zimiz tushdi. Uning tizzalari sidirilgandi. Boshqa hech joyida jarohat yo‘q edi.

– Siznikimi? – so‘radi politsiyachi jahl bilan..

Marusya Lyovani qo‘liga oldi.

– Yaxshiyamki, hech narsa qilmapti, – dedi bittasi.

– Bunaqa ota-onani sudga berish kerak, – dedi boshqasi.

Bu orada boshqa sanqilar yetib kelishdi:

– Nima bo‘ldi?

– Mashinadan yiqilib tushibdi...

– Yaxshiyamki, samolyotdan qulamabdi.

Biz uyga yo‘l oldik. Rafael o‘zini chetroqda tutardi. Keyin birdaniga:

– Menimcha, bu ishni yuvish kerak, – deb qoldi.

U „Nilufar“ restoraniga qarab bir qadam tashladi. Xuddi shu payt Marusya uning qulog‘i tagiga qarsillatib tushirdi. Bu shapaloq Andriano Chelentanoga minglab muxlislari qarsak chalganday jaranglab ketdi.

Rafa hatto kiprik ham qoqmadi. Faqat qo‘llarini ko‘tarib:

– Men taslimman,– dedi...

Iyulda Marusya tug‘ilgan kunini nishonladi. Uyiga yigirmatacha mehmon to‘plandi. Birinchidan, qarindoshlari Fima bilan Lora. Keyin, Zaretskiy – to‘y generali sifatida. Lerner davraboshi rolida. Rubinchik ishbilarmon doiralar vakili bo‘lib. Noshir Druker – madaniyat namoyandasi. Pivovarov – bunday kechalarning doimiy qatnashchisi timsolida. Baranov, Yeselevskiy va Persovich xalq sifatida. Karavayev – dahadagi boshqacha fikrlovchilar nomidan. Nihoyat, Grigoriy Lemkus, taklifsiz, ammo bolalari bilan.

Zaretskiy Marusyaga atirgul taqdim etdi. Lerner – o‘nta shampan vinosi olib keldi. „Rus kitobi“ do‘koni-ning xo‘jayini Druker – arab ertaklari jildini hadya etdi. Karavayev Belotserkovskiy fotosuratini topshirdi. Unga „Sabr-qanoat – bizning dahshatli qurolimiz!“ deb yozilgandi. Rubinchik o‘ttiz sakkiz dollar va oltmish to‘rt

sentga mannorder tutqazdi. Qarindoshlari Fima bilan Lora elektr yelpig'ich berishdi. Pivovarov – o'z do'konidan arava to'la buyum sovg'a qildi. Baranov, Yeselevskiy va Persovich birgalashib Marusyaga yangi televizor olib berishdi. Lemkus uni o'z duolaridan bahramand etdi. Men xotinim bilan qahva qaynatgich taqdim etishni lozim topdik.

Rafani kutyapmiz. Negadir kechikyapti. Marusya tushuntirdi:

– U telefon qildi. Avvaliga Manxettendan. Keyin Long-Ailenddan. Yarim soat oldin esa – Jekson-Xaytsdan sim qoqdi. Hozir boraman, deb aytdi. Balki pul qarz olish uchun qarindoshlarnikiga borgandir. Ehtimol tuzukroq sovg'a qidirayotgandir. Lekin bu shart emas. Muhimi – e'tibor.

Uni kutishga qaror qildik. Arkasha Lerner tez-tez dasturxonga ko'z tashlab qo'yardi. Boshqalar ham asabiy-lashgandi. Xususan, Rubinchik:

– Baribir ovqat qishda yaxshiroq ketadi, – deb qo'ydi.

– Yozda ham yomon yeyilmaydi-yu, lekin qishdagi-chalik emas-da.

Unga javoban Arkasha Lerner to'ng'illadi:

– Menimcha, qishni kutish – ahmoqlik!

U shunday deb dasturxonga qo'lini cho'zdi.

– Bo'lmasa, qani, marhamat dasturxonga.

Mehmonlar apil-tapil o'tira boshladi.

– Men sizga yaqinroq o'tiraman, Mariya Fyodorovna.

– Men esa semga¹ga, – dedi Lerner.

Qo'ng'iroq jiringladi. Marusya liftga yugurdi. Hade-may Rafael kirib keldi. Qo'lida kattakon jigarrang qog'oz

¹*Semga* – baliqning bir turi.

xalta. Unda nimadir tipirchilardi. Rafael xaltadagi nar-sani kresloga tashladi. U ulkan yashil to'tiqush ekan.

– Voy, Xudoyim-ey! – dedi Marusya. – Bu nimasi tag'in...

– Bu Lolo! Naq uch yuz dollar to'ladim. Xursandmi-san?!

– Yo alhazar! – dedi Marusya.

– Aniqrog'i ikki yuz oltmish... O'zi uch yuz dollar tura-di. Men bo'lsam ikki yuz oltmishga oldim. Yana taksi...

Lolo tovuqday kelardi. Yam-yashil bu qushning po-pugi sariq, bo'yni olovrang, tumshug'i qora edi. U kres-lodan javonga, javondan qandilga uchib o'tdi. Qandildan karnizga sakradi. Keyin pardaga osilib pastga tushdi-da, televizorning ustiga o'tdi. O'tirib oldi. Oynayi jahonning laklangan tepasida axlat uyumi paydo bo'ldi.

Ishini bajarib bo'lgan Lolo kerilib chinqirdi. Keyin norozi ohangda bidirlay ketdi:

– Shit, shit, shit, shit, fak, fak, fak, fak...

– Durust odamlar qo'lida bo'lgan, shekilli, – dedi Ma-rusya.

– Qani endi men ham inglizchani shunchalik gapirol-sam, – dedi hayratlangan Druker.

Shu payt to'ti stolga chiqib oldi. Gazaklarga bir-bir qarab, stol bo'ylab yura boshladi. Panjasini mayonezga botirib, bulg'adi. Sardina balig'ining dumidan tishladi-yu, qandilga uchib o'tdi.

Marusya Rafaelga murojaat qildi:

– Qafas qani?

– Pulim yetmay qoldi.

– Hammayoqni bulg'ab tashlaydi-ku!

– Bu tabiiy. Bu turgan gap, – tasdiqladi Zaretskiy.

– Nima qilish kerak?

Rafa Marusyaga yuzlandi:

– Sen xursandmisan?

– Menmi? O, shodligimning cheki yo‘q! Menga o‘zi faqat shu yetmay turuvdi.

Biz bir amallab Loloni kiyim javoniga qamab qo‘ydik. Lolo bundan o‘ta norozi bo‘ldi. U bosh og‘rig‘iga araq topolmagan sovet qora ishchisiday so‘kina boshladi. Javonning yupqa taxtasini timdalab, baqquvat tumshug‘i bilan to‘qillata boshladi. Keyin tinchib qoldi, uxladi, shekilli.

– Ertaga biror narsa o‘ylab toparmiz, – dedi Marusya. Keyin qo‘shib qo‘ydi:

– Qani, endi dasturxonga!

Sal o‘tar-o‘tmas qadah, finjon, stakanlar jaranlashga tushdi. Lerner hayqirdi:

– Tug‘ilgan kuningiz bilan!

Qizarib ketgan Marusya:

– Sizni ham, – deb qo‘ydi.

Soat tunggi birlarda tarqalishdik. Yo‘l-yo‘lakay Marusyaning muammolarini muhokama qilib borardik.

– Shunday sog‘lom ayol, – dedi Zaretskiy.

– Kechirasizlar, ishlamaydi, qandaydir yovvoyi bilan yashayapti. Kun bo‘yi bo‘sh. Kiygani mo‘yna va zamsh tag‘in. Stakanlab ichadi. Betashvish... Holbuki, Afg‘onistonda qon to‘kilyapti, bu yerda esa shampan vinosi daryo bo‘lib oqyapti. Neapolda bolalar ochlikdan qirilyapti, bu yerda esa qandaydir irkit to‘ti sardina yemoqda! Qani adolat?!

Kulgim qistadi.

– Beadab, – baqirib berdi Zaretskiy.

– Adolatdan ham yuksakroq narsalar bor-ku! – dedim unga.

– O‘h-ho‘, – dedi Zaretskiy. – Juda qiziq-ku! Qani gapiring, jon-jon deb eshitaman. Diqqat, janoblar! Xo‘sh, nima ekan adolatdan yuksakroq?

– Istagan narsangiz, – dedim.

– Aniqroq aytilsa-chi?

– Yanada aniqroq aytilsa – rahm-shafqat...

UYIMGA KETGIM KELYAPTI

Kuz kirdi. Bizning dahamiz cho‘zilgan diqqinafas yozdan keyin zo‘rg‘a o‘ziga keldi. Uylarga o‘rnatilgan sovutgichlar o‘chirildi. Baqaloqlar kalta ishtonlarini yechib, kremplin shimlarini kiydilar. Ayollar tuppa-tuzuk liboslarga burkanishib, yanada jozibador bo‘lib ko‘rinishdi. Tutun va benzinning og‘ir isi chiriy boshlagan yaproqlarning hidiga singib ketdi.

Marusyani tez-tez uchratib turardim. Ba‘zan qaqvaxonaga kirardik, Marusya shikoyat qilib qolardi:

– Sen tasavvur ham qilolmaysan! Rafa bilan Lolo xuddi egizaklarga o‘xshashadi. Shu ma‘nodaki, ikkalasi ham o‘ta mas‘uliyatsiz. Ikkalasi ham faqat bir xil so‘zlarni bilishadi.

– Haliyam ishlamayaptimi?

– Lolomi?

– Yo‘g‘e, Lolomas, Rafa?

Marusya kulib yubordi:

– Sen uni kim bilandir adashtiryapsan, shekilli. Men Loloning ishlashiga ishonishim mumkin. Garchi bu ehtimoldan ancha uzoq bo‘lsa ham...

Marusyaga kokteyl – limonadli jin keltirishdi. Menga esa ichimlik.

Biz alohida stolga o‘tib oldik.

– Axir qanday kun ko‘ryapsizlar? – so‘radim men.

– O‘zim ham bilmayman. Men bir idorada ishlab ko‘rdim. Tabiiyki xo‘jayin yopisha boshladi. „Yur, mehmonxonaga boraylik, – dedim unga. – Yayrab, ko‘ngil yozasan, yuz dollar to‘lasang bo‘ldi“. U bo‘lsa: „Men seni nomusli ayol deb o‘ylabman“ – deydi. „Or-nomusli ayol senga millionga ham ko‘nmaydi“ – dedim.

Men uning gapini bo‘ldim:

– Maruska, nima balo, esing joyidami? Axir, sen fohisha emassan-ju! Nima bu bema‘ni gaplar?!

– Xo‘sh, o‘zing menga nima maslahat berasan? Qandaydir qasang‘i restoranda idish-tovoq yuvaymi? Dasturlovchilikka o‘qiymi? Yoki yuz sakkizinchi ko‘chada yeryong‘oq sotaymi? Yaxshisi qaytib ketishga ruxsat so‘rayman!

– Qayoqqa? Moskvagami!?

– Moskvaga bo‘lsa ham! Nima qilibdi? Qamashmaydi-ku, axir. Siyosatga aralashmasam...

– Erkinlik-chi?

– Boshimga uramanmi erkinligingni! Menga tinchlik kerak. Umuman, menga erkinlikning nima keragi bor, axir otam bor-ku!

– O‘h-ho‘, zo‘rsan-ku!

– Es-hushli odam Moskvada ham erkin.

– Es-hushlilarni ko‘p ko‘rganmisan?

– Ular hamma joyda ham kamroq.

– Sen esdan chiqaribsan. Surbetlik, soxtakorlik...

– Moskvada surbetlik qilishadi, lekin har holda o‘zingnikilar-ku.

– Ana shunisi dahshat-da!

– Umuman hayot rasvo. Rafaga ishonib bo‘lmaydi. O‘zi shunaqa, bugun yalinib keladi, ertaga ko‘rinmay qoladi. Biror hafta qayerlardadir daydib yuradi. Keyin

yana telefon qiladi. Bir safar sayoq yurib, qaytib kelgach, qarasam hammayo'g'i lab bo'yog'i. Xudo ursin, agar! E-e, uni rashk qilishning ham foydasi yo'q. Unga qara-ganda Lolo tuzuk. Xotin-xalajlarga tentirab yurmaydi...

– Lyova-chi? – so'radim men.

– Ayollarga aylanishga Lyova hali yosh.

– Men ahvoli qanday deb so'rayapman?

– U yaxshi. Unga gap yo'q. Rafa bilan munosabati juda zo'r...

Men nariroqda o'tirgan tanish rassomga qo'l silki-dim. Uning xotini Marusyaga qarab-qarab qo'yardi. Xuddi meni shubhali davrada ko'rib qolishganday. Endi gap-so'zlarning ko'payishini ko'rasiz. Darvoqe, g'iybat-lar allaqachon boshlangandi. Kayfiyatim buzildi. Xizmat haqini to'ladim va biz chiqib ketdik...

Oradan bir hafta o'tdi. Qayerdadir Marusyaning sovet elchixonasiga borganini eshitdim. Uyiga qaytib ketishni so'rabdi, deyishdi.

Avvaliga ishonmadim. Lekin gap-so'zlar ko'payaverdi.

Hamma har xil gapira boshladi. Shunda Rubinchik:

– Uning ishi bilan elchixonaning uchinchi kotibi Bali-yev shug'ullanyapti, – dedi.

Men Marusyaga sim qoqdim.

– Nima gap? – deb so'radim.

– Agar xohlasang uchrashaylik, – dedi Marusya.

– Qayerda?

– Faqat „Dnepr“ do'konida emas.

Biroz gilos sotib oldik. Presviterian cherkovi yaqini-da maysazorda o'tirdik.

– Seni men bilan ko'rishsa, – dedi Marusya, – yana ko'ngilxiralik bo'ladi.

– Xotinim libib qolsa demoqchimisan?

- Xotiningmas, muhojirlar jamoasi...
- Tupurdim hammasiga... Sen rostdan ham elchixonaga bordingmi?
- Bordim.
- Nima bo‘ldi? Xo‘sh, nima deyishdi?
- Nima deyishardi: „Kechirishga arzigulik hech narsa qilganingiz yo‘q, Mariya Fyodorovna, deyishdi. Uni avvalo qozonish kerak“.
- Nima bilan tugadi?
- Hech narsa bilan.
- Buyog‘iga nima bo‘ladi?
- Bilmayman. Faqat shuni bilamanki, uyga ketgim kelyapti. Otam bilan onam yashayotgan joyga ketgim kelyapti... Bu yerda-chi? Ispan, to‘tiqush, qandaydir ahmaqona erkinlik... Men ehtimol, to‘tiqushni emas, ko‘ppakni, boshimda erkak bo‘lishini xohlayotgandirman.
- Ko‘ppaging bor-ku, axir – dedim. – Men shunday ko‘ppak bo‘lolmaymanmi?
- Marsuya gapdan to‘xtab, teskari burildi. Oraga jimlik cho‘kdi.
- Jahling chiqdimi?
- Nega jahlim chiqarkan? Seni o‘n besh yil oldin uchratganimda boshqa gap edi...
- Men unchalik qari emasman.
- Sening xotining, bolang bor. Umuman, tushunarli. Faqat shunchaki men istamayman.
- Faqat shunchaki o‘zim ham rozi emasman.
- Bo‘lmasa bu mavzuni bas qilaylik!?
- Bas qildik!
- Gilosni yeb bo‘ldik. Danaklarni maysalar ustiga sochdik.

Jimlikni buzish uchun so'radim:

– O'z ishlaring haqida gapirib berasanmi?

Shundan keyin men undan quyidagilarni bilib oldim.

Avgustda Marusyaning kayfiyati buzildi. Hammasi mayda-chuyda ko'ngilsizliklardan boshlangan.

Lyovushka shokolad yesa, allergiyasi qo'ziydigan bo'ldi. Rafa payshanba kuni chiqib ketganicha daragi yo'q. Lolo yana bir qafasni sindirdi. Holbuki, u og'ir mis simdan to'qilgan. Telefon haqi hali to'lanmagan edi.

Xuddi shu paytda gazetalarda e'lon paydo bo'ldi. Xohlovchilar sovet filmi „Dauriya“ni ko'rishi mumkin. Film Sovet Ittifoqining BMTdagi vakolatxonasi vositasida namoyish etiladi. Kirish bepul. Mish-mishlarga qaraganda, shampan vinosi va buterbrodlar ham tarqatilarkan.

Marusya filmni ko'rishga qaror qildi. Lyovushkani qarindoshlarinikida qoldiradigan bo'ldi.

Tomosha zali uncha katta emas, buning ustiga sovuq ekan. Film uncha yaxshi taassurot qoldirmadi. Amerikalik tomoshabinlarni otishma-yu ur-sur bilan hayratga solish qiyin. Lekin film tugagach, tomoshabinlarni araq va buterbrod bilan siylashdi. Shampan haqidagi mish-mishlar tasdiqlanmadi.

Marusyaning yoniga qirq yoshlardagi kelishgan bir kishi keldi.

– Loginov Oleg Vadimovich, – deb tanishtirdi o'zini.

Kino haqida gaplashishdi. Keyin, umuman, hayot haqida gap ketdi. Oleg Vadimovich qimmatchilikdan shikoyat qildi...

– Mariya Fyodorovna, siz buyoqlarga qanday kelib qoldingiz?

– Ahmoqligim tufayli, – dedi Marusya.

– Otangiz obro‘li odam. Onangiz mas‘ul xodima. O‘zingizning topish-tutishingiz yomon emasdi. Oyiga kamida yuz so‘mdan kam aliment olmasdingiz...

– Baxt pulda emas-ku....

– Rost aytasiz... Lekin nimada o‘sha baxt? Siyosatga aralashmasdingiz. Moddiy jihatdan kamchiligingiz yo‘q edi. Betashvish yashardingiz... Qarindoshlaringizni sog‘inib qoldingizmi? Axir ularni chet eldan o‘zimizga chaqirtirib olishimiz mumkin edi-ku...

– Bilmadim. Tentak ekanman...

– Bu gapingizga ham qo‘shilaman. Endi rejalaringiz qanday?

– Qaysi ma’noda?

– Buyog‘iga qanday yashamoqchisiz?

– Bir amallab... Men Amerikadan noliyotganim yo‘q. Bu yerda yashash menga yoqadi.

– Bo‘lmasam-chi, – quvvatladi uni Loginov. – Buyuk mamlakat. Lekin biz bu yerda begonamiz, e‘tiqodimizdan qat‘i nazar...

Marusya ehtirom bilan tasdiqladi. Suhbatdoshining „biz“ deyishi unga yoqib tushdi. Axir, Loginov muhojir bilan diplomatni birlashtirib aytdi.

– Ehtimol, men yana yurtimga qaytishga ijozat so‘rarman. Kechiringlar, men ongsiz ahmoqni derman.

Loginov o‘ylab qoldi, irjaydi va dedi:

– Kechirim so‘rash uchun ham, Mariya Fyodorovna, xizmat qilish kerak...

Marusya o‘rnidan turib, etagini qoqdi. Kech kira boshlagandi. Men ham o‘rnimdan turdim:

– Keyin nima bo‘ldi?..

Ular menga telefon qilishdi.

– Kim – ular?

– Sovet elchixonasidan ikkitasi.

– Yuraqol, yo‘l-yo‘lakay gapirib berarsan, – dedim Marusyaga.

– Biror joyda qahvaxo‘rlik qilarmiz.

Biz yetmishinchi ko‘chadagi qahvaxonaga kirdik. Musiqa quloqni qomatga keltirardi. Biz ko‘chaning nari-gi betidagi meksikaliklar qahvaxonasiga kirishga majbur bo‘ldik.

– Shunday qilib, keyin nima bo‘ldi, – so‘radim men.

Marusya Loginov bilan peshayvondayoq xayrlashdi. U kuzatib qo‘yaman desa, qarshilik ko‘rsatishga tayyor edi Marusya. Lekin, Oleg Vadimovich dedi:

– Agar istasangiz, men sizga qo‘ng‘iroq qilaman...

Ehtimol, u o‘z boshliqlaridan qo‘rqayotgandir, o‘yladi Marusya. Yoki meni kuzatib qo‘ygisi kelmadimikin?

Marusya uyiga qaytarkan, yo‘l-yo‘lakay o‘zini koyib ketdi. „Bunchalik oshkora gapirishimning nima keragi bor edi...“ – o‘yladi u.

Endi vataniga qaytish haqida o‘ylash ham unga bema’ni tuyula boshladi. Qamab qo‘yishsa-chi? Tavba-tazarru qilishga majburlashsa-chi? Umuman, mening musofir bo‘lishimga sira daxli yo‘q. Amerikani yomonlashning nima keragi bor...

Oradan uch kun o‘tdi. Marusya haligi bema’ni suhbatni unuta boshladi. Buning ustiga Rafa yana paydo bo‘ldi. O‘zida yo‘q xursand. Ish bilan Kanadaga borgani-ni gapirdi. U sukunatni to‘plash bo‘yicha korporatsiya tuzgan emish.

– Nimani? – so‘radi Marusya.

– Sukunatni?

– O‘h-ho‘, – dedi Marusya, – yangilikka o‘xshaydi.

Rafael og‘zi qulog‘ida, xitob qilardi:

– Men millionlab pul topaman! Mana ko‘rasan! Millionlab!

– Juda yaxshi-da. O‘zi qarzlarni to‘lashga qog‘oz ke-
lib turuvdi.

– Menga qara. G‘oyam nimadan iboratligini bilasan-
mi? Hayotimizda shovqin judayam ko‘p. Bu o‘ta zararli.
Odamning asabiga ta‘sir qiladi. Kishilar shuning uchun
asabiy va yovuz bo‘lib qolishgan... Odamlarga oddiy jim-
lik, sukunat yetishmaydi. Shunday ekan, biz uni yig‘amiz,
saqlaymiz va sotamiz.

– Kilolabmi?

– Nega kilolab? Kassetalarda. Har bir kasseta raqam-
langan bo‘ladi. Masalan, birinchi raqamli sukunat: „Tog‘-
larda tong otishi“. Beshinchi raqamli sukunat: „Mehnat
huzuri“. To‘qqizinchi raqam: „Aviahalokatdan keyingi su-
kunat“ va hakoza...

– Telefon uchun pul to‘lash kerak, – dedi Marusya.

Rafa eshitmasdan pivoxo‘rlikka jo‘nab qoldi.

Shu payt telefon qilib qolishdi:

– Biz sovet elchixonasidanmiz, – dedi past ovoz.

Oraga jimlik cho‘kdi.

– Allo! Biz bilan uchrashish niyatingiz bormi?

– Qayerda?

– Xohlagan joyingizda. Ellik to‘rtinchi ko‘chadagi
„Shanxay“ restorani sizga ma‘qulmi? Chorshanba kuni.
Soat uchda.

– Sizlarni qanday taniyman?

– Sizni o‘zimiz topib olamiz. Oleg Vadimovich biz-
ga tushuntirdi. Tashvish tortmang. Faqat kechikmang.
Shuni hisobga olingki, biz Vashingtondan ataylab uchib
boryapmiz.

– Men kelaman, – dedi Marusya.

Keyin o'ylab qoldi: „Bu yerda jazmanlar metroga dollar sarflashdan qo'rqishadi. Ular bo'lsa Vashingtondan uchib kelishyapti. Arzimas narsa bo'lsa ham, har holda yoqimli“.

Marusya aytilgan paytda belgilangan joyga yetib bordi. Restoranda ikkitasi kutib turardi. Bittasi ancha yosh, futbolda. Ikkinchisi – galstuk taqqan, o'n yoshlar chaması kattaroq. Xuddi shunisi o'zini Baliyev deb tanishtirdi. Yoshrog'i qo'lini cho'zdi: – Jora.

Tushlik payti tugagan bo'lishiga qaramay, restoranda odam gavjum edi. Konditsionerlar ishlab turibdi. Yoshgina xitoy qizi ularni deraza oldidagi joyga boshlab bordi. Har birining qo'liga taomnomani tutqazdi. Jora diqqat bilan o'qishga kirishdi.

Baliyev loqaydlik bilan:

– Menga hardoimgiday, – dedi.

– Men ovqatlanmayman, – dedi Marusya shosha-pisha.

– Ixtiyoringiz, – dedi Baliyev.

Jora norozi bo'ldi:

– Xafa qilyapsiz, onaginam! Ziddiyatga boryapsiz!

Demak, xalqaro keskinlik o'chog'ini vujudga keltiryapsiz! Nima keragi bor! Kelishaylik, ishchanlik vaziyatida gaplashaylik.

Shunda Baliyev baqirib berdi:

– Jim bo'ling!

Marusya ikkovining ikki xil odam ekanini yaqqol his etdi. Jora quvnoq va ochiq ko'ngil bo'lsa, Baliyev uning aksi, tund va qattiqqo'l. Lekin ikkalasining orasida qandaydir kelishuv borligi sezilib turardi.

– Bardam, bo'ling, onaginam! – dedi Jora. – Hammasi yaxshi bo'lib ketadi.

Baliyev norozi bo'lib, qovog'ini soldi:

– Nima qilishga o‘zim ham hayronman, Mariya Fyodorovna. Bunday ishlarda qarorni Moskva chiqaradi. Ayni paytda ko‘pgina narsa bizning tavsiyamizga ham bog‘liq.

Xitoy qiz choy olib keldi. Ta‘zim bajo keltirib, orqaga qaytdi.

Jora orqasidan baqirib qoldi:

– Tezroq bo‘l, azizim! Chaqqon-chaqqon!

– Qani gapiring-chi, – dedi Baliyev.

– Nimani?

– Bu yoqqa qanday kelib qolganingizni.

– Nimasini aytaman. Umuman, yaxshi yashardim. Ahmoqligim tufayli bu yerlarga kelib qoldim. Endi gunohimni yuvmoqchiman. Ozodlikdan mahrum etishsa ham mayli.

Jora yana jizzakilik qildi:

– Qo‘ysangiz-chi, onaxon. Hozir kimni qamashyapti? Turmaga tushish uchun ham uncha-muncha xizmat qilish kerak. Josuslik va shu singari...

Baliyev aniqlik kiritdi:

– Ba‘zan mustasno ham bo‘ladi.

– Politsaylar uchun! Mariya Fyodorovna ongsizligi tufayli qilgan bu ishni.

– Umuman, – deya tasdiqladi Baliyev, – qoida shunaqa. Lekin, baribir, kechirishlari uchun xizmatdan qolmaslik kerak. Bu qanaqa xizmat bo‘ladi – u yog‘ini elchixonada gaplashamiz.

– Men u yoqqa borishim kerakmi?

– Qancha tez borsangiz, shuncha yaxshi. Sizni har dushanba kuni kutamiz. Soat birdan oltigacha. Manzilni yozib oling.

– Ana endi, – dedi Jora, – rasmga olinsa bo‘ladi. Proto-

kol uchun emas, albatta. U cho'ntagidan fotoapparat chiqardi. Baliyev Marusyaga yaqinroq surilib o'tirdi.

Fotosuratning ularga nima keragi bor, o'yladi Marusya. Dalil uchunmi?

Elchixonaga borish Marusyaga malol keldi. Baribir borish kerak. Nomiga bo'lsayam. U ikkilanardi nima qilish kerakligini bilmay boshi qotti. Kimdan maslahat so'rashni ham bilmasdi.

Marusya ertalab oltida yo'lga chiqdi. Deraza osha daryolar, tog'lar lip-lip o'ta boshladi.

Keyin u bir soatcha Vashington bo'ylab aylandi. Qurilish havozalarining ko'pligini aytmasa agar, lol qoldiradigan hech narsa ko'rmadi.

Elchixona binosi yashil daraxtlar orasidan zo'rg'a ko'zga tashlanardi. Aylanasiga tortilgan panjara yaxshilab bo'yalgan. Marusya yopiq eshiklar oldida biroz kutgach, tugmachani bosdi:

– Kutib turing, – degan ovoz eshitildi...

Dahliz devorida gerb, telequrilma osig'liq. Yon-verida tanish portretlar, barqut parda, muzlatgich. Kreslo, stol, „Ogonyok“ jurnallari.

Ko'p kutmadi. Uch kishi bo'lib chiqib kelishdi. Jora, Baliyevning o'zi, yana ko'zoynakli bittasi.

– Charchamadingizmi? Yaxshi yetib keldingizmi? Pepsi-kolaga qalaysiz? Rasmiyagchilikdan so'ng Baliyev maqsadga ko'chdi:

– Tanishing: Kokorev Gordey Borisovich.

– Shuning uchun ham biz uni KGB deb ataymiz, – qo'shimcha qildi Jora.

Kokorev uning so'zini bo'ldi:

– Menga quloq soling. Keling, dalillarni bir jamlab ko'raylik. Mariya Makarovich degan kimsa yurtini tark

etadi. Keyin u yana yurtiga qaytib ketishni so'rayapti. Ba'zilar uchun vatan o'yinchoqdek bir gap bo'lib qolganga o'xshaydi. Istasam chiqib ketaman, xohlasam yana qaytib kelaman. Xuddi bozordagidek, xohlaganda olib, xohlama-ganda sotib deganday... Holbuki, bu sotqinlikdan boshqa narsa emas. Demak, gunohingizni yuvishingiz kerak. Shundan keyin Makarovich xonim sizni Vatanga qayta qo'yish kerakmi, yo'qmi degan masala hal etiladi. Sotsi-alistik insonparvarlikning ham cheki-chegarasi bor, axir.

– Bor, – tasdiqladi Jora.

Oraga jimlik cho'kdi. Konditsioner g'uvulladi, muzlatgichga jon kirganday „tirillab“ qo'yardi.

– Xo'sh, o'zingiz menga nima maslahat berasiz? – so'radi bo'shashib Marusya.

– Siz, Mariya Fyodorovna, yozing, – dedi Kokorev.

– Nima?

– Maqola, xabar yoki shunga o'xshash bir narsa.

– Menmi? Nima haqda yozaman?

– Nima haqda bo'lardi, hamma narsani yozing. Be-tashvish va kamchiliksiz yashaganingizni. Sexnovitser-ning gaplari sizga qanday ta'sir qilganini, qanday qilib noto'g'ri qadam bosganingizni yozing. Hozir qanday af-suslanayotganingiz, pushaymon bo'layotganingiz esin-gizdan chiqmasin. Tushunarlimi? Fikr-mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing...

– Qayoqdan olaman?

– Nimani qayoqdan olasiz?

– O'sha fikrlarni-da.

– Fikrlarni men beraman, – dedi Jora...

– Fikr – muammo emas, – rozi bo'ldi Kokorev.

Baliyev kutilmaganda gap qotdi:

– Ba'zilarida fikr bor. Boshqalarda esa kamfikrlar.

– Yaxshi, – dedi Marusya, – men fikrimni qog‘ozga tushirdim ham deylik. Keyin nima bo‘ladi?

– Keyin biz uni bosib chiqaramiz. Siz bilan yuz bergan voqea boshqalarga ibrat bo‘lsin.

– Kim bosib chiqaradi? – so‘radi Marusya.

– Istagan gazeta. Bizning tavsiyamiz bilan! Istasangiz „Literaturnaya gazeta“.

– Yoki „Nyu-York tayms“ – qo‘shib qo‘ydi Jora.

– Axir, men yozishni bilmayman-ku.

– Qo‘lingizdan kelganicha yozasiz. Nima, bu she‘rmi-di, sizga? Muhimi – fakt bo‘lsa, bas. Agar kerak bo‘lsa, o‘zimiz tahrir qilamiz.

– Buyoqqa qarang, onaxon, – dedi Jora tirjayib, – rozi bo‘laqoling, bizni qiynamang.

– Dovlatovdan iltimos qilaman, – dedi Marusya.

– Kimdan? – qayta so‘radi Kokorev.

– Nima, siz Dovlatovni bilmaysizmi? U xuddi Turgenevga o‘xshab yozadi, hatto undan yaxshiroq ham yozadi.

– Agar Turgenevday yozsa, bo‘ladi.

– Unda, bo‘sh kelmang, – maslahat berdi Kokorev.

– Urinib ko‘raman...

Qovoqxonada bizlar, foksterer ko‘ppagi yetaklagan qandaydir mast kishi va o‘ychan qora qiz qoldik. Bu qiz nashavand bo‘lsa kerak, zo‘rg‘a tirikka o‘xshardi.

– Unga shampan quy, – dedi Marusya.

– Shampan xohlaysizmi? – so‘radim men haligi qizdan.

Qiz menga hayrat bilan qaradi-da, teskari o‘girilib oldi. Mening murojaatim unga yoqmadi, shekilli. Hatto yonidagi sumkasini turibdimi, yo‘qmi, deb tekshirib qo‘ydi.

– Nega unaqa qilyapti? – so‘radi Marusya.

– Sen Leningradda emassan, axir, – dedim.

Biz tashqari chiqdik. Sharros yomg'ir quyaypti. Suv bilan to'la ko'chalarda mashinalar qayiq misoli suzayotganga o'xshaydi.

Havo sovudi. Qani endi biror mashina to'xtasa... Sinagog yaqinidagina mashina to'xtatishga muvaffaq bo'ldik. Biz chiqqan ko'hna „Cheker“dan namiqqan kiyim hidi anqirdi.

– Nima balo, sen chindan ketishga qaror qildingmi? – so'radim Marusyadan.

– Menga qolsa hech ikkilanmasdan shartta jo'nab ketardim. Lekin mana bu ahmoqona gap-so'zlarsiz...

– Maqola nima bo'ldi?

– Nima bo'lardi. O'zi oyimga yilda bir martagina xat yozaman. Ushandayam g'ij-g'ij xato bilan. Agar sen yordamlashvorsang.

– Yana nima deysan?! Menga ortiqcha javobgarlikning nima keragi bor? Seni qamab qo'yishsa-chi?

– Qamashsa ham mayli, – dedi Marusya va menga surilibroq o'tirdi.

– Hech bo'lmasa qo'lingni olgin, – deyman unga.

– Voy-bo'y, noz qildilarmi?!

– Taksida bunday yurish, kechirasana-u, menga to'g'ri kelmaydi.

– Buning ustiga, – gapga aralashdi shofyor, – men ruschani yaxshi tushunaman.

– Yo Tangrim! Muncha ongli bo'lib ketibdi bular, – jerkib berdi Marusya nariroq surilarkan.

Shunda men shofyorning tizzasida ruscha gazetani ko'rib qoldim. „Liviya tankeri yondirib yuborildi“, „Shulsning sandinochilarga qarshi liderlar bilan uchrashuvi“, „Futbol bo'yicha jahon chempionati“, „Bronislav Razudalovning bo'lajak gastrollari“ degan sarlavhalarga ko'zim tushdi.

– Iye, bo‘lishi mumkinmas! Qaytadan o‘qiyman: – „Bronislav Razudalovning bo‘lajak gastrollari“. Nyu-York, Chikago, Filadelfiya, Deytrot... ansambli jo‘rligida....

– Gazetangizni bir daqiqaga berib turing-chi, – dedim.

– Nimalar yozishibdi, – so‘radi Marusya.

– Reyganga suiqasd qilishibdimi? Bolshviklar bilan urush boshlanibdimi?

– Ma, – deyman, – o‘qi...

– Yo Tangrim! – dedi Marusya. – Shunisi yetmay turgandi!

„QO‘SHIQ“ OPERATSIYASI

Razudalovning gastrollari uch hafta davom etishi kerak edi. U Bruklinda o‘n oltinchida boshlanardi, keyin Kvinsda. Shundan so‘ng esa Chikago, Filadelfiya, Deytroyt va Torontoda bo‘lib o‘tadi.

Afishalarda: „Qo‘shiq inson bilan qoladi“, deb yozilgandi. Uning tagida yashil barqut pidjakdagi kishi surati berilgan. U mavj urib turgan g‘allazor fonida olingan bo‘lib, ko‘zlari hasrat to‘la o‘smirni eslatardi.

Bunday afishalar bizning dahada ko‘plab yopishtirib tashlangandi. Birgina Zyamka Pivovarov do‘konida shunday afishadan beshtasi bor edi.

Bizning dahadagilarning bu gastrolga qiziqishlari bejiz emasdi. Marusyaning o‘g‘li Razudalovdan ekani ni hamma bilardi. Bu yerda Razudalovning Marusya bilan uchrashuvi sertashvish kechishi ham hech kimga sir emasdi.

U xonanda, sovrindor, sovet san’ati yulduzi, markaziy qo‘mita a’zosi edi. Marusya bo‘lsa, axloqsiz bir ayol.

Partiya a’zosi Razudalov Marusya bilan uchrashishni xohlarmikin? Bizning dahaga ham kelarmikan?

Qisqasi, biz hammamiz bunday uchrashuvdan tashvishda edik. Shunday bo'ldi ham.

Gazetada „Qo'poruvchi mikrofon oldida“ degan maqola bosildi. Unda Razudalovni „Kreml to'rg'ayi“ deb atashibdi. Uning gastrollarini esa „siyosiy desant“ sifatida ta'riflashibdi. Bu ham yetmaganday, maqola muallifi xitob qiladi:

„Kelgindi gastrolchi, o'rtoq Razudalov qo'shiqlari nima haqda? Yahudiy xalqining fojiasi haqidami? Qamoqda qon qaqshab yotgan Irina Ratushinskaya haqidamikin? Bolsheviklar xonavayron qilgan iqtisodiyot to'g'risidami? Yoxud jazolovchi ruhiyatdan so'zlar ekanmi? Yo'q! U boshqacha madhiyalar to'qiydi. Uning qo'shiqlari Vatan farovonligi yo'lidagi mehnat haqida kuylaydi. Soxta do'stlik madh etiladi ularda. Muhabbat haqida kuylanadi bu qo'shiqlarda...

Va bularning hammasiga davlat xavfsizlik qo'mitasi dirijyorlik qiladi.

Lubyankadan kelgan bu gastrolchining bizga nima keragi bor? Bularning orqasida kimlar turibdi? Ularga to'langan valuta qanday maqsadlarga xizmat qiladi?“

Bu maqola katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Har kuni yangi-yangi maqolalar bosilib turdi. Katta bahs boshlanib ketdi. Bahslarda emigratsiyaning eng nufuzli kishilari ishtirok etdilar.

Ba'zi birovlar Razudalov konsertlarini boykot qilishni talab etardilar. Boshqalarning fikri esa aksincha: „Nega endi? Kim xohlasa borsin. Axir biz sovet uvildirig'ini yeyapmiz-ku, Rasputin bilan Belovni o'qiyotganimiz yo'q-ku, axir!“

Publitsist Notan Zaretskiy eng dahshatli bo'lib chiqdi. U Razudalovni o'g'irlash g'oyasini o'rtaga tashla-

di. Keyinchalik uni Saxarovga yoki Ratushinskayaga almashtirib olishimiz mumkin, – derdi u.

Zaretskiyni qo‘llovchi quzg‘unlar ko‘pchilik ekan. Konsert zaliga bomba qo‘yishmoqchi, degan mish-mishlar tarqaldi.

Men Marusyaga qo‘ng‘iroq qildim:

– Sen borasanmi?

– Qayerga?

– Razudalov kechasiga.

– Boraman. Mana shu miyasi aynigan barcha demokratiya uchun kurashchilarga qasdma-qasd borganim bo‘lsin. Sen-chi?

– Men Ittifoqda ham estradani uncha yoqtirmasdim.

– Shu ham gap bo‘ldi-yu...

Keyin Marusya menga gapirib berdi:

– Konsert yaxshi o‘tdi. Uchtami yoki to‘rttami bezori bo‘ldi. Zaretskiy: „Simmernmanga ozodlik!“ degan shiorni ko‘tarib olibdi. „Simmermanning o‘zi kim?“ degan savolga Zaretskiy javob qaytardi:

– Zo‘rlagani uchun qamalgan.

– Moskvadami?

– Yo‘q, Xartford yaqinidagi shahar turmasida.

Zaldan turib Razudalovga qichqirishdi:

– Nega Isroilga ketmaysan?

– Birodarlar, axir, men yahudiy emasman. Buning uchun kechirim so‘rayman.

– O‘zi ancha qarib qolibdi – dedi Marusya. – Biroq ovozi hanuz jarangdor. Qo‘shiqlari hamon o‘sha-o‘sha...

Keyin unga savollar berishdi. Siyosatdan bo‘lak savollar ham bo‘ldi. Masalan, bittasi:

– Marsda hayot bormi? – deb so‘radi.

– To‘lib yotibdi, – javob berdi Bronislav.

– Demak, bizga o‘xshagan odamlar ham bor ekan-da, u yerda...

– Albatta.

– Unday bo‘lsa nega hadeb boshimizni qotiraverishadi? Uchar likopchalar tushadi deyishadimi-ey. Shunday tez uchar apparatlari bor ekan, nega aloqa o‘rnatishdan qo‘rqishadi?|

– Chunki, – deydi Bronislav, – haddan tashqari aqllida ular.

– Rossiyada kommunizm tez orada quriladimi?

– Bunchalik shoshilishning nima keragi bor? Oldin borini eplab olaylik.

Marusya jimib qoldi.

– Sen uni ko‘rdingmi? – so‘radim Marusyadan. – Uch-rashdingmi?

– Ha, ko‘rdim.

Konsert o‘n ikkilarda tugadi. Marusya bilan Lyova sahnaga yaqinroq borishdi. Rafael o‘zini ancha sipo tutdi. Ichimlik topib kelish uchun yugurib ketdi.

Odamlar tarqalmasdi. Razudalov sahnaga chiqdi, ta‘zim qildi, tisarilib qaytib ketdi. U charchagandi. Quchoq‘i xrizantema va gladioluslarga to‘lib ketdi. Tomoshabinlar tinimsiz qarsak chalar, qichqirishardi.

Hayajonlanib ketgan xonanda hushyorlikni yo‘qotdi. U „Labing sharbatidan...“ qo‘shig‘ini kuylab yubordi. Holbuki, bu qushiq sovetlarga qarshi, deb senzura tomonidan taqiqlangandi.

Marusya oxirigacha eshitmadi, oldinga surildi. U boshi uzra to‘rt buklangan qog‘ozni ko‘tarib turardi. „Agar meni ko‘rishni istasang – sim qoq. Mariya“ – deb yozilgandi qog‘ozga. Unda telefon va manzil ham ko‘rsatilgandi.

Marusya Razudalovning nomani ilib olganini ko'rdi. Afsuski, u Marusyaning yuzini ko'rolmadi. Shu bilan konsert tugadi. Marusya Lyovushka bilan tashqari chiqqanida yomg'ir yog'ardi. Qarasa, Rafael mashinada o'tiribdi. Marusya uning yoniga cho'kdi.

– Men seni kutib o'tirib, yig'lashimga sal qoldi, – dedi Rafa.

– Ana, xolos!

– Men seni anovi o'ris bilan ketasan, deb o'yladim.

– To'tini kimga qoldirib ketaman?!

– U juda yaxshi kuylarkan.

– Lolomi?

– Lolomas, anovi o'ris. U bu yerda Lennon, hatto Presli o'rnini bosishi mumkin.

– Ha, albatta.

Shu payt Razudalov orkestri bilan chiqib qoldi. Ularni ikkita mashina kutib turardi. Bittasi ko'k limuzin, boshqasi zangori mikroavtobus.

Razudalov tashvishli ko'rinardi. Marusyaga u kimnidir axtarayotgandek bo'lib tuyuldi. O'z muxlislarining savollariga ayqash-uyqash javob berardi. Ehtimol, elchixona vakillariga gapirayotgandir. Mikroavtobus ruliga o'tirgan Jora emasmikan? – deb o'yladi Marusya. Hammaning ko'zi o'ngida sovet artistiga tashlanish aqldanmikan? Yana bola bilan. Uni obro'sizlantirishning nima keragi bor? Xohlasa– telefon qiladi.

Marusya o'g'liga murojaat qildi:

– Lyovushka, qaragin. Huv, gul ko'tarib turgan amakini ko'ryapsanmi?... Uning kimligini bilasanmi?

Javob bo'lmadi.

Bola Rafael Chikorillio Gonzalesning pinjida uxlab yotardi.

– Ketdik uyga, – dedi Marusya.

Kechasi soat birda Razudalov mehmonxonadan telefon qildi. Avvaliga yigirma martacha: „Masha, Masha, Masha...“ deb takrorladi. So‘ng titroq ovozda gapira boshladi. Biroq bu ovoz kuylayotgandagi ovozigga sira o‘xshamasdi.

– Bizni ogohlantirishdi... Shunday bitim bor ekan, qaytmaydiganlarning hammasini uylariga jo‘natib yuborisharkan...

– Nima, sen ham qaytmaydiganlardanmisan?

– Xudo asrasin, nimalar deyapsan? – qo‘rqib ketdi Razudalov. – Axir men MK a‘zosiman... O‘zing qandaysan?

– Qanday bo‘lardi. Yaxshi. Hammasi joyida. Lyovushka sog‘-salomat...

Oraga jimlik cho‘kdi. So‘ng Razudalov gapira boshladi:

– Ha, Lyovami? Esimda... O‘g‘lim. Albatta, esimda... Mallavoy. O‘zi yaxshimi?

– Yaxshi.

– Maktabga boryaptimi?

– Ha, boryapti, bolalar bog‘chasiga.

– Juda soz! O‘zing-chi?

– Nima o‘zim?

– O‘zing qandaysan, deyaapman?

– Turlicha.

– Erga tegmadingmi?

– Yo‘q.

– Ota-onang qanday?

– Buni sen yaxshiroq bilarsan.

– Ha, albatta-ya... Sog‘-salomat bo‘lishsa kerak. Nega sog‘ bo‘lishmasin. Ayniqsa, otang. Ularni ko‘rmaganimga bir yarim yil bo‘ldi...

– Mening ko‘rganimga ham shuncha bo‘ldi. O‘zing qandaysan?

– Menmi? Yaxshi yuribman, Kuylayapman. Bir necha mukofotlar sovrindoriman... Oshqozon yarasini orttirib oldim.

– U senga nimaga kerak bo‘lib qoldi?

– Bu nima deganing?

– E-ey, hazillashyapman. Uylandingmi?

– Yo‘g‘e... Nikoh sirtmog‘i, kechirasanu, menga bo‘lmas ekan. Buning ustiga hammani faqat omonat daf-tarcham qiziqtiradi... Ha, aytmoqchi, alimentni olib turib-sanmi?

– Qo‘yaver... Endi esingga tushdimi? Sen yaxshisi, uchrashamizmi-yo‘qmi, shuni ayt?

Yana oraga jimlik cho‘kdi.

Rafa uyg‘onib qoldi. Sipolik bilan hojatxonaga yo‘r-g‘aladi.

Razudalov bo‘lsa hamon indamasdi. Keyin ma’yus ovozda:

– Men, umuman, qarshi emasman... Bilasanmi, nima? Bu yerda „Roma“ mehmonxonasida qahvaxona bor. „Ma-rias“ deb ataladi...

– Bu „Marusya qoshida“, „Mariya huzurida“ de-gani...

– Tasodifni qara?! Sen ertaga soat o‘n birga o‘sha yer-ga kelgin. Men deraza oldida o‘tiranman. Sizlar shundoq yonidan o‘tib ketasizlar...

„Yo Xudo, o‘yladi Marusya – sovrindor, xizmat ko‘r-satgan artist. Yana dunyodagi shuncha narsaga a‘zo bo‘la-turib... O‘g‘lini ko‘rishga qo‘rqadi. Shunaqayam bo‘la-dimi?!“

– Mayli, – rozi bo‘ldi Marusya. – Men boraman.

– O‘ttiz beshinchi va yettinchi ko‘chalarning burchagi. Soat o‘n birda.

– Kelishdik...

Mana, o‘ttiz beshinchi va yettinchi ko‘chalarning burchagi. Mo‘jazgina mehmonxona qoshidagi qahvaxonaning derazasi ochiq. Ichkaridagi stolda ellik yoshlardagi erkak o‘tiribdi. Shimi yaxshilab dazmollangan. Portsigarida Kreml tasviri. Sochi oqara boshlagan.

U qahva buyuradi. Buyuriladigan ovqatlar ro‘yxatini chetga surib qo‘yadi. Valutani tejash kerak.

U sigaret olib cheka boshlaydi. Sigareti sovetlarniki. Maxsus kiyimdagi qiz uning yoniga keladi:

– Kechirasiz, bu yerda giyoh chekish mumkin emas. Tevarak to‘la politsiyachi.

– Tushunmayapman?

– Bu yerda giyoh chekish mumkin emas? Tushunmayapsizmi? „Giyohni“ chekmang!

Erkak inglizchani uncha yaxshi bilmaydi. Shunga qaramay, bu yerda chekish taqiqlanganini tushundi. Holbuki, atrofdagilar chekib o‘tirishibdi. U sigaretini o‘chiradi.

Nariroqda o‘tirgan bir zanjigacha unga ko‘zini qisib qo‘ydi. Bu – xafa bo‘lma degani. Axir, marixuana – taraqqiyot yuragi!

Razudalov tirjayib finjonni ko‘taradi. Dunyo yo‘qsillari birligi – mana shunaqa bo‘ladi...

Soat millari o‘n birga yaqinlashyapti. „Gimbess“ do‘koni yonida bashang oq ko‘ylak kiygan ayol. Uning yonida yumaloq yuzli bolakay. Og‘ziga konfet solib olgan, shekilli.

– Oyijon, ketdik, – deydi u. – Yuraqoling. Suv ichgim kelyapti... Yuraqoling endi!..

Onasining ko'zi Razudalovga tushadi: „Oh, sho'rlik-kinam – o'ylaydi alam bilan. – Bularning nima keragi bor?! Bari, bari foydasiz...“

Marusya Lyovushkani yetaklab deraza oldidan o'tib ketadi. Ularning kelajagi – burchak ortida, shovqin suronli Nyu-York ko'chalarida, o'tmishi esa ofitsiant qiz bilan hisob-kitob qilarkan, ularning ortidan qarab qoladi.

O'tmishlari ortda, ularga yetib olmoq istaydi. Eshikka qarab yuradi. Qat'iyatsizlik bilan to'xtaydi.

Bu fojeaga aloqador uchinchi kimsa ham bor. U Marusya ketidan yashirincha poylab yurgan Rafael bo'ldi. Tungi qo'ng'iroq uni tashvishga soldi. Haligi la'nati o'ris uning muhabbatini o'g'irlab ketadi, deb qo'rqayotir. Shuning uchun ham izma-iz poylab kelayotir. Ana u qahvaxona derazasi oldidan o'tdi. Ko'zlari Razudalov ko'zlari bilan to'qnashdi. „Inqilob hokimlar, sudyalalar, mashhur kishilar toifasini abadiyan yo'q qiladi“ – degan fikr kechadi xayolidan.

Razudalov ham o'z navbatida: „Turqing qursin“ deydi ichida. Tag'in: „Xuddi kapitalizm irjayishi“ deb o'ylaydi.

Marusya Lyovushka bilan sabzavot rastalari bo'ylab yurdi. „Steysheneri“ do'koni oldida qadamini sal sekinlatdi. Metro bekatiga burilishdi. Rafael orqalaridan izma-iz kelardi.

Lyovushka „Muzqaymoq“ deb yozilgan do'koncha oldida to'xtadi.

- Yo'q, – dedi Marusya. – Bo'ldi endi!
- Oyijon!
- Bo'ldi, dedim-ku! Axir ertalab yeding-ku muzqaymoq.
- U allaqachon erib bo'ldi, – dedi Lyova.

Marusya o'g'lining qo'lidan tortdi. U oyoq tirab turib oldi.

Shu payt: – To'xta! Mariya, qizishmagin! Leo, ko'z-yoshingni art! Men to'layman! – degan ovoz yangradi.

Shunday deb Rafael (bu, albatta, o'sha edi) cho'ntagidan yuz dollarlikni chiqardi.

Birozdan keyin esa qichqirdi: – Taksi! Taksi!

USHLANGLAR... TO'TIQUSHNI!

Oradan bir yilga yaqin vaqt o'tdi. Polshada „Birdamlik“ tor-mor keltirildi. Janubiy Afrikada shved diplomati Yen Tornxolmni „yeb“ qo'yishdi. Filippinda muxolif partiya rahbarini kimdir otib tashladi. Melitopol yaqinida TU-129 qulab tushdi. Jeraldina Farroroning erini qalloblikda ayblashdi. Bizning dahamizda esa hayot osoyishta kechardi.

Fima bilan Lora Braziliyaga borishdi. Yoqmadi, de-yishdi. Fotoshirkat xo'jayini Yevsey Rubinchik yangi texnika o'rniga Erdelterer sotib oldi. Baptistlar yig'ilishida ovoz berayotib Lemkusning yelkasi chiqib ketdi. Natanzaretskiy matbuotda mahalliy iqlimni qattiq qoraladi. Zyama Pivovarov „Dnepr“ do'konida qahva qurilmasi o'rnatdi. Arkadiy Lerner garaji uchun uch dollarga yelpig'ich xarid qildi. Yefim Druker o'z nashriyotining nomini „Ko'rinmas kitob“ deb o'zgartiribdi. Karavayev avtomobil haydash huquqidan mahrum etilgan terrorchi va o'g'ri Buendiani himoya qilib maqola yozdi. Baranov, Yeselevskiy va Persovich lanchonetni baliq ovlash kate-riga almashtirishdi.

Marusya oktabrdan beri telefon qilgani yo'q. U qandaydir aytish qiyin bo'lgan joyda ishlayotganmish, degan gap tarqaldi. Go'yo allaqanday kinolarda suratga tush-yotganmish.

Uyiga ikki bor qo'ng'iroq qildim. Tusholmadim. Haqini to'lamagani uchun telefonni uzib qo'yishibdi. G'ala-ti-ku, o'yladim men – aktrisalik bilan qashshoqlik bir-biriga qanday mos kelishi mumkin?!

Marusyaning Rafaeldan tashqari beshta jazmani bor, deyishdi.

Ulardan biri – KGB polkovnigi. Bu ham menda shubha tug'dirdi. Telefonsiz bunaqa bo'lishi mumkin emas.

Marusya yurtiga qaytyapti, deyishdi. Ey, u allaqachon Moskvada, deyishdi boshqalari. Marusyani Lubyankada so'roq qilishyapti, deganlari ham bo'ldi.

Shunisi qiziqki, bu gaplarga bizning ayollarning jahli chiqdi. Uning kimga keragi bor, deyishdi. Xuddi Lubyankaga tushish sharaflari bir ishdek.

Rafael haqida ham gap tarqatishdi. Go'yoki u gero-in va marixuana sotib yurarmish. Politsiya uning iziga tushganmish. Bu Rafael degani ham mayda bezori, ham ashaddiy gangster ekan. Baribir, boradigan joyi turma. Ya'ni, Lubyankaga tushmasdan iloji yo'q. To'g'ri, mahalliy ahamiyatga molik bo'lganiga. Aytaylik, Alkatrasga: Tag'in nima balo deb ham atalardi bu yerda?

Bu paytlar mening ishim ancha yurishib ketgandi. „Minta“ kitobim ingliz tilida bosilib chiqdi. „Ozodlik“ radiosida haftalik eshittirishlarim soni ko'paydi. Pachoqlangan „Kraysler“ni ancha shinam „Impala“ga almashtirdim. Dala hovli olish haqida o'ylay boshladim. Va hokazo.

Boshqalarning omadsizligi meni, albatta, tashvishga solardi, lekin oldingichalik emas. Bu o'zi odamlarga xos narsa.

„Mening yoshimdagi nufuzli kishilar, derdim men – jamiyatga emas, balki Tangriga va oilaga tegishli bo'lishi kerak...“

Shu payt Marusya qo'ng'iroq qilib qoldi. (Telefon haqini to'lagan, shekilli).

– Nima gap? Rafami? yoki Lyovushkaga biror narsa bo'ldimi? Aytsang-chi, nima bo'ldi?

Marusya yig'lab yubordi. Men juda qo'rqib ketdim.

– Muska, – deymen unga, – tinchlan, o'zingni bos! Nima bo'ldi? Axir hamma narsaning chorasi bor.

U bo'lsa o'kirib yig'ladi, gapirolmaydi. Nihoyat, yig'i aralash:

– Lolo, – dedi.

– Voy Xudoyim-ey! Unga nima qildi?

– Uchib ketdi!

Ma'lum bo'lishicha, yaramas to'ti yana bir qafasni sindiribdi. Gladiolusli vazani ag'daribdi. Marusyaning atir-upasini titibdi. So'ng oshxonaga kirib pecheneni yeb qo'yibdi. Keyin hojatxonaga o'tib, ochiq derazadan qochib qolibdi.

Marusyani yupatishga urindim:

– Qaytib keladi. Hadeb kuyinaverma. Baribir uchib keladi.

– Hecham-da! Lolo o'lguday qaysar. Yaqinda gazeta bilan bir urgandim, – dedi Marusya. – Forest Xillsda yagona erkak bitta o'sha edi... Mening boshqa hech kimim yo'q...

U o'kinib-o'kinib yig'lardi. Marusyaning sabr kosasi to'lib turgan ekan, shekilli. Loloning uchib ketishi unga so'nggi tomchi bo'lib qo'shilibdi.

Hammasi joyida. Buni men o'zimdan yaxshi bilaman. Shunaqa bo'ladi. Hayotda: ish yurishmaydi, qarzlar yig'ilib qoladi. Kishini vahima bosadi. Mana, ijodim yurishmayapti, navbatdagi qo'lyozmam bir necha yildan beri nashriyotda yotibdi. Jurnallarda bema'ni taqrizlar bosil-

di. Tishlarimni tuzattirishim kerak. Bu yoqda qizimning sog'lig'i joyidamas. Xotinim ajrashaman, deb po'pisa qiladi. Eng yaxshi do'stim qamoqda. Qisqasi, hamma ishim chappasiga ketyapti.

Bu ham yetmagandek, shimning tugmasi uziladi. Yoki, masalan, yuzingga narsa toshadi. Senda qandaydir gumon paydo bo'ladi: mana shu la'nati tugma bo'lmaganida yoki yuzimga narsa toshmaganida, qanday yaxshi yashardim, deysan... Shunaqasiyam bo'ladi...

Marusya bo'lsa hamon jazavada:

– La'natlar bo'lsin! Rossiya, emigratsiya, Amerika!

– Qayerdan telefon qilyapsan?

– Uydan.

– Biznikiga kela qol.

– Lyovushkani ovqatlantirishim kerak. Rafa hozir kelib qoladi... Men ularga nima deyman? Voy Xudoyim-ey, ularga nima deyman?!

Marusya yana yig'lashga tushdi.

Soat oltilarga Rafa keldi.

– Nima gap? – so'radi u.

– Lolo! – dedi zo'rg'a Marusya.

– Kutib tur! – dedi-da, Rafa chiqib ketdi.

Soat olti yarimda u Jamaykaga yetib bordi. U yerda akasi Raul „Omad so'qmoqlari“ degan xizmat korxonasi-ga xo'jayinlik qiladi. Yosh nozir Rafaga akasi yo'qligini aytdi. U tish do'xtiriga ketgan ekan. Ertaga ertalab kelmish.

– Afsus, – dedi Rafael. – Qani, o'rningdan tur-chi!

Yosh nozir hayron bo'lib qoshini chimirdi.

– Tur o'rningdan! – do'q qildi Rafael.

U nozirni itarib tashladi-da, pultga o'tirdi. Mikrofon-ni ulab, dona-dona gapirdi:

– Diqqat! Diqqat! Diqqat!

U biroz nafasini rostlab, davom etdi:

– Birodarlar! Diqqat qilinglar! Mikrofon oldida Rafael Xose Belinda. Hamma! Kim yo‘lda bo‘lsa! Hamma, kim rulda bo‘lsa! Yo‘lovchi-yu, yo‘lovchisiz, pullig-u pulsiz – hamma eshitsin! Ko‘nglida g‘am, qalbida alam, ko‘zida nur, yuzida huzur bo‘lganlar tinglang. Men sizlarga murojaat qilyapman, aziz do‘stlarim! Yashil to‘ti yo‘qolib qoldi. Ushlanglar to‘tiqushni! Yashil to‘ti yo‘qolib qoldi!

Ushlanglar to‘tiqushni!

Shunda bizning ajoyib dahamizda g‘aroyib voqealar yuz bera boshladi. Ko‘chalar bo‘ylab o‘nlab mashinalar izg‘ib qoldi. Ular chiroqlarini tinimsiz yoqib-o‘chirar, signal berishardi. „Allo, men o‘ttiz sakkiz, ikki, o‘n bir. Kontinentalga burilyapman. Olisdan noma‘lum yashil narsa ko‘zga tashlanyapti... Kechirasiz, boss, bu svetofor ekan.

– Hoy! Men Lu Ramiresman. Oltmish to‘rtinchi bo‘ylab Aleksandresga ketyapman. Oldindagi „nol-bir“ manzili doirasida tez uchib ketayotgan yashil qushni ko‘ryapman. Iziga tushdim... yetay deb qoldim. O, Karramba. Bu „Boing Al Italiya“ ekan...

– Hoy boss! Men – Fredi Alamo bo‘laman. O‘n ikki, qirq oltiman. Yelaustoun bo‘ylab, Juel avenyuga qarab ketyapman. Ikkita ajoyib filippinlik do‘ndiqchalar izidan tushdim. Sizni kutaman, boss! Nima? To‘tiqush? Unda yo‘lni G‘arbga buraman...

Oradan bir soat o‘tib, Forest Xillsning barcha yo‘llari ayg‘oqchilarga to‘lib ketdi. Ketma-ket hisobot kelib turibdi:

– Boss! U yashil, lekin huryapti! Menimcha, bu bo‘yalgan tovus bo‘lsa kerak.

– Boss! Men uni ushlab, yukxonaga qamab qo'ydim. Kattagina gapiruvchi to'ti.

„Men – Morgulis“ deb aniq aytyapti.

– Boss! Tovus ham bo'laveradimi? Nima? Qayerdan telefon qilyapsan, deysimi? Madou parkdagi zoo-parkdan...

Bizda gap tezda tarqaladi. Soat to'qqizlarga Baranov, Yeselevskiy va Persovichlar yo'lga chiqishdi. Ularning ortidan Yevsey Rubinchik ham o'z Oldsmobilida yo'lga chiqishdi. Pivovarov o'z refrejerator-trakini haydab chiqdi. Arkasha Lerner yashil „Volvo“sini olib chiqdi. Lemkus esa baptistlar jamoasi tomonidan berilgan pachoq „Xarley Devidson“ mototsiklini haydab qoldi.

Karavayev bilan Zaretskiy soqchilikka piyoda chiqishdi. Publitsist Zaretskiy kattakon transparent ko'tarib olgandi. Unga: „Ushlanglar to'tiqush va Yefim Druker-ni“ deb yozilgandi.

– Drukerning nima aloqasi bor? – degan savolga shunday javob berdi:

– U mening „Totalitarizmdagi munosabat“ degan asarimni nashr qilishi kerak edi. Mana uch yildirki, uni ush-lolmayapman...

Shunisi qiziqki, Yefim Druker hozir boshqa ko'chada soqchilik qilardi. Lekin Karavayev bilan Zaretskiydan an-cha olisroqda...

Forest Xills ustini g'ala-g'ovur qopladi.

– Ushlanglar to'tiqushni! Ushlanglar to'tiqushni! Ush-langlar to'tiqushni!

Bu paytda Marusya Lyovushkani ovqatlantirib bo'lib, televizorni qo'ydi. Chiroyli kiyingan va xushro'ygina oyimqizga o'xshab qolgan Maykl Jekson ingichka ovozda qiyqirardi:

*Men bulutlar oralab,
Yillar oshib boraman.
Yomon havo yorishar
Deya shoshib boraman!*

Ko'chadan Lotin Amerikalik bolakaylar qiyqirig'i eshitilib turardi. Marusyaning qora ko'zoynagini taqib olgan Lyovushka o'zini oynaga solardi. Oshxonada toster chirsillardi.

Marusya muzlatgichdan bir shisha romni oldi va o'zi-cha o'yladi: „Hozir ichib olaman-da, ertalabgacha yig'layman. Nima bo'lsa bo'lar...“

Birdan kimningdir buyruqona ovozi eshitildi:

– Shit!

Marusya alangladi – hech kim yo'q.

O'sha ovoz qat'iyroq ta'kidladi:

– Fak!

Marusya o'rnidan turdi.

Tag'in o'sha ovoz:

– Shit!

Ikki soniyadan so'ng:

– Fak!

Shundan keyin bidirlay ketdi:

– Shit, shit, shit, fak, fak, fak.... Shit, shit, shit, fak, fak, fak...

– Lolo! – xitob qildi Marusya, deraza oldiga yugurib borib, pardani ko'tardi.

To'ti deraza raxida turardi. Yam-yashil, sariq tojli, qizg'ish yolli va qora tumshuqli to'tiqush. Dumining yarmi yulingan.

Qo'ng'iroq jiringladi. Marusya telefonga chopdi. Rafa shubhali so'radi:

– Yolg'iz emasmisan?

– Yo‘q, yolg‘izmasman, – xitob qildi Marusya. – Tez-roq kel!

Marusya Makarovich uyiga yengil mashinalar qatorlashib kela boshladi. Mashinalar yukxonalarining qulflari yoqimli shilqillashga tushdi. U yerdan turli-tuman bog‘lamalar, bo‘g‘chalar, savatlar olina boshladi.

Baranov, Yeselevskiy va Persovich yaltiroq bo‘yin-bog‘larini yechmay turib, bolg‘alar bilan qurollanib ishga kirishdidar. Ular bo‘lak-bo‘lak holda olib kelingan ikki kishilik karavotni taxlay boshlashdi.

Yevsey Rubinchik payvandlangan cho‘yan qafasni inqillagancha ko‘tarib keldi. Lologa mo‘ljallangan bu qafasga Rafael ham sig‘ardi.

Arkasha Lerner Marusyaning huzuriga juda yengil keldi. U dollarga sotib olingan Nyu-York lotoreyasi chip-tasidan olib kelgandi. Shu kuni to‘rt milliondan oshiqroq pul yutug‘i o‘ynalardi.

„Dnepr“ do‘koni sohibi yana bir arava oziq-ovqat, meva-sabzavot olib keldi. Lekin bu safar aravacha melxiordan edi.

Druker bir yuz o‘n sakkiz jildlik „Jahon sarguzasht va fantastika kutubxonasi“ bilan cheklandi.

Ammo huquq himoyachisi Karavayev hammani lol qoldirdi. U boshi garang va mahzun bir ahvolda kirib keldi. Marusya Makarovich sharafiga o‘zini yondirish marosimini o‘tkazmoqchi bo‘ldi. Shundoqqina Marusyaning lifti yonida. Yonayotgan Karavayevni fransuzlarning „Lyua-mel“ brendisi bilan o‘chirishga ulgurishdi. Buni qarangki, uning yashil sintetik pidjagi o‘tga chidamli matodan ekan.

Karavayev sal-pal tinchlangach, muloyimlik bilan so‘radi:

– Mening ichimdagi olovni o‘chirib bo‘lmaydimi?

Unga o‘sha „Lyuamel“dan quyib berishdi.

Publitsist Notan Zaretskiy sovg‘asi hammaga ta’sir qildi. U Marusyaga noyob esdalik hadya etdi. Bu dissident Shafarevichning o‘z qo‘li bilan yozilgan yashirin qo‘lyozmasi edi. „Dargumon“ deb nomlangan bu qo‘lyozmaga shunday yozilgandi: Shafarevich. Oltmish yettinchi yilning yigirma birinchi apreli...”

Soat yettilarga yaqin Marusyaning uyiga hashamdor qora limuzin yaqinlashdi. Undan Gonzales familiyasi o‘n to‘rtta ispan tushdi. Bular: Teofilio Gonzales, Xorxe Gonzales, Jessika Gonzales, Kris Gonzales, Pi Eig Ar Gonzales, Losarilli Gonzales, Mario Gonzales, Filumenio Gonzales, Nik Gonzales va Rual Gonzales. Ular orasida Aron Gonzales ham bor edi. Busiz mumkin emas.

Ma’lum bo‘lishicha, limuzin kuyovga hadya ekan. Kelinga esa ataylab serenada tayyorlab kelishibdi.

Turli-tuman noz-ne’mat-u gullar bilan bezalgan dasturxon yozildi.

Rafael qora kastum-shimda, kelin hoshiyali oq ko‘ylakda. Mehmonlar yuzida tabassum. Lolo ham so‘kinmasdi. Lyovushka odatdagiday lunjiga konfet solib olibdi.

Musiqasi yangrayapti. Hamma kimnidir kutayapti. Ros-tini aytsam, kimni kutishayotganini fahmlab turibman. Ular tirik muallifni kutishyapti.

Mana, biz ham, rafiqam va qizim bilan kirib bordik. Marusya kutilmaganda yig‘lab yubordi...

Endi men lom-mim demayman. Chunki yaxshi narsalar haqida gapirolmayman.

Nimaga deganda biz faqat hamma joyda kulgili, obro‘ni to‘kadigan, ahmoqona va achinarli narsalarnigina ko‘rishga odatlanganmiz. Hozir bularni gapirsam gunoh bo‘ladi.

Qisqasi – shuning uchun ham lom-mim demayman.

TIRIK MUALLIFNING MARIYA TATAROVICHGA MAKTUBI

SO'NG SO'Z O'RNIDA

Musya!

„Sen impotent emasmisan?“ – deb mendan juda ko‘p so‘rarding. Afsuski, yo‘q. Hozircha bu dardga chalinmaganman.

Agar shunday bo‘lsam, unda dalilni sharhlash kerak bo‘ladi.

Ruxsating bilan senga aytmoqchimanki, mening impotensiyamning nomlari: Yelena, Nika, onam. Umuman, tushunarli.

Ha, men bog‘liqman. Lekin men o‘zimni bog‘lab turgan riyozat zanjiri, kishan, bo‘yinturuq, shoti va pixlarimni jon dilimdan yaxshi ko‘raman.

Sen – qahramon, men muallifman. Sen mening g‘a-royib qahramonimsan.

Eshitayotganing hamma narsani men gapiryapman. Sodir bo‘lgan narsaning hammasini men boshimdan o‘tkazganman.

Men – qasoskor, itoatkor, no‘noq, battol muallifman. Men bilganlarning hammasi menda yashaydi. Ular mening jizzakiligim, battolligim, kibr-u havoligim, beg‘amligimdir.

Men – muallif, sizlar mening qahramonlarimsiz.

Bilasanmi, ba'zan o'z-o'zidan baqirgim keladi:

„Yo Rabbim! Bu qanday baxt, qanchalar sharaf! Rus alfavitini bilganim taqdir meni alqaganidir!“

Qisqasi bir-birimizga haqqimiz, da'voimiz yo'q. Tang-ri sizga omad bersin... Agar Xudo yo'q desangiz, Musya, unda o'zingiz harakat qilishingizga to'g'ri keladi.

Shu bilan so'zim tamom-vassalom. Nuqta.

SERGEY DOVLATOV HAQIDA

Pyotr VAYL xotirlaydi

O‘z vaqtida Brodskiy Dovlatov haqida: „U men oxirigacha o‘qiydigan yagona zamonaviy rus yozuvchisidir,“ – degan edi. Xuddi ana shu sifat – qiziqtiruvchanlik bilan Dovlatovning o‘zi ham faxrlanardi. „Seryoja Dovlatov haqida“ degan essesda Brodskiy: o‘n-yigirma yil o‘tgach, Dovlatov tan olingan rus yozuvchilari safidan o‘rin egallaydi, deb yozgan edi. Bu juda aniq bashorat. Holbuki, uzoq vaqt mobaynida Dovlatovga kulgili voqealar hikoyachisi sifatida qarab kelishgan. Darhaqiqat, ko‘p o‘tmay Dovlatov eng mashhur, eng sevib o‘qiladigan rus nosiriga aylandi. Bu ancha hayratomuz, zero Dovlatov nasrida hech qanday g‘ayri oddiy xususiyat yo‘q. Uning uslubi mo‘tadil, tili ravon, mavzulari o‘ta jo‘n. Ba‘zan uning yozganlari latifaga o‘xshab ketadi. Xususan, uning „To‘y bola“ hikoyasi, „Tog‘ga qarab“, „Kimningdir o‘limi va boshqa tashvishlar“ singari asarlaridan latifa hidi kelib turadi. U chinakam hikoyanavis edi. O‘z mo‘ljalini juda kamtarlik bilan Kuprin deb atagani ham bejiz emas. Garchi Kuprin eng buyuk rus yozuvchilaridan bo‘lmasa ham, yaxshigina hikoyanavis edi. Shuning o‘ziyoq Dovlatovning didi qanday bo‘lganini ko‘rsatib turibdi.

Bu, albatta, qandaydir adabiy o‘yin edi. O‘yinning ustasi esa Dovlatov hisoblanardi. Tabiiy, Kuprin bilan

Dovlatovni taqqoslash mumkin. Bunda, o'ylaymanki, hozirgi kitobxonlar hech ikkilanmasdan Dovlatov foydasiga qo'l ko'targan bo'lardilar. Bordi-yu, u o'zini Tols-toy yoki Chexov bilan yonma-yon qo'ymoqchi bo'lsa, demak, bilaturib o'zini ikkinchi yoki uchinchi o'ringa mahkum etgan bo'lur edi.

Dovlatovning chinakam muxlisi bo'lgan ko'plab kishilarni uchratganman. Turli yoshda bo'lgan bunday kishilar har qaysi ijtimoiy qatlamlar orasida topiladi. Mening 82 yashar qaynotam uning ashaddiy muxlisi. Uning asarlarini qo'ldan qo'ymay o'qiyotgan ko'plab o'n olti yashar qizchalarni bilaman. Ehtimol, bu uning aql o'rgatishga urinmasligidandir. Bu narsa o'zi XIX asr rus adabiyotida yetishmas edi. Dovlatovning tili va uslubi – uning o'z iqtidori, hikoyaning tuzilishi esa g'arb adabiyotiga xosdir, deyish mumkin. Dovlatov, umuman, g'alati ma'lumotga ega – u XX asr Amerika adabiyotini juda yaxshi bilardi. Ayni paytda antik adabiyotdan yoki Shekspirdan deyarli bexabar. Men u bilan Skot Fitsjeraldning „Buyuk Getsbi“ yoki Selinjer haqida soatlab gaplashganman. Albatta, u ham barcha o'z tengqurlari qatori qachonlardir Xemingueyga sajda qilgan, keyingi yillarda esa, aksincha, undan yuz o'giran. Lekin Amerika maktabining ta'siri sezilib turibdi – qisqa jumlar, bosiq yumor...

– **Hamma sohada vositalar xasisligi, demoqchisiz-da.**

– Shunday. Dovlatov – o'ta minimalist, bu esa o'quvchini o'ziga tortadi. Kitobxon o'zini qahramongagina emas, balki muallifga ham o'xshatishga haqqi bor-ku, axir. Bunday imkoniyat esa hamisha ham tug'ilavermaydi. Ayniqsa, adabiyot uzoq vaqt fuqarolik tartiblari o'rni egallab kelgan Rossiyada shunday, yozuvchi shohsupaga qo'yilar, unga pastdan turib yuqoriga qaralar edi.

Dovlatov bilan esa yonma-yon turish mumkin (garchi aynan unga pastdan yuqoriga qarashga to'g'ri kelsa ham, chunki uning bo'yi 1 metr-u 96 sm.).

– **Demak, adabiyotda siz hozir aytib o'tganday, Dovlatovning o'z yo'li bor. Lekin Sorokin yoki Pelevin yo'llari ham bor-ku, axir. Sizningcha, ular, bir-birini inkor etmaydimi?**

– Ular yonma-yon yashayveradilar va buning uchun quvonish kerak. Madaniyatda ayirish – hamisha kulfat, qo'shish va ko'paytirish esa faqat foyda. Lekin men Pelevin har qancha mashhur bo'lishiga qaramay, ibodatxona yozuvchisi deb o'ylayman, Dovlatov bo'lsa xalq yozuvchisidir. Hatto 82 yashar qaynotamga ma'qul kelayotgan Sorokin asarlarini qanday o'qishini tasavvur qilishim qiyin. Dovlatov esa hamisha sevib o'qiladigan yozuvchidir. Uning o'z muvaffaqiyatini ko'rolmay ketgani menga juda alam qiladi. Holbuki, u buni ko'rishni juda istardi. U shuhrat qozonishni orzu qilmasdi. Buni tasavvur ham qilolmasdi. Mana u shuhrat qozondi, uni bevaqt o'lim tezlashtirdi. U o'z shuhratigacha atigi bir necha oygina yashay olmadi.

– **Menimcha, uning bunday shuhrat qozonishida do'stlari doirasi, „Zvezda“ jurnali, Dovlatovni adabiyotshunoslik iste'moliga olib kirgan Andrey Ar'ev anchagina rol o'ynaydi.**

– Ha, albatta. Bu rolni baholash qiyin. Lekin, baribir, Dovlatov turli sarhadlarni, masalan, Moskva bilan Leningrad o'rtasidagi sarhadlarni xatlab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Esimda, bir safar Saxalin shimolidagi Oxa shahrida bo'lgandim. Xarob bir joy, zilziladan qattiq shikastlangan, qandaydir neft instituti zo'rg'a kun ko'ryapti, lekin mahalliy telestansiya ishlab turibdi. Ana shu telestansiya-

da mendan Dovlatovni so‘rab-surishtirdi, yana shunday nazokat, bilag‘onlik bilan deng! Demak, barcha maktab, do‘stona doiralar va guruhlar sarhadlari osha keng yoyilishiga muvaffaq bo‘libdi. Afsuski, endi u oramizda yo‘q. Uni o‘z vatandoshlari ko‘rolmaganlari, ayniqsa, achi narli. Uni teleekrandan tushmasligiga shubha qilmayman. Dovlatov teleyulduzlarga xos barcha fazilatlariga ega: kelishgan suxandon. Buni tasavvur qilish qiyin, lekin u juda so‘zamol edi. Sof tilda gapirar, sira so‘kinmasdi. Suhbatda, bahslarda bo‘sh kelishi mumkin. Lekin tarixdan gap ochildimi, bas, jimgina o‘tirib tinglash huzur berardi.

– **Siz uni shaxsan yaxshi tanirdingizmi?**

– Bo‘lmasam-chi. Uni 1978-yili Nyu-Yorkka kelganidan beri yaxshi tanirdim. Biz darhol do‘stlashib ketdik, tanishuvimizning ilk kechasiyoq „sen“lasha boshladik. Bu uning uchun ham, men uchun ham odat emasdi. Bilishimcha, u bilan gaplashgan so‘nggi odam ham men bo‘laman. Men u bilan ertalab soat 8 da gaplashgandim, 10 ga borib olamdan o‘tdi.

– **Sizda „Bir kuni biz Dovlatov bilan“ janridagi voqealardan birortasi yo‘qmi, mabodo?**

– Men gapirishdan qo‘rqaman, chunki Dovlatov bilan nimayiki yuz bergan bo‘lsa, uning o‘zi yozib ulgurgan. Bundan tashqari, uning jozibasi zamonaviy rus adabiyotiga yomon xizmat qildi. Kitobxon ham, hamkasb – adiblar ham uning yutuqlari siri nimadanligini qidirish bilan ovora...

– **Uni takrorlash uchun-da.**

– Xuddi shunday. Hamisha yutuq algoritmini topish mumkindek ko‘rinadi. Dovlatov haqiqiy ismlar, aniq voqealarni qalamga oldi – shu tariqa adabiyot oqimiga keng yo‘l ochildi.

– **Menimcha, bu narsa hozirgi ijodiyotdagi eng jir-**

kanch hodisa bo'lsa kerak, achinarlisi shundaki, uni Dovlatov yaratdi.

– Ha, lekin tabiiyki, bunda uning aybi yo‘q. Yarim kundalik holidagi nasr butunlay uyatli haqoratnomaga aylandi-qoldi. Holbuki, Dovlatovning o‘zi buni sira xohlamasdi. Jurnalistikadagi ayrim hollar bundan mustasno, albatta. U o‘ta qiziqqon edi – sal narsaga portlab ketardi – yahudiy-arman qon aralashmasining hosilasi o‘zini ko‘rsatib turardi. Tezda jahli chiqar, xafa bo‘lar, lekin darhol esidan chiqarardi. Lekin o‘zi kimnidir xafa qilib quydim, degan fikrni xayoliga sig‘dirolmasdi. U xafa qilgan odamidan kechirim so‘rash, bir-ikki og‘iz shirin so‘z aytish uchun Nyu-Yorkning narigi chekkasiga borishdan erinmasdi.

Dovlatovning „Qaydlar daftari“da men ham borman. Mendan o‘sha yerda yozilgani rostmi, deb so‘rashganda, albatta, yo‘q, deyman. Lekin o‘sha daftardagi uydirmaga to‘la qo‘shilaman. Muhimi ana shunda.

– Badiiy jihatdan to‘g‘ri, shundaymi?

– Shunday. Bu borada sira yanglishmasdi. Umuman Dovlatov sira rus hodisasi emas. Chunki unda hissiyot mezoni iste‘dodga nisbatan ancha katta rol o‘ynaydi. An‘anaviy rus tushunchasiga ko‘ra, unda iste‘dod unchalik ko‘p emasdi – qandaydir mavzularni o‘ylab topolmasdi. Shu boisdan ham uning juda kam yashaganligi o‘ta achinarlidir. Chunki iste‘dod so‘nishi mumkin, bunday fazilatlar esa uzoq yashaydi.

– Demak, uning G‘arbga borib qolganligi, ehtimol, tashqi emas, balki ichki qonuniyatdir?

– Albatta. U G‘arbga yozuvchi bo‘lish uchun ketganini bir necha bor gapirgandi. U xorijdagi turmushga unchalik uyg‘unlasha olmasdi. Masalan, inglizchani unchalik yaxshi gapirolmasdi. So‘zga o‘ta e‘tibor berganidan bu holatidan

juda uyalardi. G'arbdagi hayot uslubiga juda tez moslashib ketdi. Bu hayot unga ma'qul kelgandi. Menga hadya etgan bir kitobiga „Daroz Dovlatovdan“ deb yozgandi. U yerda u o'z o'rmini topganday edi. Uzoq yillar har bir kunim uning qo'ng'irog'i bilan boshlanardi. U ertalab soat olti yarim, yettilarda telefon qilardi (biz ikkalamiz ham juda barvaqt turardik), lekin bir narsa menga juda g'alati tuyulardi. Nyu-Yorkda shuncha vaqt yashab, biror marta „Metropolitan“ muzeyiga tushmagani meni ajabdantirardi, umuman boshqa biror muzeyga bormagan edi. Bordi-yu uning huzurida Vena muzeyida Breygelning 12 ta kartinasi bor, deguday bo'lsangiz, darhol: „Bunday keraksiz bilimning senga nima keragi bor?!“ – deb jerkib berardi.

– **Bu ham minimalizmning ko'rinishi-da.**

– Xuddi shunday. Amerikadan u menga nisbatan aql-liroq foydalandi. U Amerikadan hayotga boshqa munosabatda va shaxsga hurmatda bo'lishni o'rgandi. Bu quruq gap emas, axir. Amerika avtobusi qiynalmay chiqib olish uchun nogiron odam oldida „tiz cho'kishini“ ko'rsang, yuraging xapriqib ketadi; bunday ikir-chikirlarni Dovlatov yaxshi ilg'ab oldi va qadrladi. Yana Brodskiy yozganidek, ularning avlodlari mustabid jamiyat ichida o'zlari-ni ozod sezgan birinchi kishilar avlodi edi. Dovlatov esa ana shunday ozodlikni g'arbda topgandi.

– **Holbuki, ayni shu narsa ma'naviyat haqida bizlar sevib lof uradigan har qanday va'zlarimizga ziddir. Zero, ma'naviyat, qadriyat haqida gapiramiz-u, ayni chog'da o'sha nogironni tuproqqa qoramiz.**

– Bularning hammasi begonalarini imkon boricha ko'proq o'ldiradigan, lekin o'z fuqarolariga yordam bermaydigan davlatgina buyukdir, degan o'rta asrlar aqidasi-dan boshqa narsa emas.

– **Lekin, baribir, Dovlatov o'sha hayotga qanchalik moslashmasin, menimcha, uni muhojir yozuvchi deb bo'lmaydi.**

– Yo'q. Umuman, hozir muhojir rus adabiyoti haqida gapirish o'rinsiz. Shunday adabiyot bo'lishi uchun mavzu kerak. Mavzu – ikki dunyo orasidagi uzilishdir.

Bunday uzilish „birinchi o'tuvchi“larda. Hammasi tabiiy ravishda, qayta qurish bilan uzildi-qo'ydi va Xudoga shukr.

– **Siz Dovlatovni sig'inadigan shaxsga aylantirishga urinishni zararli deb hisoblaysizmi?**

– Ha, bu qo'pol paradoks. Ayniqsa, uning asarlarida aql o'rgatadigan narsaning o'zi yo'qligini hisobga olganda, mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Lekin, menimcha, uning zarari yo'q. Rossiyada yozuvchilarga avaylab munosabatda bo'lish shiddat bilan susayib bormoqda. Lekin hali Amerikadagichalik vaziyatga tushib qolingani yo'q.

Zero, sen mehmon bo'lib borsang-u, adib ekanligini aytib qolsang, seni yupatishga harakat qilishadi. Hechqisi yo'q, siz hali biror kasb egallashga ulgurasiz. Biroq, Rossiyada ham hamma narsa shu yo'nalishda harakat qilyapti, shuning uchun ham tashvishlanishga hojat yo'q. Ammo yozuvchi shaxsiga hali-hamon qandaydir ahamiyat berilayotir. Va bu jarayon Rossiyada hali ancha vaqtgacha davom etadi. Shunday ekan, hali yozuvchi shaxsiga sig'inishga urinish bo'lishi turgan gap.

Suhbatdosh:

Tat'yana VOLTSKAYA

G'OLIB SEVGI QO'SHIG'I

Gyustav Flober xotirasiga bag'ishlanadi.

„Wage Du zu irren und zu traumen!“

Shiller¹

I

XVI asrning o'rtalarida Ferrarada (Ferrara bu vaqtda san'at va she'riyat homiylari, oliyanob gersoglar saltanati davrida gullab-yashnagan payt) Fabiy va Mutsiy ismli ikki navqiron yigit yashagan edi. Yaqin qarindosh tengqur bu yigitlar bir-birlaridan qariyb sira ajralishmasdi, yosh bolalik chog'laridanoq astoydil do'st tutinishgan edilar. Taqdirlarining bir xilligi bu do'stlik rishtasini mustahkamlagan edi. Ularning har ikkovi ham tagli-taxtli oiladan chiqqan, boy, o'z erki o'zida, bo'ydoq edi. Didlari va orzu-havaslari ham bir. Mutsiy musiqa, Fabiy rassomlik bilan shug'ullanardi. Butun Ferrara ularni saroy, jamiyat va shaharning mislsiz ko'rki hisoblab, ular bilan faxrlanardi. Garchi ularning ikkovi qaddi-qomati kelishgan yigitlar bo'lsa ham, qiyofasi bir-birinikiga o'xshamasdi.

Fabiy baland bo'yli, bug'doy rang, sochi malla, ko'zlari moviy. Mutsiy, aksincha, qoramag'izdan kelgan, sochlari qora, charos ko'zlari Fabiynikidek chaqnab turmas, lablarida yoqimli tabassum jilva qilmasdi: uning qalin qoshlari

¹ „Xayolga oshno bo'l, qo'rqma xatodan!“ Shiller (*nem.*).

yupqa qovog'i ustiga osilib tushgan, Fabiyning tilla rang qoshi esa yoydek egilib, chiroyli manglayi tomon ko'tarilgan. Mutsiy gapgayam uncha chechan emasdi; shunga qaramay, bu ikki do'st shinavandaligi, mardligi ham saxiyligi sababli ayollarga bab-baravar manzur bo'lishgan edi.

Shular bilan ayni vaqtda Ferrarada Valeriya ismli bir qiz yashardi. U kamdan kam ko'rinsa-da, uni shaharning eng suluv qizi deb hisoblashardi. Qiz xilvatda kun kechirar, uyidan ahyon-ahyonda faqat cherkovga-yu katta bayram kunlarida sayrga chiqardi. U uncha boy bo'lmagan beva oyisi bilan turardi. Xushfe'l onasining undan boshqa farzandi yo'q. Valeriyani uchratgan har bir odamning ko'nglida ixtiyorsiz ravishda taajjub, shuningdek, beixtiyor mehr va ehtirom tuyg'usi uyg'onar: u o'zini kamtarona tutar, go'yo husn-u latofatidan bexabardek ko'rinar edi. Ochig'i, ayrim kishilar uni rangpar deyishardi, qariyb hamisha yerga boquvchi ko'zlarida andak hayo va hatto hadik ifodalari balqirdi, lablari tabassumdan ora-sira, shunda ham bilinar-bilinmas ochilar, ovozini eshitgan odamning topilishi dargumon. Biroq mish-mishlarga qaraganda, ovozi yoqimli ekan, hali shahar shirin uyqudaligida u xonasiga kirib olib, ud chalib, eski qo'shiqlarni xirgoyi qilishni yaxshi ko'rarkan. Chehrasining rangparligiga qaramay Valeriya sog'lom edi; hatto keksa odamlar ham unga qarab turib beixtiyor: „O, bir kun kelib hali barg yozmagan, pok va toza bu g'uncha ochilib, qaysi yigitga nasib qilsa, u juda ham baxtli bo'ladi-da!“ – deb o'ylashardi.

II

Fabiy bilan Mutsiy ilk bor Valeriyani Ferrara gersogi mashhur Lukretsiya Borjaning o'g'li Erkol amriga binoan Fransiya qiroli Lyudovik XV ning qizi, gersoginyaning

taklifiga ko'ra, Parijdan tashrif buyurgan kazo-kazolar sharafiga berilgan dabdabali xalq bayramida ko'rishadi. Valeriya oyisi bilan Palladiyning surati bo'yicha Ferraning asosiy maydonida tiklangan ko'rkam tribuna o'rtasida, shaharning mo'tabar ayollariga ajratilgan joyda o'tirardi. Fabiy bilan Mutsiy shu kuniyoq uni jon-dillaridan sevib qolishdi. Ular bir-birlaridan sir yashirmaganlari uchun tez orada ko'ngillarida bor gapni bilib olishdi. Shundan keyin gapni bir joyga qo'yib, qanday bo'lmasin Valeriya bilan uchrashishga va ko'ngillaridagi dardlarini unga aytishga qaror qilishdi. Qiz kimni tanlasa, boshqasi so'zsiz uning qaroriga bo'ysunishi kerak edi. Oradan bir necha hafta o'tgach, ular el orasida haqli ravishda yaxshi nom chiqarganlari boisidan bevaning kirish amrimahol bo'lgan uyiga qadam ranjida qilishga muvaffaq bo'lishdi. Beva ularga kelib-ketishlariga ijozat etdi. Shu-shu ular deyarli har kuni kelib, Valeriyani ko'radigan va u bilan suhbatlashib o'tiradigan bo'lishdi. Yigitlarning qalbida yongan ishq o'ti kundan kunga kuchaya borar, biroq Valeriya ularning kelib turishini yoqtirsa hamki, ko'ngli kimdaligini bildirmas edi. U Mutsiydan musiqa o'rganardi, biroq ko'pincha Fabiy bilan suhbatlashardi: undan unchalik iymanmasdi. Nihoyat, ular o'z qismatlarini uzil-kesil aniqlashga jazm etishdi – Valeriyaga maktub yo'llab, kimni o'ziga loyiq topishini bildirib, xabar qilishini so'rashdi. Valeriya bu maktubni oyisiga ko'rsatib, unga, hali erga tegadigan niyatim yo'q, mabodo, turmush quradigan vaqting keldi desangiz, siz tanlagan odamga tegaman, dedi. Keksa beva sevimli farzandidan judo bo'lishini o'ylab, marjon-marjon yosh to'kdi, biroq kuyovlarning ra'yini qaytarishga hech qanday asos yo'q edi: u har ikkala yigitni

qiziga munosib deb bilardi. Biroq o'ziga Fabiyni ma'qul topib, Valeriyaning ham ko'ngli o'shandadir, deb gumon qilib, o'shani tanladi. Ertasiga Fabiy baxt qushi o'zining boshiga qo'nganini bildi, Mutsiy esa va'dasiga binoan taqdirga tan berdi.

U so'zining ustidan chiqdi, biroq o'z do'sti, raqibi-ning to'y-tomoshasi ko'ngliga sig'madi. Mol-mulkinging aksari qismini darhol sotdi-yu, Sharq tomonga, olis sa-farga jo'nab ketdi. Fabiy bilan xayrlashayotib, qalb ja-rohati bitib, ko'nglimda ehtiros tuyg'usi so'ngandagina qaytib kelaman, dedi. Bolalik va o'smirlik chog'laridagi do'stidan ajralish Fabiyga juda og'ir bo'ldi... Biroq, yaqin qolgan rohat-farog'atni intizorlik bilan kutish nash'asi boshqa har qanday his-tuyg'ularini bosib ketdi-yu, u bu-tunlay zafar quchgan ishq zavq-shavqiga berildi.

Ko'p o'tmay u Valeriya bilan bir yostiqa bosh qo'ydi. Shundagina u qanday bebaho xazinani qo'lga kiritgani-ni uzil-kesil tushundi. Uning Ferraradan sal narida chor atrofi sersoya daraxtlar bilan o'ralgan ajoyib bog'i bor edi, Fabiy xotini va qaynonasini olib shu bog'ga ko'chib keldi. Shunda ular xuddi jannatda yashagandek farog'at-da yashashdi. Turmush qurganlaridan keyin Valeriyaning butun fazilatleri yaqqol namoyon bo'ldi, havaskor ras-som Fabiy mohir rassom bo'lib yetishdi.

Valeriyaning onasi baxtli er-xotinga qarab quvonar, Xudoga shukurlar qilar edi. To'rt yil xuddi shirin tush kabi g'ir etib, o'tib ketdi. Yosh er-xotin bir narsadan siqi-lishgan, ularning yolg'iz tashvishlari farzand ko'rishol-maganlari... Lekin bundan umidlarini uzishmagan. To'r-tinchi yilning oxirida ularning boshiga haqiqiy musibat tushdi: Valeriyaning onasi bir necha kun kasal bo'lib yo-tib, qazo qildi.

Valeriya ozmuncha ko'zyoshi to'kmadi, u uzoq vaqt bu judolikka ko'nika olmadi. Biroq, oradan bir yil o'tgach, hayot yana o'z iziga tushib ketdi. Mana, yoz kunlarining birida hech kimga bildirmay Ferraraga Mutsiy kirib keldi.

III

Mutsiy surunkasiga besh yil yo'q bo'lib ketdi, go'yo hayotdan ko'z yumgandek u to'g'rida dom-darak bo'lma-di. Fabiy o'z do'stini Ferrara ko'chalaridan birida uchratib qolganida ham qo'rqqanidan, ham shodlanganidan qichqirib yuborishiga oz qoldi. Shu zahoti uni bog'iga chorladi. Uning bog'da alohida keng ayvoni bor edi, u do'stiga shu ayvonda turishni taklif qildi. Mutsiy uning taklifini bajon-u dil qabul qildi va shu kuniyoq malayyalik gung, lekin qulog'i eshitadigan, ko'zidan fahm-farosatli ekanligi ko'rinib turgan malayi bilan birga ko'chib keldi. Malayining tili qirqilgan edi. Mutsiy uzoq safar vaqtida turli mamlakatlardan yiqqan qimmatli buyumlari solingan o'ntacha sandiq keltirdi. Mutsiyning qaytib kelganiga Valeriya xursand bo'ldi: u Valeriya bilan xotirjam, do'stona salomlashdi: uning butun turish-turmushidan Fabiyga bergan va'dasini unutmagandek edi. U kun bo'yi ovora bo'lib, ayvonga joy qildi, malayyalik xizmatkori yordamida olib kelgan asil mollarini, gilamlarini, shoyilarini, atlas-kimxoblari-yu qurol-yarog'larini, idish-tovoqlarini, marvarid va feruza qadalgan oltin-kumush buyumlarini, ajoyib-g'aroyib qushlarning patlarini, yana turli-tuman narsalarni joy-joyiga qo'yib chiqdi. Mana shu qimmatbaho narsalar orasida serhasham dur terilgan marjon ham bor ediki, buni Eron shohi ulug' va sirli xizmati uchun Mutsiyga taqdim etgandi, u

o‘z qo‘li bilan bo‘yniga osib qo‘yish uchun Valeriyadan izn so‘radi: Valeriyaga og‘ir va qandaydir harorat taratadigan xosiyati bordek tuyuladigan marjon uning bo‘yniga yopishdi-qoldi. Mutsiy ovqatdan keyin kechga tomon bog‘dagi ayvonchada tolgullar va dafnalarning soyasida o‘tirib, boshidan kechirganlarini hikoya qila boshladi. U olis mamlakatlarda, osmono‘par tog‘larda, suvsiz sahrolarda, katta daryolarda ko‘rgan-kechirganlaridan so‘zladi, ulkan binolar va ehromlar, ming yillik daraxtlar, rango-rang gullar-u qushlardan gapirdi, o‘zi bo‘lgan shaharlar va xalqlarning nomlarini tilga oldi, ularning yolg‘iz nomlarining o‘ziyoq, qandaydir afsonaviy narsalarni eslatardi. Mutsiy butun Sharqni besh qo‘lidek bilib olgan: u barcha jonzot ichida otlari eng asil va chiroyli Eron va Arabistondan o‘tdi, odamlari vahimali o‘simliklarni eslatuvchi Hindistonning ich-ichiga kirib bordi. Dalaylama nomli tirik Xudo – qiyiq ko‘z, gung va soqov odam qiyofasida yashaydigan Xitoy va Tibet chegarasigacha bordi. Uning hikoyalari ajoyib-g‘aroyib edi. Fabiy bilan Valeriya uning gaplariga mahliyo bo‘lib quloq osishdi. Umuman, Mutsiyning chehrasi unchalik o‘zgarmagan: bolaligidan qoracha yuzi o‘tkir quyosh nurida yanada qoraygan, ko‘zlari ilgarigidan ko‘ra kirtaygandek ko‘rinardi – butun o‘zgarish shu, xolos, biroq bu chehraning ko‘rinishi boshqacha: tund, jiddiy edi, hatto kechasi she‘rlar o‘qib, yer-ko‘kni larzaga solgan o‘rmonzorda duch kelgan xavf-xatarlar yoki kunduz kunlari bo‘m-bo‘sh ko‘chalarda sayyohlarni poylaydigan va ularni tutib odamxo‘r temir ma‘budaga qurbon qiladigan johil mutaassiblar to‘g‘risida gapirganida ham yuz ifodasi o‘zgarmadi. Mutsiyning ovozi bosiq va silliq edi. U uddaburon sodiq xizmatkorining yordami bilan

hind baraxmanlaridan o'rgangan fokuslarini ko'rsatdi. Misol uchun u, dastavval, o'zini parda bilan to'sdi-da, birdan barmoqlarining uchi bilan tik turgan bambuk tayog'iga tayanib, osmonda chordana qurib o'tirgan holda namoyon bo'ldi. Bundan Fabiy hang-mang bo'lib qoldi, Valeriyaning esa vahmi keldi... „Afsungarmi, nima balo“, deb o'ylab qoldi u. Mutsiy kichkina nay chalib, savatdan o'rgatilgan ilonlarni chaqirganida, ola-bula mato tagidan ularning qoramtir, yapasqi boshi ko'rinib, tillarini qimirlatganda Valeriyaning yuragi yorilayozdi, u Mutsiydan tezroq bu manfur gazandalarni yo'qotishini iltimos qildi. Kechki ovqat mahalida Mutsiy do'stlarini bo'yni uzun, dumaloq shishadagi Sheroz sharobi bilan mehmon qildi, kichkina piyolalarga quyilgan o'tkir hidli, yashil tusda tovlanadigan tilla rang quyuq sharob sirli jimirlardi. Uning ta'mi yevropa vinolariga o'xshamasdi, u juda shirin va xushbo'y, shoshilmay oz-ozdan ho'plansa, odamning tanasi yayrardi. Mutsiy qo'yarda-qo'ymay Fabiy bilan Valeriyaga bir piyoladan ichirdi, o'zi ham ichdi. Valeriyaning piyolasi ustiga engashib, allanarsa deb shivirlab, barmoqlarini silkitdi. Valeriya buni ko'rdi, lekin Mutsiyning xatti-harakati va yurish-turishida qandaydir begona, misli ko'rilmagan xislatlar paydo bo'lganidan: „Hindistonda yangi dinni qabul qildimi yoki ularda odat shunaqamikin?“ deb o'ylab qo'ya qoldi. Keyin biroz jim turdi-da, safarda yurganingizda musiqa bilan shug'ullandingizmi, deb so'radi. Mutsiy unga javoban malayyalikka hind skripkasini keltirishni buyurdi. U hozirgi skripkalarga o'xshar, lekin unda tor to'rtta emas, uchta edi, qulog'iga ilonning ko'kishroq terisi o'ralgan, ingichka qamish kamoni yarim doira shaklida bo'lib, uchida olmos yaltirab turar edi.

Mutsiy avvaliga vahimali eshitaladigan hazin xalq kuylaridan chalganida haligi ohang nogahon kuchaydi, jarangdor, qudratli yangradi. Uzun-uzun tortilgan kamondan ehtirosli kuy quyilib chiqa boshladi, go'yo u o'z terisi bilan skripkaning qulog'ini o'rab yotgan ilondek chiroyli to'lg'anardi, tantanavor shod-xurramlikka yo'g'rilgan bu kuy shu qadar otashin, shu qadar fusunkor qanot qoqar ediki, Fabiy bilan Valeriyaning dili xun bo'lib, ko'zlariga jiqqa yosh keldi. Mutsiy bo'lsa quti o'chib, qoshlarini chimirib, boshini qiyshaytirgancha skripkaga qo'ydi, u yana ham jiddiy va purviqor, kamonning uchidagi olmos esa, mazkur ajoyib kuydan o't olgandek yalt-yult qilar edi. Mutsiy chalishdan to'xtab, skripkani dahani va yelkasi bilan qisib turgan ko'yi, kamon tutgan qo'lini tushirganda, Fabiy: „Nima bu? Qanday kuyni chalding?“ – deb so'radi. Valeriya churq etib og'iz ochmadi, lekin butun turish-turmushi erining savolini qaytarayotganini ochiq-oydin ko'rsatib turardi. Mutsiy skripkani stol ustiga qo'ydi-da, sochini bir silkitib, nazokat ila tabassum qildi va: „Bumi? Bu kuyni... ushbu qo'shiqni men bir marta Seylon orolida eshitgan edim. Bu qo'shiq u yerda, xalq orasida baxtli, qoniqtirilgan sevgi qo'shig'i sifatida mashhur!“ – dedi. Fabiy: „Yana bir marta chal“ – deb shivirlagan edi, Mutsiy: „Yo'q, buni qaytarish mumkin emas, vaqt kech bo'lib qoldi. Sinora Valeriya orom olmoqlari kerak, men ham bora qolay endi... Charchadim“ – deb javob berdi. Kun bo'yi Mutsiy Valeriya bilan eski qadrdonlardek oddiygina, hurmatini joyiga qo'yib muomala qildi, biroq ketayotib, barmoqlarini kaftiga botirib, uning qo'lini mahkam qisdi va ko'zlariga qattiq tikildi, Valeriya yerga qarab turgan bo'lsa hamki, uning qo'qqisidan loladek qizarib ketgan yuzida tikandek nigohini sezdi. Mutsiyga

hech nima demay qo'lini tortib oldi, Mutsiy ketgach esa, u chiqib ketgan eshikka ko'z tashladi. Valeriya ilgarilari ham undan hayiqqanini esladi... Hozir esa uning qalbidan hayronlik joy oldi. Mutsiy ayvoniga jo'nagach, er-xotin yotoqxonasiga yo'l olishdi.

IV

Valeriya hadeganda uxlolmadi: tomirlaridagi qon ohista, huzur baxsh etib junbushga kelar, boshi o'z taxminicha g'alati sharobdan, balki, Mutsiyning hikoyasi yoxud skripkada chalgan kuyidan asta guvillardi... Tongotarga yaqin u aloha uxlab qoldi va g'aroyib bir tush ko'rdi.

Tushida past shiftli keng bir xonaga kirib borayotganmish... Bunday xonani umri bino bulib ko'rmaganmish. Butun devorlari zarhal, „taram-taram“ yo'lli, kichkina-kichkina havo rang koshinlar bilan qoplanganmish, alebastrdan qilingan o'ymakor ustunlar marmar shiftni ushlab turganmish, ana shu shift va ustunlarning yarmi shaffofmish... Har tomondan xona ichiga taralayotgan yorug' nur barcha narsalarni sirli ravishda bir xil yoritarmish, duxoba yostiqlar oynadek silliq yerning yarmisigacha solingan ensiz gilam ustida yotganmish. Ajoyib-g'aroyib hayvonlarni eslatuvchi burchaklardagi tutatqi tutatiladigan uzun idishlardan bilinar-bilinmas tutun ko'tarilarmish, hech qayerda deraza yo'qmish, devordagi deraza o'mniga tutilgan duxoba parda qorayib turganmish. Bir mahal ana o'sha parda sekin-asta surilibdi-yu, orqasidan Mutsiy chiqibdi. U ta'zim qilarmish; quchog'ini ochib, nuqul kularmish. U temirdek qo'llari bilan Valeriyani belidan quchibdi, quruq lablari a'zoyi badanini o't bo'lib kuydiribdi... U yostiq ustiga chalqancha yiqilibdi.

Valeriya dahshatdan oh-voh qilib, zo'r berib urina-urina oxiri uyg'ondi. U qayerdaligini, nima bo'lganini tuzukroq tushunmay, karavotidan qo'zg'al-di-da, atrofiga alanglab qaradi. A'zoyi-badanini titroq larzaga soldi. Fabiy yonida yotardi. U uxlardi, biroq basharasi derazadan mo'ralayotgan to'lin oy yog'dusida murdaniki singari oppoq... Valeriya erini uyg'otdi, eri unga qaradi-da: „Senga nima bo'ldi?“ – deb hovliqib so'radi. Valeriya hamon a'zoyi badani qaltirab: „Men... men qo'rqinchli tush ko'rdim“ – deb shivirladi.

Xuddi shu asnoda ayvon tomondan kuchli musiqa ovozi eshitildi, shunda Fabiy bilan Valeriyaning har ikkisi bu Mutsiy chalib bergan, u qongan va tantana qilgan sevgi qo'shig'i deb atagan o'sha kuy ekanligini bilishdi. Fabiy hang-mang bo'lib Valeriyaga qaradi... U ko'zini yumib, teskari o'girildi, shu ko'yi ularning ikkovi nafaslarini ichlariga yutib, qo'shiqni oxirigacha tinglashdi. So'nggi sado tingach, oy bulutlar ortiga yashirindi-yu, xona ichiga birdan qorong'ilik cho'kdi... Er-xotin lom-mim demay boshlarini yostiqa qo'yishdi, qaysi biri qachon uxlaganini ikkisi ham bilmadi.

V

Ertasiga ertalab Mutsiy nonushtaga keldi, uning kayfi chog' bo'lsa kerak. Valeriya bilan xushchaqchaq salomlashdi. Valeriya taraddudlanib uning salomiga alik oldi, unga yalt etib qaradi-yu, Mutsiyning quvnoq, mamnun chehrasini, o'tkir, sinchkov ko'zlarini ko'rib, Fabiy darhol uning so'zini bo'ldi:

– Sen, chamasi, yangi joyda uxlolmadingmi deyman? Xotinim ikkovimiz kechagi kuyingni yana chalganingni eshitdik.

– Rostdan-a! Eshitdingizmi? – dedi Mutsiy. – Ha, rost, men u kuyni chaldim, biroq undan oldin uxlab oldim, hatto ajoyib tush ham ko‘rdim.

Valeriya hushyor tortdi.

– Qanday tush? – deb so‘radi Fabiy.

– Tush ko‘rsam, tushimda sharqona bezatilgan keng bir xonaga kirayotganmishman – dedi Mutsiy Valeriyadan ko‘zini uzmay. – O‘ymakor ustunlar shiftni ko‘tarib turganmish, devorlari koshinlar bilan qoplanganmish, na derazasi, na shamlar bo‘lmasa-da, butun xona go‘yo shaffof toshdan tiklangandek pushti rangda emish. Burchaklarda xitoy idishlarida tutatqi tutab turganmish, yerda ensiz gilam, yonida duxoba yostiqlar yotganmish. Men parda tutilgan eshikdan kiribman, boshqa eshikdan esa men bir vaqtlar sevgan ayol kirib kelibdi. U ko‘zimga shu qadar latofatli ko‘rinib ketibdiki, qalbmida ilgarigi ishq o‘ti darhol alanga olibdi...

Mutsiy ma‘nodor jim bo‘ldi. Valeriya qimir etmay o‘tirar, asta-sekin rangi oqarib borar edi... U entikib nafas ola boshladi.

– Shundan keyin – dedi Mutsiy gapida davom etib – o‘rnimdan turib, o‘sha kuyni chaldim.

– O‘sha xotin kim o‘zi? – dedi Fabiy.

– Umi? Bir hindning xotini. Men u bilan Dehli shahrida uchrashgan edim... U hozir tirik emas. Olamdan o‘tgan.

– Eri-chi? – deb so‘radi Fabiy, nega surishtirayotганиni o‘zi ham bilmay.

– Eri ham o‘lgan deyishadi. Ko‘p o‘tmay ulardan bexabar qoldim.

– Qiziq! – dedi Fabiy... – Mening xotinim ham shu kecha g‘alati tush ko‘ribdi. – Mutsiy Valeriyaga diqqat

bilan tikildi. – Lekin menga aytgani yo‘q – deb ilova qildi Fabiy.

Biroq shu payt Valeriya o‘rnidan turdi-da, xonadan chiqib ketdi. Mutsiy ham nonushtadan keyin, Ferrara-da ishim bor, kechga yaqin qaytib kelaman, deb darhol jo‘nab qoldi.

VI

Mutsiy kelmasidan bir necha hafta burun Fabiy bokira Setsiliya¹ qiyofasida xotinining suratini chizishga kirishgan edi. U o‘z san’ati borasida ancha kamolotga erishgan edi, Leonardo da Vinchining shogirdi mashhur Luini Ferraraga, uning huzuriga kelib, maslahatlari bilan unga yordamlashar, buyuk ustozining o‘gitlarini gapirib berar edi. Surat qariyb bitayozgan, bir-ikki qalam urish bilan chehraga sayqal berish qolgan edi. Fabiy haqli ravishda o‘z asari bilan faxrlansa arzirdi. U Mutsiyni Ferraraga jo‘natib yuborgach, ishxonasi tomon yo‘l oldi, odatda, Valeriya uni shu yerda kutib turardi, biroq bugun u yo‘q edi, chaqirgan edi, javob bermadi. Fabiyning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi, uni qidirib ketdi. Uyda yo‘q edi, Fabiy yugurganicha bog‘ga chiqdi va ovloqdagi xiyobonlardan birida Valeriyani ko‘rib qoldi. U boshini ko‘kragiga engashtirib, chalmashtirilgan qo‘llarini tizzasiga qo‘ygan-cha skameykada o‘tirar edi, uning orqasidan yam-yashil sarv daraxti orasidan, zaharli xandadan basharasi bujmaygan, cho‘chchaygan lablarini nayiga qo‘yayotgan marmar satir² qaqqayib turardi. Valeriya erini ko‘rib, xur-

¹*Setsiliya* – qiz o‘tishga so‘z bergan katolik cherkovining momosi. Italian rassmolar uni ko‘ylakda boshiga tilla toj kiyib, qo‘liga nilufar ushlagan holda tasvirlashgan.

²*Satir* – yunon mifologiyasida may va aysh-ishrat ma’budi.

sand bo'ldi, uning tashvishlanib bergan savollariga, biroz boshim og'riyapti, biroq hechqisi yo'q, ishni boshlasak bo'ladi, deb javob berdi. Fabiy uni ishxonasiga olib keldi-da, o'tqazib mo'yqalamni qo'liga oldi, biroq chehrani ko'ngildagidek tugallayolmadi, rosa jig'ibiyron bo'ldi. Buning boisi chehraning andak rangparligi-yu horg'inligi emasdi. Yo'q, chehrada Fabiyning ko'ngliga yoqadigan, unda Valeriyani bibi Setsiliya qiyofasida tasvirlash fikrini uyg'otgan iffat va bokiralik bugun ko'rinmasdi. Oxiri u mo'yqalamni tashladi, xotiniga, ilhom kelmayapti, o'zingniyam tobing yo'qroqqa o'xshaydi, yotib dam olsang tuzuk bo'lardi, dedi-da, suratli molbertni o'girib, devorga suyab qo'ydi. Valeriya uning fikriga qo'shilib, ha, dam olishim kerak, dedi-da, boshi og'riyotganidan yana zorlanib, yotoqxonasiga yo'l oldi.

Fabiy ishxonasida qoldi. U xijolat chekardi. Biroq nima uchunligini o'zi ham tushunmasdi. Mutsiyni o'zi qo'yarda-qo'ymay olib kelib, uyidan joy bergan bo'lsa hamki negadir ko'ngli xijil edi. Rashk qilganidan emasdi. Bu... axir Valeriyaga rashk qilib bo'ladimi! – U do'sti-ning ilgarigidek samimiy emasligini payqardi. Mutsiy olis mamlakatlarda orttirgan begona, noma'lum, chamasi, qon-qoniga singib ketgan yangi xususiyatlar – sehr-jodular, qo'shiqlar, g'alati ichimliklar, anavi soqov malayyalik, Mutsiyning kiyim-boshidan, sochlaridan, nafasidan taraladigan muattar bo'y – bularning hammasi Fabiyning ko'nglida ishonchsizlik, aniqrog'i, hatto hadiksirash tuyg'usini uyg'otardi. Nima sababdan o'sha malayyalik dasturxon ustida xizmat qilayotib unga, ya'ni Fabiyga bunchalik diqqat bilan xunuk qarash qiladi? Mutsiy u haqda, bu malayyalik tilini berib, katta qurbonlik keltirgan, endi buning evaziga buyuk kuchga ega bo'lgan,

degan edi. Xo'sh, bu kuch qanaqa? Tili evaziga bu kuchga qanday erishgan? Bularning hammasi juda g'alati! Hecham tushunib bo'lmaydi! Fabiy xotining yoniga, yotoqxonaga bordi, u o'rnida kiyimi bilan yotar, uyg'og' edi. Uning qadam tovushini eshitib, cho'chib tushdi, keyin xuddi bog'dagi singari xursand bo'ldi. Fabiy karavot chetiga o'tirib, Valeriyani qo'lidan ushladi-da, biroz sukut qilib turib, kecha kechasi uni qanday g'aroyib tush qo'rqitganini, tushning Mutsiy gapirib bergan tushga o'xshash-o'xshamasligini so'radi. Valeriya anordek qizarib ketdi-yu, shosha-pisha javob qildi: „E, yo'q! Yo'q! Men allaqanday maxluqni ko'rdim. U meni tilka-pora qilib tashlamoqchi bo'ldi“. – „Maxluq deysanmi? Odam qiyofasidami?“ – deb so'radi Fabiy. Valeriya: „Yo'q, hayvon... hayvon qiyofasida!“ – dedi-da, o'girilib yotib, qizib ketgan yuzini yostiqqa burkab oldi. Fabiy xotining qo'lini yana xiyla vaqt ushlab turdi-da, indamay uni labiga bosib, chiqib ketdi.

Bu kun er-xotin uchun juda ko'ngilsiz o'tdi. Go'yo ularning boshlari ustida qandaydir qora narsa turgandek bo'ldi, buning nimaligini ular bilishmasdi. Go'yo biror xavf tahdid qilayotgandek, ular birga bo'lishni xohlashar, lekin bir-birlariga nima deyishni bilishmas edi. Fabiy suratni tamomlashga tutindi-yu, biroq bundan hech narsa chiqmadi... Kechki ovqat oldidan Mutsiy qaytib keldi.

VII

U xotirjam va mamnun ko'rinsa ham, hikoya qilishga rag'batli bo'lmadi, hadeb Fabiydan ilgarigi tanish-bilishlarini so'rab-surishtirdi. U Valeriyaga yangi Sheroz sha-

robidan taklif qildi. Valeriya bosh tortgach, o'ziga gapirgandek: „Endi hojati ham yo‘q“ – deb ming‘irlab qo‘ydi. Fabiy yotoqxonasiga xotini bilan qaytib kelgach, darhol uxlab qoldi... Bir soatlardan keyin uyg‘onib, yonida xotini yo‘qligini fahmladi. U dik etib o‘rnidan turdi, xuddi shu onda xotinining tungi ko‘ylakda bog‘dan xonaga kirib kelayotganini ko‘rib qoldi. Yaqindagina yomg‘ir shivalab o‘tgan bo‘lsa hamki, oy ravshan yog‘du sochar edi. Valeriya ko‘zlarini chirt yumib, basharasida pinhoniyo qo‘rquv zohir bo‘lgan holda o‘rin yoniga keldi va qo‘llarini cho‘zib, o‘rnini paypaslab ko‘rdi-da, shosha-pisha indamay yotib oldi. Fabiy unga savol bergan edi, biroq qulog‘iga gap kirmadi, chamasi, u uxlar edi. Unga qo‘lini tekkizgan edi, kiyimida, sochlarida yomg‘ir tomchilarini, ochiq oyoqlarida qum zarralarini ko‘rdi. Shunda u sapchib o‘rnidan turdi-yu, qiya ochiq eshikdan bog‘ga yugurdi. Hamma narsa sutdek oydinga aniq-taniq ko‘rindi. Fabiy alanglab qarab, qumloq yo‘lkada ikki juft oyoq iziga ko‘zi tushdi, bir jufti yalang oyoq edi va uning izi ayvon bilan uy orasida yasminlardan qilingan chekkaroqdagi shiyponchaga olib borar edi. U hang-mang bo‘lib to‘xtab qoldi, mana, nogahon o‘tgan kechasi eshitgan o‘sha qo‘shiqning ohangi tarala boshladi! Fabiy cho‘chib tushdi-yu, ayvonga yugurib kirdi... Mutsiy xonaning o‘rtasida skripka chalib turardi. Fabiy unga tashlandi:

– Sen bog‘damiding, bog‘ga chiqqanmiding, ko‘ylaging yomg‘irdan ho‘l-ku?

Mutsiy Fabiyning kelganidan va uning hayajonlanayotganidan ajablangandek uzuq-yuluq javob berdi...

– Yo‘q... bilmayman... Nazarimda... chiqqanim yo‘q... Fabiy uni qo‘lidan changallab ushladi.

– Nega bo‘lmasa yana bu kuyni chalyapsan? Nahotki yana tush ko‘rgan bo‘lsang?

Mutsiy Fabiyga hamon hayrat bilan tikilardi-yu, lekin hech narsa demasdi.

– Javob ber!

*Barkash bo‘lib chiqdi oy,
To‘lg‘anar ilonday soy.
Do‘st uygondi, yov uxlar,
Tovuqqa changal urdi.
Temir tirnoq qarchigay,
Yordam ber, yordam! –*

deb Mutsiy go‘yo behushdek cho‘zib g‘o‘ldiradi. Fabiy ikki qadam orqasiga tislandi-da, Mutsiyga tikildi, o‘ylanib... uyiga, yotoqxonaga qaytdi.

Valeriya boshini qiyshaytirib, qo‘llarini ikki yoniga behol tashlagancha dong qotib uxlab yotardi, Fabiy uni zo‘rg‘a uyg‘otdi... Biroq u ko‘zini ochib, Fabiyning ko‘rgani hamonoq o‘zini uning bo‘yniga tashladi va titrab-qaqshab quchoqladi, a‘zoyi-badani larzaga kelgan edi.

Fabiy uni tinchitishga urinib:

– Senga nima bo‘ldi, jonim, nima bo‘ldi! – deb takrorlar, biroq Valeriya uning pinjiga suqilib, qimir etmay jimgina turar edi.

Oxiri uning ko‘ksiga yuzini yashirib:

– Oh, qanday dahshatli tushlar ko‘raman-a – dedi, Fabiy undan surishtirishga og‘iz juftlagan edi... u qaltirab ketdi...

Nihoyat, u pinakka ketganida deraza oynalarida quyosh nurlari jilva qilayotgan edi.

VIII

Ertasi kuni saharda Mutsiy ertalabdanoq g'oyib bo'ldi. Valeriya eriga qo'shni monastirga borib kelmoqchi ekanligini aytdi. Bu yerda uning piri murshidi yashar, unga g'oyatda ixlosi baland edi. Fabiyning savollariga u, tavba-tazarru qilay, shoyad so'nggi kunlardagi g'ayritabiiy hodisalarning ta'siridan forig' bo'lsam, yuragim taskin topsa, deb javob berdi. Fabiy Valeriyaning oriqlab ketgan yuziga qarab, shikasta ovozi eshitib, uning istagini ma'qulladi. Lorenzo hazrat unga jo'yali maslahatlar berib, gumon va shubhalarini ko'nglidan tarqatib yuborishi mumkin... Valeriya to'rt kishi kuzatuvida monastirga jo'nadi, Fabiy esa uyda qoldi va xotini qaytguncha, unga nima bo'lganini bilishga urinib, xavotirga tushdi. G'azabi qaynab, noaniq shubhalardan yuragi o'rtanib, bog'da aylanib yurdi... U bir necha bor ayvonga kirdi, biroq Mutsiy qaytmagan, malayyalik esa unga itoatgo'ylik bilan boshini egib, haykaldek qotib turardi. Fabiyning nazari-da, uning qoramtir basharasida yashirin istehzo bordek tuyulardi. Bu orada Valeriya piriga tavba-tazarru qilib, hamma gapni uyalib emas, dahshatga tushib, gapirib berdi. Pir uning gaplarini diqqat bilan eshitdi, uni duo qildi va beixtiyor qilgan gunohini kechirdi. Ko'nglidan esa: „Sehr-u jodu, shaytoniy may... bu ishni bundayligicha qoldirib bo'lmaydi“, degan gapni o'tkazdi-yu, Valeriya-ga uzil-kesil tasalli berish uchun u bilan birga uning bog'iga keldi. Fabiy ruhoniyni ko'rib, bezovtalandi, biroq ko'pni ko'rgan chol nima qilishini oldindan o'ylab qo'ygan edi. U Fabiy bilan xoli qolgach, turgan gapki, Valeriyaning iqror bo'lib aytgan gaplarini yashirdi, lekin Fabiyga o'zing chaqirib kelgan mehmoningni im-

koni boricha tezroq uyingdan daf qil, u oʻz hikoyalari, qoʻshiqlari va xatti-harakati bilan Valeriyaning ongini zaharlagan, dedi. Boz ustiga, cholning fikricha, Mutsiy ilgari ham dinga unchalik sodiq boʻlmagan ekan, xristian dinidan bebahra mamlakatlarda uzoq yurgani vajidan esa u yerlardan soxta taʼlimotlarning marazini olib kelishi, hatto sehr-u jodu sirlari bilan tanishgan boʻlishi ehtimoldan xoli emas ekan, shu boisdan eski doʻstlik hurmati bunga monelik qilsa hamki, oqilona ehtiyotkorlik bunday doʻstlikning bahridan oʻtishni taqozo qilarkan! Fabiy tabarruk pirning fikrlariga toʻla qoʻshildi, Valeriyaga piri murshidining gaplarini yetkazganida uning chiroyi ochilib ketdi. Lorenzo hazrat er-xotinning shukronalik bilan bildirgan minnatdorchiligini va ular monastirga, gʻarib-u miskinlarga atab bergan qimmatli sovgʻalarini olib, uyiga joʻnadi.

Fabiy kechki ovqatdan keyinoq doʻsti bilan orani ochdi qilishga bel bogʻlagan edi, biroq uning gʻalati mehmoni ovqat mahalida qaytib kelmadi. Shunda Fabiy Mutsiy bilan boʻladigan suhbatni ertaga qoldirdi-yu, er-xotin yotoqxonalariga yoʻl olishdi.

IX

Valeriya darrov uxlab qoldi, biroq Fabiy uxlolmadi. Tungi sukunatda koʻrgan-bilganlari va koʻnglidan oʻtkazganlari uning koʻzi oldida ravshanroq namoyon boʻldi, u yanada zoʻr berib oʻziga oʻzi savol bersa hamki, baribir ilgarigidek ularga javob topolmadi. Mutsiy chindan ham afsungar boʻlganmikin, Valeriyani sehrlab qoʻygan boʻlsa-ya? Valeriya xasta... qanday dard bilan ogʻrigan ekin? U boshini qoʻliga qoʻyib, oʻtli

nafasini ichiga yutib, ko'ngilsiz o'ylarga berilib yotganida musaffo osmonga oy chiqdi, oy yog'dusi bilan birga derazalarning yarim shaffof oynalarini teshib, ayvon tomondan yengil xushbo'y epkin kelgandek bo'ldi. Shundaymikin yoki Fabiyning nazarida shunday bo'ldimikin? Mana, zo'r berib chorlovchi, ehtirosli shivirlash eshitildi... va xuddi shu payt Fabiy Valeriyaning bilinar-bilinmas qimirlaganini ko'rdi. U sapchib tushdi, qarasa, Valeriya o'rnidan turyapti, mana, u avval bir oyog'ini, keyin boshqasini karavotdan tushirdi va xuddi telba-keziklar singari xira ko'zlarini oldinga tikib, qo'llarini cho'zgancha bog' eshigi tomon qadam qo'ydi! Fabiy shu zahoti irg'ib o'rnidan turib, yotoqxonaning boshqa eshigidan chiqdi-da, uyning muyulishidan chopgancha o'tib, bog'ga qaragan eshikni to'sdi... U endigina qulfni ushlagan ham ediki, ichkaridan al-lakim eshikni itarganini sezdi, butun gavdasi bilan itardi... yana va yana itardi... keyin ohu fig'on eshitildi...

Fabiyning ko'nglidan: „Axir Mutsiy shahardan qaytgani yo'q-ku?“ – degan gap o'tdi-yu, ayvon tomonga yugurdi...

Xo'sh, u nimani ko'rdi?

Qarasa, ro'parasidan to'lin oy yog'dusidan charog'on bo'lgan yo'lkada xuddi telba-kezik odamlardek qo'llarini cho'zib, ko'zlarini baqraytirgancha Mutsiy kelyapti... Fabiy yugurib uning oldiga bordi, biroq u bir maromda qadam tashlab, unga parvo qilmay yonidan o'tib ketdi. Uning chehrasi oy shu'lasida xuddi malayyalikning basharasi kabi jilmaygandek bo'ldi. Fabiy uni chaqirmoqchi bo'lgan edi... Lekin shu payt orqasidan – uy tomondan derazaning taqillagani eshitildi... U shartta o'girildi...

Rost, yotoqxonaning derazasi lang ochiq edi: derazada esa bir oyog'ini ko'targancha Valeriya turardi... Qo'lari go'yo Mutsiyni izlagandek paypaslanardi... u butun borlig'i bilan unga talpinardi.

Behad qahr-u g'azabdan Fabiyning qoni qaynadi. Fig'oni falakka chiqib: „Ablah, jodugar!“ – deb qichqirdi-yu, bir qo'li bilan Mutsiyning kekirdagidan g'ippa bo'g'di, boshqa qo'li bilan esa uning belidagi xanjarni timirskilab topdi-da, uni dastasigacha g'animning biqiniga sanchdi.

Mutsiy qattiq chinqirdi, jarohatini changallaganicha, yiqila-surila ayvon tomon qochdi. Biroq Fabiy xanjarni suqqanda Valeriya ham qattiq chinqirdi-yu, gup etib yerga quladi.

Fabiy yordam bergani Valeriyaning yoniga yugurdi, uni ko'tarib karavotga olib borib yotqizdi va undan gap so'radi...

Valeriya ancha vaqtgacha qimir etmay yotdi, biroq oxiri ko'zini ochib, chuqur nafas oldi-da, hozirgina o'lim changalidan xalos bo'lgan kishidek paydar-pay xursand bo'lib, erini ko'rdi, ko'rdi-yu, uni bo'ynidan quchoqlab, o'zini bag'riga tashladi. „Senmisan, sen o'zingmisan, o'zingmisan“ – deb g'o'ldiradi. Keyin asta-sekin qo'lini bo'shatdi, boshini orqaga tashladi va rohatbaxsh tabassum ila: „Xudoga shukur, hammasi barham topdi. Oh, qanchalar toliqdim!“ – deb shivirladi-yu, tinch uyquga ketdi.

X

Fabiy xotinining yoniga o'tirdi-da, uning rangpar, oriqlagan, lekin xotirjam chehrasiga tikilib nimalar yuz

berganini va endi nima qilishi lozimligini mulohaza qila boshladi... Nima qilsa ekan-a? Agar Mutsiyni o'ldirgan bo'lsa – u xanjarning qanchalik chuqur suqilganini eslab, uning o'lganiga shubha qilmadi – buni yashirish qiyin! Borib gersogga, sudyalarga xabar qilishi darakor... biroq bu mavhum ishni qanday tushuntiradi? U ya'ni Fabiy o'z qarindoshini, eng qalin do'stini uyida o'ldirsa-ya! Turgan gapki, nima uchun, qanday sababga ko'ra o'ldirding, deb surishtirishadi... Bordi-yu, Mutsiy o'lmagan bo'lsa-chi! Fabiy hamma narsadan bexabar o'tirishga toqat qilolmadi, Valeriyaning uxlab yotganiga ishonch hosil qilgach, kursidan ohista turdi-da, ayvon tomon yurdi. Ayvon osoyishta, yolg'iz bir derazada chiroq ko'rinar edi. U yuragi po'killab tashqi eshikni ochdi (eshikda qonga belangan barmoqlarning izi qolgan, yo'lkadagi qumda ham qon ko'rinar edi) va birinchi qop-qorong'i xonaga kirdi... kirdi-yu, hang-mang bo'lib, bo'sag'ada to'xtab qoldi.

Xonaning o'rtasida eron gilami ustida Mutsiy cho'zilib yotardi, uning boshiga duxoba yostiq qo'yilgan, ustiga gulli keng qizil shol ro'mol yopib qo'yilgan edi. Yuzi sham singari sap-sariq, qovoqlari ko'karib ketgan, ko'zi yumuq edi, nafas olgani bilinmasdi: xuddi murdaga o'xshardi. Qizil shol ro'molga o'ralib olgan malayyalik esa uning oyog'ida cho'kka tushib o'tirardi. U chap qo'lida otquloqqa o'xshash allaqanday o'tni ushlagancha, oldinga sal-pal intilib, xo'jasiga qattiq tikilib turardi. Polga sanchib qo'yilgan chog'roq mash'ala xonani yoritib, yashil shu'la sochmoqda. Mash'alaning alangasi tebranmas, buruqsimas edi. Fabiy kirganda malayyalik qimir etmadi, unga bir qarab qo'ydi-yu, yana Mutsiyga tikildi. O'qtin-o'qtin qo'lidagi o'tni ko'tarib-tushirar,

osmonda silkitar, lablari go‘yo unsiz so‘zlarni so‘zlayotgandek asta-sekin ochilib qimirlar edi. Malayyalik bilan Mutsiyning oralarida xanjar yotardi: Fabiy do‘stiga shu xanjarni urgan edi, malayyalik o‘t bilan xanjarning qonli tig‘iga bir urdi. Oradan ikki daqiqa o‘tdi. Fabiy malayyalikning oldiga keldi-da, egilib: „O‘ldimi?“ – deb past ovozda so‘radi. Malayyalik bosh irg‘itib qo‘ydi va shol ro‘mol tagidan uni qo‘lini chiqarib, qat’iy ravishda eshik tomonga ishora qildi. Fabiy savolini takrorlamoqchi bo‘ldi, lekin malayyalik yana zo‘r qat’iyat bilan chiqib ketishni talab qilib, qo‘lini bigiz qilganini ko‘rgach ham g‘azabi qo‘zib, ham hayratga tushib, indamay chiqib ketdi.

Yotoqxonaga qaytganda Valeriyanning ilgarigidek tinch, bahuzur uxlab yotganini ko‘rdi. U yechinmadi, deraza tagiga o‘tirdi-da, qo‘liga tiralib yana o‘yga botdi. Oppoq tong otganda ham u shu zaylda o‘tirardi. Valeriya hamon uyquda edi.

XI

Fabiy uning uyg‘onishini kutib turib, keyin Ferraraga borishni o‘ylab turganida birdan birov asta eshikni qoqdi. Fabiy tashqariga chiqib, ro‘parasida o‘zining keksa eshik og‘asi Antonioni ko‘rdi.

– Sinor – deb gap boshladi chol – malayyalik hozir bizga shuni bayon qildiki, Mutsiyning tobi qochib qolganmish, endilikda ko‘ch-ko‘ronini olib, shaharga ketishga istak bildirganmish, shu boisdan narsalarini yig‘ishtirishga qarashadigan odam yuborishingizni, peshinga yaqin esa yuk ortiladigan va minib ketiladigan otlar bilan bir necha kuzatuvchi berishingizni so‘rayotganmish. Ijizat etasizmi?

– Buni senga malayyalik aytdimi? – deb so‘radi Fabiy. – Qanday tushuntirdi? Axir u soqov-ku.

– Mana, sinor, bu gaplarning hammasini manavi qog‘ozda o‘zimizning tilda bayon qilgan, juda to‘g‘ri yozgan.

– Mutsiyning tobi qochganmish, dedingmi?

– Ha, qattiq betobmish – uni ko‘rishning iloji yo‘q-mish.

– Vrachga odam yubormadinglarmi?

– Yo‘q. Malayyalik izn bermadi.

– Shu so‘zlarni malayyalik yozib berdimi senga?

– Ha, o‘sha.

Fabiy jim qoldi.

– Nachora, aytganlarini bajo qil, — dedi u nihoyat.

Antonio ketdi.

Fabiy xizmatkorining orqasidan hayron bo‘lib qarab qoldi. „Bundan chiqdi, o‘lmagan shekilli? – deb o‘yladi u... va xursand bo‘lishiniyam, afsuslanishiniyam bilmasdi. – Betob? Axir bundan bir necha soat burun o‘lib yotganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan edi-ku!“

Fabiy Valeriyaning yoniga kirdi. Valeriya uyg‘onib, boshini ko‘tardi. Er-xotin bir-biriga uzoq, ma’noli tikilib qolishdi. „Endi u yo‘qmi?“ – deb so‘rab qoldi to‘satdan Valeriya. Fabiy cho‘chib tushdi. „Nima... yo‘qmi? Sen axir... U ketdimi?“ – deb davom etdi Valeriya. Fabiyning ko‘ngli joyiga tushdi. „Yo‘q hali, lekin bugun ketadi“. – „Shundan keyin uni hech vaqt, hech qachon ko‘rmaymanmi?“ – „Hech qachon!“ – „Anavi tushlar ham barham topadimi?“ – „Ha“. Valeriya shodlanib yengil nafas oldi, lablarida yana tabassum jilva qildi. Ikkala qo‘lini eriga cho‘zdi. „Uning nomini sira ham tilga olmaymiz, xo‘pmi, jonim? U jo‘nab ketmaguncha men uydan chiqmayman.

Endi sen kanizaklarimni huzurimga chaqirib yubor... aytmoqchi, shoshma: anavi matohni olgin-da – u Mutsiy sovgʻa qilgan, hozir stol ustida yotgan marjonni koʻrsatdi – eng chuqur qudugʻimizga tashla. Meni bagʻringga bos, men sening Valeriyangman – u ketgunga dovur yonimga kelma“. Fabiy marjonni oldi, nazarida, durlari nursizlanib xira tortgandek boʻldi. U xotinining amrini bajo keltirdi. Soʻng uzoqdan ayvon tomonga nazar tashlab bogʻda aylanib yurdi. Bu vaqtda odamlar ayvon oldida gʻimirsib, lash-lushlarni yigʻishtirishayotgan edi, mana, nihoyat, sandiqlarni olib chiqib, otlarga orta boshlashdi. Fabiyning koʻnglida ayvonda boʻlayotgan ishlarni yana bir marta koʻrib kelishga kuchli istak uygʻonib, uni vasvasaga sola boshladi. U ayvonning orqa tomonida yashirin eshik borligini esladi. Shu eshikdan ertalab Mutsiy yotgan xonaga kirish mumkin edi. U pusib, eshik oldiga keldi, eshik ochiq edi, u ogʻir darpardani surib, qoʻrqa-pisa ichkariga koʻz qirini tashladi.

XII

Mutsiy endi gilamda yotmas edi. U safar kiyimida kursida oʻtirar, biroq hamon Fabiy birinchi marta koʻrganidagi kabi murdaga oʻxshar edi. Zildek boshi kursining suyanchigʻiga shilq etib tushgan, chalmashtirib qoʻyilgan qoʻllari tizzalari ustida sargʻayib koʻrinar, koʻkragi koʻtarilmasdi. Kursi yonida qoramtir suyuqlik solingan bir nechta yassi piyola turardi. Ulardan kishining nafasini boʻgʻadigan oʻtkir hid anqirdi. Har bir piyola yonida oʻqtin-oʻqtin munchoqdek koʻzlarini chaqnatgancha, kichkina-kichkina sariq ilonlar kulcha boʻlib yotardi, shundoqqina Mutsiyning oldida, ikki qadam na-

rida ola-bula duxoba chopon kiyib, belini yo'lbarsning dumi bilan bog'lab, kulohni eslatuvchi baland qalpoq kiygan malayyalikning novcha gavdasi qaqqayib turardi. Biroq u endi jim turmasdi, goh astoydil egilar, goh qaddini yana rostlar, hatto oyog'ining uchida turar, goh bir maromda qulochini yozar, goh zo'r berib Mutsiy to-monga qo'llarini silkitar, go'yo tahdid yoki amr qilayot-gandek bo'lar edi, qovog'ini uyib, depsinardi. Chamasi, bu harakatlar undan katta kuch talab qilardi, hatto azob ham berardi, harsillab nafas olar, basharasidan g'araq-g'araq ter quyilardi. Birdaniga u taqqa to'xtadi, ko'ksini to'ldirib havo yutdi-da, peshanasini tirishtirib kuchandi va go'yo tizgin ushlagandek mahkam siqilgan qo'llarini yig'a boshladi... shunda Fabiyni mislsiz dahshatga sol-gan bir hodisa ro'y berdi, Mutsiyning boshi asta-sekin kursining suyanchig'idan ko'tarilib, malayyalikning qo'liga ergashib harakatga keldi... Malayyalik qo'lini tushirgan edi, Mutsiyning boshi yana suyanchiqqa shilq etib tushdi, malayyalik harakatini takrorladi, boshi ham itoatgo'ylik bilan qo'lga ergashib qimirlay boshladi. Pi-yolalardagi qoramtir suyuqlik qaynadi, piyolalar nozik sado berib jarangladi, ularning yonidagi ilonlar to'lg'an-di. Shunda malayyalik bir qadam oldinga yurdi-da, qoshini chimirib, ko'zlarini olaytirdi va Mutsiyga qarab bosh irg'atdi... shunda murdaning qovog'i pirpiradi, ke-yin asta-sekin kiprik ko'tarildi-yu, ularning tagidan xira ko'z qorachig'i ko'rindi. Mag'rur tantana va shodlikdan, qahrli shodlikdan malayyalikning chiroyi yorishdi, u lab-larini katta ochdi, tomog'idan qudratli na'ra otilib chiq-di... Mutsiyning ham labi ochildi-yu, g'ayritabiiy ovozga javoban zaif ingragan tovush eshitildi...

Shu yerga yetganda Fabiy ortiq bardosh berolmadi;

nazarida, qandaydir ins-jinslarning afsunida ishtirok etayotgandek bo'ldi! Qichqirgancha, orqa-o'ngiga qaramay, tezroq uyiga yetib olish maqsadida duo o'qib, cho'qinib uyi tomon qochdi.

XIII

Oradan uch soat o'tgach, Antonio kelib, hamma ish bitganini, narsalar yig'ishtirib bo'linganini, sinor Mutsiy safarga tayyorlanayotganini xabar qildi. Fabiy xizmatkoriga bir og'iz so'z ham aytmay, ayvon ko'rinib turadigan peshayvonga chiqdi. Yuk ortilgan bir nechta ot ayvon oldida to'planib turardi, shundoqqina zina yoniga ikki kishiga mo'ljallangan keng egar urilgan baquvvat qora ayg'irni olib kelishdi. Xuddi shu yerda boshyalang xizmatkorlar va qurollangan kuzatuvchilar turishardi. Ayvonning eshigi ochildi-yu, yana o'zining ilgarigi kiyimini kiyib olgan malayyalik yordamida Mutsiy ko'rindi. Uning basharasi o'liknikidek, qo'llari shalvirab turar, biroq u odim tashlar edi, rost! Odim tashlardi, otga mindirib qo'yilgach, qaddini tik tutib o'tirdi va paypaslab jilovni topdi. Malayyalik uning oyog'ini uzangiga tiqib qo'ydi va bir sakrab mingashdi-da, uni belidan ushlab oldi, shu ko'yi karvon yo'lga tushdi. Otlar odimlab borardi, ular uy oldidan qayrilishganida, Fabiyning nazarida, Mutsiyning qorato'ri yuzida ikkita oppoq dog' milt etib ko'ringandek bo'ldi... Nahotki Mutsiy unga nigoh tashlagan bo'lsa?! Faqat malayyalikkina unga odatdagicha istehzo bilan ta'zim qildi...

Bularning hammasini Valeriya ko'rdimikin-yo'qmi? Xonasining derazasidagi darpardalar tushirilgan edi. Kim bilsin, u derazadan mo'ralagandir.

XIV

Valeriya tushlikka yemakxonaga keldi, u o'ta ma'sum va mehribon edi, biroq hamon charchaganligini aytib zorlanardi. Lekin unda ilgarigi vahima, doimiy hayrat va pinhoniylar qo'rquv ko'rinmasdi, Mutsiy jo'nab ketganining ertasiga Fabiy yana uning suratini chizishga kirishgandi, xotining chehrasida uni sarosimaga solgan vaqtinchalik nuqson yo'qolganini va avvalgi iffat yana paydo bo'lganini ko'rdi... ko'rdi-yu, mo'yqalam mato ustida dadil, ravon yura boshladi.

Er-xotin yana avvalgidek baxtli yashay boshlashdi. Mutsiy go'yo yer yutgandek dom-daraksiz ketdi. Fabiy bilan Valeriya xuddi uning to'g'risida lom-mim demaslikka va keyingi taqdirini surishtirmaslikka shartlashgandek edilar, darvoqe, Mutsiyning taqdiri hamma uchun sirlicha qoldi. U chindan ham yer yutgandek g'oyib bo'ldi. Fabiy bir kuni o'sha mash'um tunda qanday hodisa ro'y berganini Valeriyaga so'zlab berishi lozimligini ham qarz, ham farz, deb o'ylab og'iz juftlagan edi, Valeriya uning niyatini sezdi, shekilli, dami ichiga tushib ketdi, ko'zlari suzildi, go'yo zarba tushishini kutgandek sergaklandi. Shunda Fabiy uning ahvoliga tushundi.

Ajoyib kuz kunlarining birida Fabiy bibi Setsiliyaning suratini bitirayotgan edi, Valeriya organ oldida o'tirar, barmoqlari klavishlar ustida chopardi... Qo'qqisdan qo'llari ostidan beixtiyor g'olib sevgining bir vaqtlar Mutsiy chalgan kuyi yangrab ketdi, xuddi shu payt Fabiy bilan turmush qurganidan beri birinchi marta vujudida dunyoga kelayotgan yangi hayotning tipirchilaganini his qildi. Valeriya cho'chib tushdi-yu, to'xtadi.

Bu nima o'zi? Nahotki...

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Ajnabiy ayol (<i>Qissa</i>).	
<i>Fayzi Shohismoil tarjimasi.</i>	7
G'olib sevgi qo'shig'i (<i>Hikoya</i>)	
<i>Mirziyod Mirzoidov tarjimasi.</i>	130

Adabiy-badiiy nashr

SERGEY DOVLATOV

AJNABIY AYOL

Qissa va hikoya

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2020

Tarjimonlar:

F. SHOHISMOIL, M. MIRZOIDOV

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
25.04.2020 bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 81–20.
Buyurtma raqami 383-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

Dovlatov, Sergey.

D 63 **Ajnabiy ayol.** [Matn]: qissa va hikoya / Sergey Davlatov; tarjimonlar: F. Shohismoil, M. Mirzoidov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6341-7-6

UO‘K: 821.161.1-31

KBK 84(2Ros)

3200
SERGEY DOVLATOV

AJNABIY AYOL



t.me/ziyonashr



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6341-7-6



9 789943 634176